

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

PULATOV JAXONGIR NAZIROVICH

**“YANGI O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI: MILLIY MAQSAD VA VAZIFALAR”**

(ijtimoiy-falsafiy tahlil)

Monografiya

Navoiy – 2025- yil

Mazkur monografiyada Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari, amalga oshirilayotgan islohotlar, BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari va ularning bugungi kundagi ahamiyatiga oid ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning ma'naviy-axloqiy omillari, Ta'lim, tibbiyot, tenglik, munosib mehnat sharoitlari, ekologiya kabi maqsadlarni amalga oshirishda "Harakatlar strategiyadan -Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyilining o'rni, Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari konsepsiyasining Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyati, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tasnifi: intensiv shakldagi barqaror infratuzilmani rivojlantirish tamoyillari, Boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining samaradorligi, hisobdorligi va shaffofligini oshirishda Yangi O'zbekistonning ustuvor vazifalariga doir ilmiy-nazariy tahlillar berilgan.

Taqrizchilar:

N.O.Safarova - falsafa fanlari doktori, professor

D.A.Karimova - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 29-avgust 5-son yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

KIRISH

I. Bob. Yangi O'zbekiston barqaror taraqqiyotining ijtimoiy asoslari va ularning tarixiy evolyutsiyasi	6-66
1.1. Yangi O'zbekiston, barqarorlik, taraqqiyot tushunchalarining metodologik asoslari.....	7-27
1.2. Barqaror rivojlanishning umuminsoniy me'yor va tamoyillari	28-52
1.3. Yangi O'zbekistonda modernizatsiya va yangilanish jarayonlari	52-65
I Bob bo'yicha xulosa.....	65-66
II Bob. Yangi O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning strategik istiqbollari.....	67-110
2.1. Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning ma'naviy-axloqiy omillari.....	68-84
2.2. Ta'lim, tibbiyot, tenglik, munosib mehnat sharoitlari, ekologiya kabi maqsadlarni amalga oshirishda "Harakatlar strategiyadan -Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyilining o'rni.....	84-98
2.3. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari konsepsiyasining Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyati	98-109
II Bob bo'yicha xulosa.....	109-110
III Bob. Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishida milliy vazifalarni amalga oshirish mexanizmlari.....	111-154
3.1. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar tizimida barqaror rivojlanish vazifalarining amalga oshirish mexanizmlari.....	112-128
3.2. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tasnifi: intensiv shakldagi barqaror infratuzilmani rivojlantirishsh tamoyillari.....	128-142
3.3. Boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining samaradorligi, hisobdorligi va shaffofligini oshirishda Yangi O'zbekistonning ustuvor vazifalari.....	142-153
III Bob bo'yicha xulosa.....	154
IV Bob. Yangi O'zbekistonda taraqqiyotning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslari	155-186
4.1. Yangi O'zbekistonda "Uchinchi Renessans" poydevorini yaratishning ijtimoiy-ma'naviy omillari	156-169
4.2. "O'zbekiston-2030 strategiyasi"ning mamlakat barqaror rivojlanishidagi ahamiyati.....	170-184
IV Bob bo'yicha xulosa.....	185-186
Xulosa	187-189
Adabiyotlar ro'yxati.....	190-195
Ilovalar.....	196-197

KIRISH

Jahonda inson huquqlarini himoya qilish, tengsizlikni barcha ko‘rinishlariga barham berish, qonun ustuvorligini ta’minlash, qashshoqlik va ishsizlikni oldini olish, adolatli va sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, majburiy mehnatni oldini olish, yashil energiya va barqaror rivojlanishni targ‘ib qilish, xavfsiz hamda arzon oziq-ovqat yetishtirish, tinchlikni mustahkamlash, ochiq, inklyuziv jamiyat qurishga o‘tish taraqqiyotning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga aylanmoqda. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatda inson qadrini mustahkamlash, uning mehnatini qadrlash, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, insoniyat kelajagi va taqdiri uchun qayg‘urishga qaratilgan yangicha yondashuv modellarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

Dunyo ilm-fanida siyosatshunoslar, huquqshunoslar, faylasuf va tarixchilar tomonidan qisqa hamda o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari, “hech kimni ortda qoldirmaslik” kabi tamoyillarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, qashshoqlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligi, sog‘lom turmush tarzi, sifatli ta’lim, gender tenglik, xavfsiz suv zaxiralari va sanitariya, mustahkam infratuzilmani yaratish, ekologik barqarorlik, biologik xilma-xillik, quruqlik ekotizmlarini himoya qilish, fan, texnika, innovatsiya sohalaridagi xalqaro hamkorlikni kengaytirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, adolatli, ochiq va inklyuziv jamiyatni shakllantirish, tinchlik hamda xavfsizlikni ta’minlash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish zamonaviy ilm-fanning muhim va dolzarb masalalaridan biri sifatida baholanmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida barqaror taraqqiyotni ta’minlash Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda amalga oshirilmoqda. “Barqaror rivojlanish maqsadlari inson qadri va uning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik va rivojlanish huquqlarini ta’minlash bilan bog‘liq zamonaviy qarashlarni o‘zida jamlagani bilan

ham ahamiyatlidir”¹. Shu bois, aholining iqtisodiy-ijtimoiy himoyasini ta’minlash orqali ular ongida yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisi bo‘lish, yangi O‘zbekistonda yangi dunyoqarash tuyg‘usini shakllantirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish obyektiv zaruriyatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2024. –Б.11.

I. BOB. YANGI O‘ZBEKISTON BARQAROR TARAQQIYOTINING IJTIMOIY ASOSLARI VA ULARNING TARIXIY EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya: “Yangi O‘zbekiston barqaror taraqqiyotining ijtimoiy asoslari va ularning tarixiy evolyutsiyasi” deb nomlangan birinchi bobda Yangi O‘zbekiston, barqarorlik, taraqqiyot tushunchalarining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, barqaror rivojlanishning umuminsoniy me’yor va tamoyillari, Yangi O‘zbekistonda modernizatsiya va yangilanish jarayonlariga oid ilmiy-nazariy g‘oyalarga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” degan g‘oya asosida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-marifiy sohalaridagi islohotlar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Yangi O‘zbekiston tushunchasi mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida shakllanayotgan yangi davlat modelidir. Ushbu modelda inson huquq va imkoniyatlarini kafolatlanganligi, jamiyat barqarorligi, aholi farovonligi, kuchli ijtimoiy siyosat kabi masalalar asosiy o‘rinni egallaydi. Bu esa, mamlakatda amaliy jihatdan o‘z yechimini topishi jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta’minlashning garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekiston milliy taraqqiyot rivojida yangi bosqich hisoblanib, unda xalqning farovon hayoti, barqaror rivojlanishi bilan bog‘liq maqsadlari ifodalangan. Yangi O‘zbekiston orzusi ham jahondagi milliy taraqqiyot g‘oyalari asosida takomillashib kelmoqda. Ushbu orzuda xalqimizning azaliy orzu-umidlari, barqaror taraqqiyot va farovonlik sari intilishlari mujassam bo‘lgan.

“Hech kimni chetda qoldirmaslik” tamoyili jamiyatda ijtimoiy adolatni, integratsiya va barqarorlikni hamda fuqarolik jamiyati qadriyatlarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Bu tamoyil mamlakatimizda jamiyatning barqarorligini ta’minlashda ustuvor masalaga aylanganligi mazkur bobda tizimli tahlil qilingan.

I. Bob. Yangi O‘zbekiston barqaror taraqqiyotining ijtimoiy asoslari va ularning tarixiy evolyutsiyasi

1.1. Yangi O‘zbekiston, barqarorlik, taraqqiyot tushunchalarining ilmiy-nazariy metodologik asoslari.

Bugungi fan-texnika rivojlangan davrda insoniyat tinch-totuv yashashi, huquq va imkoniyatlari himoyalangan, adolatli mehnat sharoiti yaratilgan, qonun ustuvorligi ta'minlangan, umuminsoniy prinsiplarga tayangan jamiyatda yashashni orzu qilishi tabiiy. Bu borada, “Amerika orzusi”, “Britaniya orzusi”, “Rossiya orzusi”, “Yaponiya orzusi”, “Xitoy orzusi”² kabi tushunchalarning dunyo siyosiy lug‘atlarida paydo bo‘layotganligi bunga yaqqol dalildir. Ushbu tushunchalar o‘sha xalqlarning asrlar davomida shakllangan orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan ezgu g‘oya asosida rivojlangan va jamiyat taraqqiy etishiga poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” degan g‘oya asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa, barchamizni mas’uliyat va javobgarlikni his etgan holda, islohotlarga daxldorlik hissi bilan qarashga, mehnat faoliyatini sidqidildan olib borishga bog‘liqdir. Yangi O‘zbekiston tushunchasi mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida shakllanayotgan yangi davlat modelidir. Ushbu modelda inson huquq va imkoniyatlarini kafolatlanganligi, jamiyat barqarorligi, aholi farovonligi, kuchli ijtimoiy siyosat kabi masalalar asosiy o‘rinni egallaydi. Bu masalalar mamlakatda amaliy jihatdan o‘z yechimini topishi, jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” milliy taraqqiyot rivojida yangi bosqich hisoblanib, unda xalqning farovon hayoti, barqaror rivojlanishi bilan bog‘liq maqsadlari ifodalangan. Yangi O‘zbekiston orzusi ham jahondagi milliy taraqqiyot g‘oyalari kabi asrlar davomida takomillashib kelmoqda. Unda xalqimizning azaliy orzu-umidlari,

² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.14.

barqaror taraqqiyot va farovonlik sari intilishlari aks etgan. Shuning uchun uning omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos xalqning boy tarixi, ma'naviy merosi va qadriyatlaridir. "Turli din vakillari, mashhur arboblari, faylasuf va olimlar "bashariyat orzusi" hisoblangan inson hayoti va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida ulug'lanadigan, uning rivojlanishi va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratilgan, yaqinlarga muhabbat va zaiflarga rahm-shavqat, erkinlik, tenglik, adolat va birodarlik kabi tamoyillar asosida qurilgan va eng muhimi, har qanday urushlar, mojaro va nizolardan holi bo'lgan adolatli jamiyat va davlat barpo etish haqida qayg'urishgan"³. Shuningdek, ezgulik va adolat, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan davlat va ma'rifatli jamiyat qurishga harakat qilgan. Bu kabi ezgu g'oya va maqsadlar jamiyat taraqqiyotida asosiy kuch vazifasini bajaradi.

Tarixdan ma'lumki, insoniyat azaldan farovon turmush sharoitini yaxshilashga, munosib hayot kechirishga, adolat hukmron bo'lgan jamiyatda istiqomat qilishni orzu qilib kelgan. Jumladan, yurtimizning qadimiy yozma yodgorliklaridan biri "o'rnatilgan qonun-qoidalar, hayotning asosiy yo'li" ma'nosini anglatadigan "Avesto"⁴ matnida inson hayotini yaxshilash, uni baxtli qilishga oid fikrlar keltirilgan. Qat'iy qonunlar to'plami nomi bilan mashhur bo'lgan bu asarda inson qadr-qimmatini ulug'lanib, insonparvarlik munosabatlari shakllanishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Antik davr ilm-fanining rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan manba – zardushtiylik ta'limoti edi. Faylasuf F.Nitshe "Zardo'sht tavallosi" asarida shunday deydi: "Biz "Avesto"ga murojaat qilsak, odamlar bir-birini yaxshi tushunsa, qalbi pok bo'lsa, uyida ham pokizalik bo'ladi. Inson, avvalambor, o'z ichidagi yovuzlikni yengishi kerak. Shunda ong ham o'zgarib, rivojlanib boradi"⁵. Zardushtiylik ta'limoti mazmunida insonlar bir-biriga va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishiga oid masalalar diqqatga molikdir. Bundan tashqari "Avesto"da "Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman, dunyodagi

³ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: O'zbekiston, 2024. –Б.34.

⁴ Авесто: Яшт китоби. –Тошкент: Шарқ, 2001. – 128 б.

⁵ Ницше Ф. Зардўшт таваллоси // "Тафаккур" журнали, 1995, 1-сон. -Б. 91.

jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir”⁶ degan fikr har qanday jamiyat taraqqiyotida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. “Shu tariqa ezgulik va insonparvarlikni himoyalash xalqimiz mentaliteti va ma’naviyatining muhim tarkibiy qismiga, hayotiy faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylandi”⁷. “Zardusht an’analariga asoslangan mutafakkir, inson haqiqatga erishmog‘i uchun ikkiyuzlamachilik, laganbardorlik, kalondimog‘lik, gerdayish, xudbinlik kabi barcha illatlarni yanchib tashlashi, yaxshi, imonli odamlarning hurmatini joyiga qo‘yishi, fidokor, bunyodkor kishilarni e‘zozlashi lozim”⁸ ligini ta’kidlaydi. Binobarin, “Avesto” da keltirilgan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyili nafaqat o‘z davri uchun xalq tafakkuri va turmush tarzida ahamiyatli bo‘lib qolmasdan balki, bugungi davr uchun ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgan emas.

Islom dini yurtimizga kirib kelishi natijasida jamiyat azolari tafakkurida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Xususan, jamiyat barqarorligini ta’minlaydigan asosiy harakatlantiruvchi kuch inson ekanligiga asosiy urg‘u beriladi. Bundan tashqari ilm olish, kasb-hunar egallash, halol mehnat qilish kabi axloqiy g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Bu esa, iqtisodiy hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, islom dinida tabiatni ortiqcha isrof etmaslikni, tabiatga ehtiyotkorlik va uni asrash kerakligini, isrof va ifloslantirish qat’iyan man etilganligi, boy-kambag‘al o‘rtasidagi tafovutni qisqartirish, zakot, sadaqa va boshqa moliyaviy majburiyatlar orqali ijtimoiy adolatni ta’minlash, ilm-fanni rivojlantirishni, yangi bilimlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. “Odamlarning kundalik hayot tarzi, xususan, fikrlash madaniyatidagi o‘zgarishlar, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi faollik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik va bunyodkorlik tuyg‘usining ortishi, shuningdek, yangilikka intilishning kuchayishi musulmon madaniyati ta’sirining natijasi bo‘lgan⁹” degan fikr dunyo tamadduni rivojiga islom dinining ahamiyati katta ekanligiga ishoradir. Musulmon fuqarosining ma’naviy-axloqiy qiyofasi haqida so‘z borganda, imom Buxoriy: “musulmon kishisi o‘zining ota-

⁶ Сулаймонова Ф. Шарк ва Ғарб. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. –Б. 206-211

⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б.15.

⁸ Nitshe F. Zardusht tavallosi. Tafakkur, 1991, № 1, 98-99-betlar.

⁹ Чалоян В.К. Восток и Запад. М., 1979, 476-bet

onasi, qavmi-qarindoshlariga, aka-ukalariga doimo muruvvat ko'rsatib turishi zarur, deb hisoblaydi"¹⁰ degan fikrda esa, oilaviy xotirjamlik, qarindoshlar o'rtasidagi siylayi –rahm, mehr-muruvvat rishtalari bilan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, jamiyat barqaror rivojlanishi uchun ma'naviy omillar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Epikur inson farovon hayot kechirishi uchun moddiy olam sirlarini chuqurroq bilishi muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, moddiy olam haqida qancha ko'proq ma'lumotga ega bo'lsa, inson shuncha farovon va to'q yashaydi. Inson har doim huzur-halovatda, qiynalishdan yiroq yashashi kerak, buning uchun u hech qachon qo'rquvga berilmasligi kerak. "Qo'rquvlik — baxtlilikdir, baxtlilik bilimda, ilmdadir"¹¹, degan qarashlarni ifodalaydi. U, ayniqsa, inson ma'naviy madaniyatini shakllantirish va uni yanada rivojlantirishda bilimning muhim o'ringa ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Allomaning fikricha, qayerda bilim va ilmga e'tibor susaysa, o'sha joyda odamlar axloqan tanazzulga yuz tutadi, jamiyat esa, ma'naviy inqirozga kiradi. Natijada odamlar orasida hurmat-izzat yo'qoladi, mehr-oqibatsizlik kuchayadi. Bilimsizlikning dastlabki belgisi sifatida insonning o'z iffatini yo'qotishini ko'rsatadi. Plotin esa, imon-e'tiqodli insonlardan iborat yuksak avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. "Imon-e'tiqodli kishilarni qaror toptirishning asosiy sharti — ularni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdir"¹² deb hisoblaydi. Shu bois inson ma'naviyatini boyitishga alohida e'tibor beradi. Aytish joizki, bir necha asrlar o'tsada insoniyat doimo baxtli, tinch va farovon hayot kechirishga bo'lgan intilishlardan hech qachon to'xtaymadi. IX-XII asrlarda Sharqda uyg'onish madaniyati, Sharq Renessansi yuz berdi. Bu davr ilk o'rta asrlardagi ma'rifiy uyg'onish nomi bilan tarixda qoldi. Jamiyat taraqqiyoti rivojiga tabiiy, ilmiy fanlar bilan birga diniy ta'limotlar ravnaq topdi. Ushbu davrda yashab ijod qilgan buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosining asosiy g'oyalarida barkamol insonni tarbiyalash,

¹⁰ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. Al-jomi' as-sahih. 4-tom, T, 1997, 81—83, 97-101-b.

¹¹ Материалисты древней Греции. М., 1955, 182-bet.

¹² Choriyev A. Inson falsafasi. T.: Faylasuflar jamiyati, 2007. –B. 55.

inson huquqlari ta'minlanadigan adolatli jamiyat barpo qilish mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga harakat qildi.

Mamlakatimiz tarixida IX-XII asrlar Birinchi va XIV-XV asrlar Ikkinchi Renessans davrida Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Aziziddin Nasafiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi ulug' ajdodlarimiz xalqimizning armonlari, asriy orzu-intilishiga mos ravishda o'lkani ma'rifatli qilishga, jaholatga qarshi kurashga bor kuchi, imkoniyatini safarbar etganlar. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas", degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bilgan va insonlar dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, kasb-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar.

Temuriylar davri allomalarining qarashlari davlat boshqaruvida adolat, oqilona siyosat, ilm-fan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ustuvorligiga asoslangan edi. Zero, jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot ana shu omillar orqali ta'minlanishi kerak edi. Bu davrda yashab ijod qilgan allomalarning jamiyat barqarorligiga oid qarashlari quyidagicha edi:

Mirzo Ulug'bek (1394-1449) ilm-fan ma'rifati yuksalishi orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish g'oyalarini olg'a suradi. Ulug'bek o'z davridagi ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, dunyoviy bilimlarni jamiyatga yoyish orqali jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishiga erishishni taklif etadi.

Alisher Navoiy (1441-1501) o'z asarlarida adolatli hukmron, xalq manfaatlari uchun kurashuvchi hukmdor obrazini yaratadi. U adolatli hukmdorlar davlatni boshqarsa jamiyatda tinchlik-osoyishtalik, barqarorlik, farovonlik hukm surishi haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) o'zining "Boburnoma" asarida jamiyatda mavjud muammolarga, xususan, hukmronlar o'rtasidagi kurash, feodal parokandachilik, qo'shin distsiplinasining buzilishi kabi muammolarga diqqatni qaratadi. U davlat boshqaruvi va ijtimoiy tartibni mustahkamlash, qonun-qoidalar va odob-axloqqa rioya qilish zarurligi haqida fikr bildiradi.

Kamoliddin Behzod (1455-1536) o'z ijodida hukmdorlar va xalq o'rtasidagi yaqin munosabatlarni aks ettiradi. Ayniqsa, fors tilidagi "Shohnoma" dostoni uchun chizgan miniatyurasida adolatli shoh, xalqni turmush tarzi, jamiyat barqarorligining ayrim belgilarini tasvirlagan. Vatanimiz tarixida ikkinchi Renessans davrida yashab ijod qilgan allomalarning jamiyat barqarorligiga doir fikr-mulohazalari hozirgi zamon uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning g'oya va qarashlari zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. "XX asr boshlarida vatanparvar jadid bobolarimiz ma'rifatparvarlik g'oyalariiga tayanib, xalqimizni qoloqlikdan taraqqiyot yo'liga olib chiqish, uni dunyoviy bilimlar va ilg'or kasblar bilan qurollantirish, erkinlik, adolat va tenglik, ma'rifat va milliy o'ziga xoslikni mustahkam qaror toptirish, qadimiy madaniyatimiz va tilimizni rivojlantirishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb bilganlar"¹³. Bundan tashqari, jadid bobolarimiz Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir singari ma'rifatparvarlarimiz xalq erkinligi va farovonligi yo'lida ijod qildi va o'zlaridan buyuk ilmiy meros qoldirdi. "O'z vatanini, ona xalqini ravnaq toptirish uchun o'zini ayamassdan mehnat qilish: bu-jasorat va mardlik, bu-ona yurtga muhabbat va sadoqat, bu-to'g'ri tarbiya va amaliy namuna demakdir"¹⁴. Zero, vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lidagi barcha say-harakatlar jamiyat barqarorligiga zamin yaratadi.

Darhaqiqat, bugungi globallashuv davrida insoniyat sivilizatsiyasini, halokatdan faqat ezgulikka asoslangan ta'limotlar orqali asrab-qolish mumkin. Buning uchun, avvalo, jamiyat a'zolarini bilimli qilish, nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish, har qanday yangilikni ijobiy va salbiy tomonlarini ko'ra olish kabi immunitetini shakllantirish lozim.

Bu borada Buyuk Britaniya bosh vaziri Uinston Cherrillning: "Aniq nazariyaga ega bo'lgan va unga sidqidildan ishongan kishi kundalik hayotning o'zgarishlari va kutmagan hodisalariga uzoqni ko'ra bilmaydigan, hamda kundan

¹³ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: О'zbekiston, 2024. –Б.35.

¹⁴ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. -Toshkent.: O'zbekiston, 2020.-B. 354.

kunga paydo bo'ladigan tabiiy impulslarga ko'r-ko'rona ergashadigan kishilarga nisbatan ko'proq darajada tayyor turadi"¹⁵ degan fikri jamiyat barqarorligi undagi bilimlarni nazariya va amaliyot uyg'unligiga bog'liq ekanligini ilmiy asoslashga harakat qiladi.

Shu tariqa "uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasida mujassam bo'ldi"¹⁶. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosidagi erkinlik, barqarorlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ezgu g'oyalari jamiyatimizning yangicha qiyofasini barpo etish yo'lida yuksak maqsadlarga intilayotgan xalqimizni Uchinchi Renessans deb nomlangan g'oya atrofida jipslashtirmoqda. Sharq va G'arb allomalari falsafiy merosida inson tafakkuridagi o'zgarishlar jamiyatni taraqqiyotiga, farovonligiga, yangilanish va modernizatsiyalashuviga olib kelishi, buning uchun inson doimo jamiyat manfaati yo'lida harakat qilishi lozimligini, "abadiy harakat bu-abadiy o'zgarishdir" degan abadiyat qonuni asosida faoliyat yuritishi ta'kidlanadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki azal-azaldan insonlar dunyoni yangilash, yaxshilash, baxt-saodat, farovonlik, barqarorlikka erishish g'oyasi atrofida birlashishiga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi O'zbekistonni barpo qilish degan ulug' maqsad "Jamiyat-islohotlar tashabbuskori" degan tamoyil asosida amalga oshirilmoqda. Bunda, eng avvalo, jamiyatda demokratik prinsiplar hukmron bo'lishi lozim. "Demokratiya - faqat xalq hokimiyati bo'lib qolmay, u ayni paytda har bir inson, har bir jamoa va butun xalqning o'z mamlakati kelajagi, o'z taqdiri oldidagi mas'uliyati hamdir"¹⁷. Chunki demokratiya inson erkinliklarining muhim jihati hisoblanadi. Mohiyatiga ko'ra, bu yaxshi, chunki u insonning erkin tanlovini yengilashtiradi va siyosiy hayotda faol ishtiroki uchun imkoniyat tug'diradi. Demokratik jamiyatda fikr, so'z vijdon, din

¹⁵ Мудрые и пронцательные цитаты сэра Уинстона Черчилля <https://fit4brain.com/7195>

¹⁶ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.19.

¹⁷ Nazarov Q. Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiю О'quv qo'llanma, -Toshkent.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019. –Б. 29.

erkinligi ta'minlanadi, fikrlar va qarashlar xilma xilligi shakllanadi, inson huquq va imkoniyatlarini kafolatlash jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylanadi. Shunday qilib, "demokratiya insonning erkin va mustaqil yashash qobiliyatining markaziy qismi hisoblanadi"¹⁸. Shu bois, demokratik islohotlar jamiyat taraqqiyoti uchun eng to'g'ri va yakka-yu yagona yo'ldir. Barqaror taraqqiyotga erishish uchun, eng avvalo, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish joiz. Chunki "Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir"¹⁹. Shu sababli Yangi O'zbekistonimiz o'z taraqqiyotini yangi sifat bosqichiga olib chiqishda, avvalo, jamiyat azolari zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishi, ma'rifat va yuksak madaniyatga ega bo'lishi bugungi kunning hayotiy ehtiyojiga aylanmog'i kerak.

Yangi O'zbekiston - mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovlili islohotlarning yangi bosqichi bo'lib, u quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

Siyosiy-huquqiy sohadagi islohotlar: inson, uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonun ustuvorligiga asoslangan demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlatni barpo etish, jamiyat va davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, hokimyat bo'linish prinsiplariga amal qilish, ular o'rtasida o'zaro muvozanat yaratish, ma'muriy-hududiy boshqaruv tarmoqlarini takomillashtirish, sudning mustaqilligini mustahkamlash, huquq tizimini liberallashtirish, ochiq, shaffof hamda adolatli jamiyat qurishga qaratilgan.

Iqtisodiy sohadagi islohotlar: fuqarolarni iqtisodiy huquqlarini adolatli qonunlar bilan himoya qilish, iqtisodiy sektorda davlat ulushini kamaytirish, xususiylashtirish, soliq siyosati, soliqlardan turli imtiyozlar asosida yengillik berish, mulk daxlsizligi, kichik va o'rta biznes vakillari kengaytirish, tadbirkorlarga maqsadli imtiyozlar yaratish, ularning faoliyatiga asossiz aralashishga yo'l qo'ymaslik, jamiyatda yangi ish o'rinlarini yaratish, cheklangan resurslardan samarali foydalanish, eng muhimi bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli iqtisodiyotni barpo etishdir.

¹⁸ А.Давид Крокер "Сен и совещательная демократия". (Литл2003:229). 2006.

¹⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. -Б.24.

Ijtimoiy-madaniy sohadagi islohotlar: millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir aholi qatlamiga o'z salohiyati va imkoniyatlarini to'laqonli ravishda ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish, ilm, fan, madaniyat hamda sport kabi sohalarni rivojlantirish uchun islohotlar o'tkazish, zamonaviy tibbiyot tizimini takomillashtirish, atrof-muhit va ekologiyani asrab-avaylash, xalqaro gumanitar hamkorlik tarmoqlarini kengaytirish, eng muhimi ijtimoiy sohani rivojlantirish kabi ishlarni amalga oshirish.

Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar: ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilish, zamonaviy kasn-hunar turlarini mukammal biladigan shaxslarni tarbiyalash, milliy, ma'naviy meroslarni asrab-avaylash, diniy bag'rikenglik, insonparvarlik hamda adolat prinsiplarini hayotga tadbiq etishni, ommaviy axborot vositalarining yangi tizimini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi - O'zbekistonni rivojlangan, demokratik, huquqiy va investitsiyaviy muhit yaratilgan jozibali mamlakat darajasiga olib chiqishdan iborat.

Yangi O'zbekiston tushunchasi, avvalo, xalqimiz milliy taraqqiyotida yangi bosqich boshlangani, mamlakatimiz jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallab borayotgani va shu yo'lda ko'plab yangi imkoniyatlar yuzaga kelayotganligini ifodalaydi. Yangi O'zbekiston tushunchasi asosida o'z ifodasini topgan amaliy mezonlar quyidagilardan iborat:

- Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohot va yangilanishlar, dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilganligi barqaror rivojlanish sari dadil odimlayotganligiga ishoradir;

- mamlakatimizda inson qadri, huquq va imkoniyatlari davlat tomonidan himoya qilinayotganligi, aholi turmush tarzini yuksaltirishga doir amaliy chora-tadbirlarni xalqimizning barcha qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani, islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi ortib borayotganligi, eng muhimi kelajakka ishonchi ortayotganligi;

- bu tarixiy jarayonda barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish vazifasini butun jamiyatimiz tomonidan chuqur anglayanayotgani;

- ushbu ezgu maqsad yo'lida barcha fuqorolar hamda davlat va jamiyat boshqaruvi vakillari hamda fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqorolik jamiyati institutlarining imkoniyatlari safarbar etilayotganligi;

- jamiyatimizda "inson huquq va manfaatlari eng oliy qadriyat" tamoyili asosida insonning sha'ni, qadr-qimmati va manfaatlarini ta'minlashga qaratilayotgani;

- mamlakatimizda barcha fuqorolarni iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy huquqlari kafolatlanganligi "xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi" tamoyili asosida jamiyat barqaror taraqqiyoti poydevoriga aylanayotgani;

- Yangi O'zbekistonni inson farovonligi ta'minlangan, turmush sharoiti yuksalgan davlatga aylantirish, bu borada dunyodagi iqtisodiyoti barqaror rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiritishni maqsad qilinganligi;

- "...yangi jamiyatning navqiron avlodi, fuqarolik ma'suliyati va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan barkamol yoshlar hayotga kirib kelayotgani va ularga munosib hayot sharoitlari, keng imkoniyatlar yaratilayotgani"²⁰ jamiyatimizning yangicha qiyofasi aynan shu keng qamrovli islohotlar jarayonida yuzaga kelmoqda va uning zamonaviy, demokratik imiji asta-sekin shakllanib bormoqda.

Jamiyat barqaror taraqqiy etishi uchun inson huquq va erkinliklari kafolatlangan bo'lishi kerak. Buni hind iqtisodchisi Amarta Kumar Sen tomonidan 2009 –yilda yozilgan "Adolat g'oyasi" nomli kitobida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan. Jumladan, farovonlik iqtisodiyoti va jamoat tanlovi nazariyasi bo'yicha oldingi ishlariga, shuningdek, falsafiy fikrlariga asoslanib Jon Xarsanining zamonaviy adolat nazariyalariga muqobil bo'lishni maqsad qilgan va o'zining adolat nazariyasini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Bu nazariyani mustaqillik tengligi yoki avtonomiya tengligi deb ham ataladi. Jon Xarsan nazariyasiga ko'ra, adolatli jamiyat - bu odamlarga o'zlarining turli shaxsiy istaklari va intilishlarini rivojlantirish uchun teng imkoniyatlar berilgan jamiyatdir. Har bir shaxs o'z talablariga ega bo'lgan avtonom, mustaqil subyekt bo'lib qolishi mumkin, lekin shu bilan birga, har bir

²⁰ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.29.

ehtiyojni amalga oshirish uchun bir xil huquqlarga ega bo'lishi kerak. Amarta Kumar Sen ham jamiyat barqarorligi inson taraqqiyoti konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ilmiy jihatdan asoslagan.

“Inson taraqqiyoti konsepsiyasi hozirgi kunda eng mukammal rivojlanish modeli hisoblanadi. U o'z ichiga taraqqiyotning barcha masalalarini, xususan iqtisodiy o'sish, ijtimoiy investitsiya, insonlarning imkoniyatlarini kengaytirish, asosiy ehtiyojlarni qondirish va ijtimoiy himoya tizimini tashkillashtirish, siyosiy va ma'naviy erkinlik hamda insonlar hayotining boshqa barcha taraflarini qamrab oladi. U tor texnokrat yoki haddan ziyod falsafiy ham emas. Bu– hayotning aks etishidir”²¹. Ushbu konsepsiya BMTning 2000-yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan “BMTning Ming yillik deklarasiyasi”da barqaror rivojlanishga oid vazifalar kun tartibiga qo'yiladi. Xususan, unda inson huquqlari, tinchlik, xavfsizlik, taraqqiyot va ekologiya sohasidagi muammolarni belgilab berdi va ularni global kun tartibiga kiritdi. Mamlakatimizda ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlashga doir islohotlar ushbu konsepsiyani amaldagi ijrosiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. “BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida milliy maqsadlarni ro'yobga chiqarish, inson taraqqiyoti bo'yicha yuqori indeksga ega bo'lgan (intellektual salohiyati, savodxonligi, insonning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi) davlatlar darajasiga erishishga, ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni keng joriy etishni ta'minlashga qaratilgan chora –tadbirlar qabul qilinmoqda”²².

Ming yillik deklaratsiyada global inson taraqqiyotiga va inson xavfsizligini ta'minlashga erishish uchun sa'y-harakatlarning umumiy rejasi keltirilgan bo'lsa, Ming yillik rivojlanish maqsadlari(MRM) esa inson taraqqiyotining muhim yo'nalishlari bo'yicha butun jahonda erishilgan rivojlanish muvaffaqiyatlarini o'lchash va monitoringi uchun kompleks miqdoriy mezonlarni taklif etadi. Ushbu maqsadlar, vazifalar va mezonli ko'rsatkichlar inson taraqqiyoti sohasidagi tendensiyalarni kuzatish va yutuqni baholash imkonini beradi.

²¹ Махбул уль Хак//Доклад о развитии человека2010. Резюме. 20-е, юбилейное издание. ПРООН.С. 3.

²² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегиси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.69.

Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlar milliy darajada milliy rivojlanish maqsadlariga moslashtirilib hisobot tarzida e'lon qilinadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad "inson manfaatlarini mustahkamlash, jamiyat va davlat boshqaruv organlarini hamda fuqorolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokini ta'minlash hisoblanadi"²³. Bugungi kunda barqarorlik, barqaror taraqqiyo kabi tushunchalar siyosiy lug'atlarda paydo bo'ldi. Ushbu tushunchalarning dunyoda 140 ga yaqin turlari turli sohalar bo'yicha tasniflanadi.

Barqaror rivojlanish tushunchasi ilk bor 1987-yilda BMTning Brundtland hisobotida ta'rif beriladi. "Barqaror rivojlanish— kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ziyon yetkazmagan holda, hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan insoniyat taraqqiyotining samarali yo'nalishidir"²⁴, falsafa qomusiy lug'atda barqarorlik :

“- jamiyatda tinchlik va totuvlikni saqlash uchun zarur shart-sharoitlarning mavjudligi;

- ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiyalar o'rtasidagi hamjihatlikning ta'minlanishi;

- davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy kelishuvning doimiy davom etishi"²⁵ ni ifodalaydi.

Barqaror rivojlanish deganda ijtimoiy masalalarni o'zaro muvozanatni saqlagan holda hal etish yo'li tushuniladi.

Ijtimoiy tizimni barqaror qoidalarini amerikalik sotsiolog T.Porsons ishlab chiqdi va uni ilmiy – nazariy jihatdan asosladi. T.Porsonsning fikricha "... har qanday barqaror jamiyatning ijtimoiy tuzilishini tashkil etadigan elementlar faoliyati o'zaro uyg'un bo'lishi shart. Ana shu uyg'unlik doimiy barqarorlik omilidir. Bunda davlatning vazifasi jamiyatning eng kichik bo'g'inlari, jamoalar, tashkilotlar, idoralar orasidagi mutonosiblikni saqlash va mustahkamlashdan iborat. Agar davlat

²³ Ўзбекистонда Минг йиллик ривожланиш мақсадлари бўйича маъруза биринчи марта 2006 йилда чоп этилган. www.undp.uz

²⁴ United Nations General Assembly (1987) .[*Report of the World Commission on Environment and Development: Our Common Future*](#)

²⁵ Falsafa qomusiy lug'at.- T.: Sharq nashriyoti, 2004. –Б. 45.

buni uddasidan chiqsa, u jamiyatni barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan boshqaruvchi(regulyator) vazifasini ado etadi. Bu esa, o'z avbatida, davlatning muayyan islohotlarni amalga oshirish uchun imkon yaratadi"²⁶. Shu nuqtai nazardan barqarorlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Barqarorlik — jamiyatni barcha sohalarida muvozanat va izchillikni ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir. Uning asosiy xususiyatlari muvozanat va izchillikni saqlanishi, moslashuvchanlik, resurslardan oqilona foydalanish kabilardir. Agar ushbu xususiyatlarga jamiyatda e'tibor susaysa beqarorlik vujudga keladi. Beqarorlik esa, jamiyatda muvozanatning buzilishi, tartibsizlikni avj olishiga zamin yaratadi. Shuningdek, beqarorlik ko'pincha inqiroz, tanazzul yoki o'zgarishlar davrining boshlanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Barqarorlik va beqarorlikning farqli jihatlari

Barqarorlik	Beqarorlik
Muvozanat va izchillikning mavjudligi	Muvozanat buzilgan, tartibsizlikning kuchayishi
Kelajakka ishonch, tadrijiy taraqqiyotga erishish tuyg'usi	Keskin o'zgarishlar, inqirozlar va kelajakka ishonchsizlik kayfiyatini ustunligi
Jamiyatning barcha sohalariga e'tibor	Jamiyatning tor doiradagi sohalariga e'tiborning ustunligi
Oqilona va samarali boshqaruv	Ma'muriy boshqaruvning kuchayishi
Odamlarda altruizm tuyg'usining ustunligi, adaptatsiya jarayonining jadallashuvi	Nigilizm, islohotlarga nisbatan adaptatsiya jarayonining qiyinlashuvi, keskin reaksiyalar
Tizimli rivojlanish	Turg'unlik
Tinchlik	Tahlikali holat

²⁶ Falsafa qomusiy lug'at.- T.: Sharq nashriyoti, 2004. —B. 45

“Xitoy donishmandi Konfutsiy “Farovonlikka erishish – orzu, islohotlar – unga yetish vositasi, barqarorlik bu – maqsadga erishishning asosiy shart-sharoitidir”, deya bejiz ta’kidlamagan. G‘arb olimlari R.Darendrof va A.Kozer aslida barqarorlik hech qachon mavjud bo‘lmaydi, u beqarorlik arafasidan keyingi holat, jamiyatning yangi beqarorlik oldidan tin olish davri, degan fikrni ilgari surgan. Bundan farqli o‘laroq, T.Parsons “Ijtimoiy tizim barqarorligi qoidalari”ni ishlab chiqishga harakat qilgan. Uning fikricha, har qanday jamiyatning barqarorligi uning ijtimoiy tuzilishini tashkil etadigan elementlar faoliyatining o‘zaro uyg‘un bo‘lishi bilan belgilanadi. Ana shu uyg‘unlik doimiy barqarorlik omilidir. Bunda davlatning vazifasi jamiyatning eng kichik bo‘g‘inlari, jamoalar, tashkilotlar, idoralar orasidagi mutanosiblikni saqlash va mustahkamlashdan iborat”²⁷. Xulosa qilib aytganda, barqarorlik — har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Lekin, buning uchun insonlarning huquqiy ong va bilim darajasi yuqori bo‘lishi, cheklangan resurslardan samarali foydalanishi, tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyatiga ega bo‘lishi va eng asosiysi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashining asosiy harakatlantiruvchi kuchi inson ekanligini anglashi lozimdir. Shundagina jamiyat barqaror taraqqiyotga erishadi, inson turmush tarzi farovonlashadi. Beqarorlik esa, aksincha, jamiyat boshqaruv tizimida muvozanatning buzilishiga, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy keskinliklarning kuchayishiga, rivojlanishda inqirozli holatlarning yuzaga chiqishiga olib keladi.

Har qanday davlat yoki jamiyat taraqqiyoti uchun barqaror rivojlanishga erishish va uni tizimli ravishda zamonaviy innovatsiyalarni tadbiq etgan holda mustahkamlab borish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sabab, barqarorlikni ta’minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish, beqarorlikning oldini olish zamonaviy boshqaruvning muhim vazifasidir.

*Jamiyat barqaror rivojlanishining
asosiy jihatlari²⁸*

Ijtimoiy barqarorlik	aholining huquq va imkoniyatlarini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, ishsizlikdan himoyalash,
----------------------	--

²⁷ <https://oyina.uz/uz/teahouse/1360?>

²⁸ Muallif ishlanmasi

	adolatli mehnat sharoitlari va kafolatlangan ish o‘rinlari, sifatli ta’lim va malakali tibbiy yordam olish imkoniyatlarini ta’minlanganligi
Iqtisodiy barqarorlik	iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatni barpo etish, soliq siyosati, bandlik, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlik va unga yaratilgan ijobiy muhitni qo‘llab-quvvatlash, aholining daromadlarini oshirish, moliya va kredit tizimini erkinlashtirish
Siyosiy barqarorlik	suvirenitetga ega bo‘lish, fuqorolarni saylash, saylanish, ovoz berish, referendumlarda ishtirok etish, hokimyat bo‘linish prinsiplariga amal qilish, xalqaro hamkorlik va xavfsizlikni ta’minlash
Ekologik barqarorlik	atrof-muhitni asrab-avaylash, cheklangan resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhit sifatini barqaror holatda saqlash, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hamda iqlim o‘zgarishlarini olidini olish

Jamiyat barqaror rivojlanishi ushbu barcha jihatlarining muvozanatlashgan holda taraqqiy etishi natijasida ta’minlanadi. Bu kompleks jarayon bo‘lib, uning natijasi barcha fuqarolar va kelajak avlodlarning farovonligini ta’minlashdir. Umumiy tarzda “barqarorlik” deganda jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ekologik muhit muvozanatini saqlash tushuniladi. Ushbu muhit muvozanatini saqlash davlat siyosiy boshqaruv tizimiga bog‘liq. Xususan, davlatni ichki va tashqi siyosatidagi faoliyati hamda barqarorlikni ta’minlashga maqsadli investetsiyalarni jalb qilishga asosiy e’tibor qaratish lozim. Bundan tashqari aholida huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun avvalo jamiyat a’zolarini XXI ko‘nikmalari(kretik, kreativ, komunikativ, kollaboratsiya) bilan qurollantirishimiz lozim. Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning “O‘zgalarni o‘zgartirmoqchi bo‘lgan inson, avvalo, o‘zini

o'zgartirishi lozim"²⁹. Buning uchun insonda aniq maqsad, mustahkam iroda va muntazam izlanish kerak degan axloqiy falsafasi bu borada barchamiz uchun asosiy mezon bo'lishi lozimligi haqidagi fikrda har birimizdan qat'iyatli, omilkor, yangicha fikr yuritish, zamonaviy innovatsiyalarni o'zlashtirish kompetentligiga ega bo'lishni talab etadi.

Barqarorlik darajasi turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin. U siyosiy tizim, iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy-demografik vaziyat va boshqa omillarga bog'liq. Shuning uchun barqarorlikni har bir kontekstda alohida tahlil qilish lozim.

Kolumbiya universiteti professori Jeffri Sakks Barqaror rivojlanishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha tadqiqot olib borgan. Ushbu tadqiqotlari bo'yicha "Barqaror rivojlanish yechimlari" nomli kitobida batafsil ma'lumot beradi. Jumladan, Jeffri Sakks barqaror rivojlanish uchun davlatning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik sohalaridagi islohotlar jamiyat taraqqiyotida asosiy omil vazifasini bajarishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Jeffri Saks barcha mamlakatlarda davlat va xususiy investitsiyalarning to'rtta ustuvor yo'nalishini ta'kidladi:

- inson kapitali;
- infratuzilma;
- intellektual mulk;
- biznes muhiti.

Jeffri Saksning ilmiy g'oyasida, davlat muassasalari kundalik hayotda uchraydigan mavjud ishlarni jahon iqtisodiyotining tendensiyalari bilan mos bo'lish uchun kelajak ish o'rinlarini yaratishlari kerakligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan barqaror rivojlanish – yaxshi ishlaydigan aralash iqtisodiyotning natijasi bo'lib, unda davlat, xususiy va notijorat tashkilotlar yaqin hamkorlik asosida birgalikda ish olib boradilar.

Jamiyat rivojida barqarorlik va o'zgaruvchanlik tushunchalari doimo yonma-yon yuradi. Bu tushunchalar — dialektik falsafaning juft tushunchalari hisoblandi.

²⁹ Muhammadjanova L., Abdulla Sher, Shadimetova G. Axloq falsafasi darslik, T.: 2023, - B. 27.

Falsafiy adabiyotlarda barqarorlik tushunchasi narsa va hodisalarga xos muayyanlikni ifodalaydi, o'zgaruvchanlik tushunchasi esa ma'lum bir holatdan boshqa bir holatga o'tish jarayonini bildiradi.

O'zgaruvchanlik keng ma'nodagi harakat tushunchasini ifodalaydi, shu ma'noda u mutlaq xarakterga ega bo'ladi. Tayin narsalarga oid xossa sifatida esa u nisbiydir, chunki narsalarning o'zgarishi biron-bir muayyanlikka nisbatangina sodir bo'ladi. O'zgaruvchanlikni barqarorlikdan ajratib mutlaqlashtirish skeptisizm va relyativizmga olib kelsa, aksincha, barqarorlikni mutlaqqashtirish aqidaparastlikka olib keladi. Dialektika barqarorlik va o'zgaruvchanlikni o'zaro uzviy birlikda, mavjud dialektik qarama-qarshiliklar tarzida olib qaraydi. Bu borada ingliz siyosatchisi Uinston Cherchil "Yaxshilash-o'zgarishni, mukammal bo'lish-tez-tez o'zgarishni anglatadi"³⁰ degan fikri o'zgarish, yangilanish har qanday mamlakat taraqqiyoti uchun muhim muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Barqarorlik va taraqqiyot tushunchalarining asosiy farqlari³¹

Maqsadga ko'ra	Barqarorlik - mavjud holatni saqlab qolish, o'zgarishlarni boshqarish.
	Taraqqiyot - yangi, yaxshiroq holatga o'tish, o'sish, rivojlanish.
Vaqt omili munosabatiga ko'ra	Barqarorlik - hozirgi holatni uzoq muddatli saqlash.
	Taraqqiyot - uzluksiz, bosqichma-bosqich yaxshilanib borish.
O'zgarishlar yondashuviga ko'ra	Barqarorlik - o'zgarishlarni boshqarish, ularni oldini olish.
	Taraqqiyot - o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash, ulardan foydalanish.
Mezonlarga ko'ra	Barqarorlik - muvozanat, barqarorlik, mustahkamlik, doimiylik.
	Taraqqiyot - yangilanish, rivojlanish, o'sish, yaxshilanish.

Amalda ular bir-birini taqozo etadi. Barqarorlik taraqqiyotning asosi, doimiy, muvozanatlashgan rivojlanish uchun zamin yaratadi. Taraqqiyot esa barqarorlikni

³⁰Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: О'zbekiston, 2024. –Б.34.

³¹ Muallif ishlanmasi

yangi, yaxshiroq darajaga olib chiqadi. Ularning uyg'unligi jamiyat va davlatning barqaror, ilg'or rivojlanishini ta'minlaydi.

Barqarorlik va taraqqiyotning o'zgarishlarga yondashuvlari quyidagicha:

Barqarorlik yondashuvi:

- o'zgarishlarni boshqarish, nazorat qilish, ularning salbiy oqibatlarini oldini olish;
- mavjud tizim va jarayonlarni saqlab qolish, ularni bir xillikda ushlab turish;
- o'zgarishlarni sekinlashtirish yoki oldini olish orqali barqarorlikni ta'minlash;
- yangilanishlar va innovatsiyalarni cheklash, asosiy holatlarni saqlash.

Taraqqiyot yondashuvi:

- o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash, ulardan foydalanish;
- yangi g'oyalar, yechimlar va texnologiyalarni qo'llab, rivojlanishni ta'minlash;
- doimiy yangilanish, boyish va o'sish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- muayyan sohalaridagi innovatsiyalar orqali boshqa sohalar rivojlanishini stimullash. Umumiy holda, barqarorlik yondashuvi mavjud holat va tizimlarni saqlab qolishga, taraqqiyot yondashuvi esa yangi avlod tizim va jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Barqarorlik va taraqqiyot o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

birinchidan, iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi omillar muhim ahamiyatga ega. Xususan, jamiyatda adolatli va kafolatlangan ish o'rinlarini yaratish, daromadlarni adolatli taqsimlash, kambag'allikni oldini olish uchun kuchli ijtimoiy siyosat yuritish tizimini takomillashtirish, ta'lim, tibbiyot sohalariga innovatsiyon texnologiyalarini joriy qilishni rag'batlantirish.

ikkinchidan, davlat qonunchiligi shaffofligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni halqchilligi, raqobat muhitini mavjudligi, fikrlar xilma xilligi(plyuralizm), shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy soha faoliyati sog'lom ishlashi.

uchinchidan, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhit va ekologik muvozanatni saqlash, maishiy chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, zararlantiruvchi omillarni bartaraf qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, yashil iqtisodiyot, ekologik innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish.

to'rtinchidan, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy, ilmiy-texnologiya, ekologiya sohaları bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini samarali yo'lga qo'yish, xalqaro tashkilotlar bilan mintaqaviy va global muammolarni oldini olish uchun tizimli integratsion faoliyatni yo'lga qo'yish.

Ushbu omillar barqarorlik va taraqqiyot o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaganda, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanish yo'nalishi kafolatlanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz barqarorlikka erishish va uni mustahkamlashga oid islohotlarga katta e'tibor qaratmoqda. Zero, barqarorlikni ta'minlash uchun avvalo islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jamiyat taraqqiyotining asosiy shartidir.

Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashda, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda, fuqorolik jamiyat qadriyatlarini mustahkamlashda "hech kimni unutmaslik va ortda qoldirmaslik tamoyili" katta rol o'ynaydi. Bu tamoyilni amalda qo'llash zamonaviy jamiyatning barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotini muhim elementlaridan biri inson huquq va imkoniyatlari kafolatiga bog'liqdir. Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash bugungi kunda mamlakatimizda davlat siyosati darajasi sifatida qaralmoqda. Bu borada bir qancha qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, yangilangan Konstitutsiyamizning 21-moddasida "Har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning rozilgisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas. Inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa

shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin"³², degan qoida inson huquqlari oliy qadriyat ekanligiga ishoradir. Eng muhimi, mamlakatimizda istiqomad qilayotgan har bir fuqaroning millati, dini, tili hamda ijtimoiy holatidan qat'i nazar ularni tinch, xotirjam yashashi davlatning asosiy maqsadlaridan biriga aylanmoqda. Bu esa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar 2030-yilgacha mo'ljallangan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang tarzda olib borilayotganligini amaliy tasdig'idir. Shuningdek, "insonning qadr-qimmat, uning huquqlari, ayniqsa, rivojlanish huquqini hurmat qilish, imkoniyatlarini ruyobga chiqarish g'oyasi-barcha - BPMLarni o'zaro bog'lab turuvchi asosiy halqa hisoblanib, ularni uyg'unligini ta'minlashga, bir-birini to'ldirishi, mustahkamlashiga xizmat qiladi"³³ degan maqsadlarga qonun ustovorligi ta'minlangan, erkin fuqarolik jamiyati shakllangan, davlat hokimiyat organlarida samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yilganligi, shaffoflik va ochiqlik tamoyillarini amaliyotga tadbqiq etish orqali erishish mumkin. Ushbu tamoyil jamiyatda barcha insonlarning huquq va imkoniyatlari kafolatini ta'minlashni nazarda tutadi, har bir shaxsning individual qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarishni, ularni ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratishni, jamiyat manfaatlarini himoya qilishni, e'tiqodi va xususiyatlarini hisobga olishni, ularni jamoat hayotiga jalb etishni, jamiyatdagi ziddiyat va konfliktlarning oldini olishni, o'zaro kelishuvga erishish, fuqarolarning salohiyati va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish hamda jamiyatda erkinlik, tenglik, demokratiya va insonparvarlik kabi qadriyatlarni mustahkamlash uchun zamin yaratadi.

"Inson huquqlari – barcha odamlarga taaluqli bo'lgan, ularning erkin va munosib turmush kechirishga bo'lgan huquqlardir. Bu huquqlar barcha kishilarga xos, ajralmas hamda bo'linmas bo'lib, individual va ijtimoiy shartnomalar

³² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: O'zbekiston, 2023-yil 30-aprel.

³³ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: O'zbekiston, 2024. –Б.11.

tuzishdagi jarayondir”³⁴. BMT Bosh Assambleyasining 1986-yil 4 – dekabrda qabul qilingan 41/128 rezolyusiyasi bilan qabul qilingan Rivojlanish huquqi deklaratsiyasida “Rivojlanish — bu iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayon bo‘lib, u jamiyat va har bir shaxsning farovonligini doimiy ravishda yaxshilashga, shu bilan birga, ularning rivojlanish jarayonlariga faol, erkin va mazmunli ishtirok etishi hamda undan kelib chiqadigan foyda va imkoniyatlarning adolatli taqsimlanishiga asoslanadi”³⁵ deb ta’kidlanadi. Barqaror taraqqiyot bo‘yicha oliy darajadagi Butunjahon uchrashuvida (Yoxannesburg, Janubiy Afrika, 2002-yil 26 avgustdan 4-sentyabrgacha) Barqaror taraqqiyot bo‘yicha Yoxannesburg deklaratsiyasi qabul qilindi, u o‘zining barcha inson qadr-qimmatiga muhtojligini anglab yetuvchi insonparvar, adolatli va g‘amxo‘r global jamiyat qurishga sodiqligini tasdiqladi.

1966-yilda qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda “inson huquqlarining asosiysi ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy huquqlarini ta’minlashda huquqiy poydevor vazifasini bajaradi”³⁶.

O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish borasida qonjunchilik bazasi takomillashtirishmoqda. Natijada, adolatli munosin ish o‘rinlari yaratilmoqda, odamlarning yashash sharoiti yuksalmoqda. Insonlarni muammolarini joyida hal qilish, kambag‘allikni qisqartirish, korrupsiyani oldini olish umummilliy harakatga aylanmoqda. Bundan tashqari “inson, jamiyat, davlat” tamoyili asosida sayyor qabullarni mamlakatimizning barcha hududlarida o‘tkazilishi, inson omilidan holi bo‘lgan tizimga ovtishi inson huquqlarini himoya qilish davlat siyosati darajasi sifatida qaralayotganligiga ishoradir. Umuman olganda, barqaror rivojlanish falsafasi jamiyat barqaror taraqqiyotida inson ehtiyojlarini hisobga olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, saqlash hamda kelajak avlodlar huquqlariga daxl qilmasdan hal qilishni nazarda tutadigan barqaror rivojlanish modelini yaratishga qaratilgan.

³⁴ Доклад о развитии человека 2010 – Реальное богатство народов: пути к развитию человека. – ПРООН. 2010. – С. 17.

³⁵ BMT Bosh Assambleyasi rezolyusiyasi 41/128, 1986-yil 4-dekabr – “Declaration on the Right to Development” (Rivojlanish huquqi deklaratsiyasi). https://en.wikipedia.org/wiki/Right_to_development?

³⁶ Monica Pinto. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights New York, 16 December 1966. <https://legal.un.org/avl/ha/icescr/icescr.html?>

1.2. Barqaror rivojlanishning umuminsoniy tamoyillari

Globallashib borayotgan dunyoda, tinchlikka, suverenitetga va barqaror taraqqiyotga qarshi turli mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi sharoitda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirish maqsadida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, ijtimoiy sohalar: sifatli ta’lim, malakali tibbiy xizmat, sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirishga doir targ‘ibot tadbirlarini hayotiylikini oshirish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini yaxshilash hamda ularni o‘quv dasturlarini yangilash, zamonaviy loyihalar uskunalari bilan ta’minlash xalq farovonligini muhim qismidir. Shu bilan birga, aholini kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish, agrar xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, eksport qilish, agrosanoat klasterini kengaytirish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, chorvachilik va baliqchilik sohalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish kabi chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Zero, islohotlarning asosiy maqsadi insonlar farovonligini oshirish va ularga munosib hayot tarzini yaratib berishdan iboratdir.

Qadimgi yunon olimi Aristotel provard maqsad odamlarning “ajoyib turmush tarzi”³⁷ni ta’minlashdan iborat deb ta’kidlangan edi. Barqarorlik atamasi kelajak avlodlarning ehtiyojlariga ziyor etkazmasdan, bugungi kunda odamlarning ehtiyojlarini qondirishga nisbatan ishlatiladigan ta’rif dunyo miqyosida ko‘p ishlatilmoqda.

Jamiyat taraqqiy etishi va barqarorlikka erishish uchun undagi insonlarda bilim, malaka, ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan birga jamoaviylik va daxldorlik tuyg‘usi rivojlanishi lozim. “Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga ehtiyoj sezadi. U bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga

³⁷ Человеческое развитие: новое измерение социально-экономического прогресса. -М.: 2000. -С.23

ehtiyoj tugʻiladi va shu sababli yashash uchun zarur boʻlgan, insonlarni bir-birlariga bogʻlovchi va oʻzaro yordamlashuvchi koʻp kishilarning birlashuvi orqaligina oʻz tabiati boʻyicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkinligini hamda bunday jamoa aʼzolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur boʻlgan narsalarni yetkazib beradi”³⁸. Bu esa, insoniyatning farovon yashashi uchun zamin yaratadi. Farovonlik faqat moddiy neʼmatlar va xizmatlarga ega boʻlib qolmasdan, ularni yoʻqotish xavfidan huquqiy jihatdan himoyalangan boʻlishi lozim. Jahonda inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 25-moddasida “Har bir inson oʻzining hamda oilasining salomatligi va farovonligini taʼminlash uchun zarur boʻlgan turmush darajasiga ega boʻlish, jumladan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega boʻlishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bogʻliq boʻlmagan sharoitlarga koʻra tirikchilik uchun mablagʻ boʻlmay qolgan boshqa hollarda taʼminlanish huquqiga ega”³⁹ degan qoida mustahkamlangan.

Farovonlik belgilari⁴⁰

FAROVONLIK	Salomatlik, shu jumladan, demografik sharoitlar
	Taʼlim, shu jumladan, savodxonlik
	Oziq-ovqat, kiyim-kechak
	Isteʼmol va jamgʻarish fondlari
	Mehnat sharoitlari, ish bilan bandlik, mehnatning tashkil etilishi
	Ijtimoiy taʼminot
	Inson erkinliklari

³⁸ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Тошкент., 1993. –Б. 183-184.

³⁹ Inson huquqlari boʻyicha xalqaro shartnomalar.-T.: Adolat, 2004.-B.35.

⁴⁰ Muallif ishlanmasi

Barqarorlik masalasi 2015-yil sentyabr oyida BMTning Barqaror rivojlanish sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiya qabul qilindi va unga muvofiq, O'zbekistonda BMTning Global kun tartibi doirasida Barqaror rivojlanish maqsadlarini 2030-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirish maqsadida, 2018-yil 20-oktyabrda Vazirlar Mahkamasi 2030-yilgacha mo'ljallangan 16 ta milliy Barqaror rivojlanish maqsadlari va ularga tegishli 125 ta vazifalarni tasdiqladi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari — hozirgi kunda barcha davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan harakatga chorlovchi o'ziga xos da'vatdir. Ular butun jahon ahlini farovonligi va himoyasini yaxshilashga qaratilgan. Dunyo davlatlari qashshoqlikni yo'qotish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, sifatli ta'lim va malakali tibbiyot, ijtimoiy himoya va bandlikni ta'minlash, shuningdek, iqlim o'zgarishining oldini olish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida tezkor va zarur choralarni ko'rish muhimligini tan oladi.

O'zbekiston Barqaror rivojlanish bo'yicha quyidagi maqsadlarga erishmoqda:

1-maqсад: Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish. O'zbekistonda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish maqsadida yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, ishsizlikni kamaytirish, mikrokreditlash tizimini rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, infratuzilma va qishloq joylardagi yashash sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida pul va mossiy yordam berish mexanizmlarini takomillashtirish, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni muntazam oshirib borishga doir davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad "iqtisodiy strategiyamizning muhim bandi-2030-yilga qadar munosib haq to'lanadigan 10 millionta yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni bartaraf etish, ishsizlik darajasini 2030-yilda 5,2 foizga, inflyatsiyani esa 15,2 foizdan 4,3 foizga pasaytirishga"⁴¹erishishdir. Shuningdek, mamlakatimiz 2030-yilgacha quyidagi islohotlarga alohida e'tibor beradi:

⁴¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.145.

-BMTning barqaror rivojlanish maqsad va vazifalarini bajarish doirasida kambag'allikni 2030-yilgacha ikki baravar kamaytirish;

- 2030-yilgacha aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish natijasida 500 ming ish o'rinlarini yaratish;

- uy-joyga ehtiyojmand oilalarni imtiyozli ravishda kvartiralar bilan ta'minlash, ularning moddiy sharoitini yaxshilash uchun keng imkoniyatlar yaratib berish;

-kam ta'minlangan oilalarga dehqonchilik qilish uchun yer uchastka maydonlari ajratib berish va tomorqa xo'jaligidan samarali foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

-2030-yilgacha mavjud ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni tizimli ravishda rag'bat va imkoniyatlar bilan ta'minlash. Shu nuqtai nazardan "Har bir oila – tadbirkor", "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida aholini tadbirkorlikka jalb etish, qishloq va mahalla infratuzilmasini rivojlantirish, kam ta'minlangan va kam daromadli oilalarga manzilli yordamlarni ko'paytirishga davlat siyosati darajasi sifatiga ko'tarilgan. "Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi"⁴². Bu borada aholini ish bilan ta'minlash masalasiga "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan hayotiy tamoyil asosida qaralmoqda. Aholini kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirishda eng avvalo ularda ishbilarmonlik ruhini uyg'otish, kasb-hunar sohalarini egallashga ijtimoiy ko'mak berish, o'z mehnat faoliyati va tadbirkorlik bo'yicha aniq biznes rejasiga ega bo'lgan fuqorolarga subsidiyalar berish tizimi joriy qilindi. Chunki aholi turmush darajasini yaxshilash va ularning huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash har bir demokratik davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

2-maqsad: Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ratsion sifatini oshirish va qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini rag'batlantirish. Hozirgi kunda dunyohamjamiyatida tabiiy toza oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish, saqlash hamda ishlab chiqarish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bog'liq

⁴² Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. T.: O'zbekiston, 2020.- B.30.

ravishda dehqon va fermer xo‘jaliklarini, shuningdek, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash korxonalarini moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, agrokimyo xizmatlarini kuchaytirish, mineral o‘g‘itlar va zararkunandalarni nazorat qilish vositalarini yetkazib berish, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, aholining sog‘lom, muvozanatli va xilma-xil ovqatga bo‘lgan talabini oshirish, mahsulot narxlarini iste’molchilar uchun qulay darajada saqlash, sifat va xavfsizlikni nazorat qilish tizimini mustahkamlash, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorlari va infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan turli amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda, qayta ishlashda, saqlashda, tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdada, qadoqlashda zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish zarur. “Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat ekinlari yetishtirishga alohida e‘tibor berish kerak”⁴³. Bu borada, qishloq xo‘jali sohasini tubdan isloh qilish, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini kafolatlash va aholining ovqatlanish sifatini oshirish borasida davlat siyosati yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasiga yangi zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, intensiv usuldagi bog‘lar, tokzorlar, meva-sabzavot, oziq-ovqat, asalarichilik, baliqchilik, chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini yetishtirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Bu kabi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligini oldini olishdir. Buning uchun “...oziq-ovqat tovarlari savdosi bilan bog‘liq qator to‘siqlar bartaraf qilindi. Ushbu mahsulotlar boj to‘lovlaridan ozod qilinishi inflyatsiya darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish barobarida, mamlakatimizda oziq-ovqat narxlarining pasayishi va sohada raqobat kuchayishiga turtki bo‘ldi”⁴⁴. Natijada, mamlakatimiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji qondirildi, hatto eksport qiluvchi davlatlar qatoriga qo‘shildi.

⁴³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегиси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.157.

⁴⁴ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.329.

3-maqсад: Sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko‘maklashish. Sog‘lom turmush tarzi bu - muvozanatlangan va oziq-ovqat qiymati yuqori bo‘lgan taomlarni iste‘mol qilish, yog‘, tuz va qand miqdorini me‘yorida saqlash, ko‘p meva-sabzavot, don-dun mahsulotlari iste‘mol qilish, ko‘proq suyuqlik ichish, jismoniy faollik, kundalik 30-60 daqiqa oraliqda jismoniy mashqlar bajarish, ish joyida tizimli badan tarbiyasi mashg‘ulotlarini tashkil etish kabilar tushuniladi. Shuningdek, stressni nazorat qilish va kasalliklar oldini olish usullarini qo‘llash, oilada, mehnat jamoasida va jamiyatda muloqotda bo‘lish, zararli odatlardan voz kechish, doimiy dam olish va uxlash tartibini saqlash, kasalliklarni oldini olish, davriy tibbiy ko‘riklar o‘tkazib turish, ekologik tozaligi yuqori bo‘lgan joyda yashash sog‘lom turmush tarzining muhim garovidir. “...tinchlik va sog‘liq-bu har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan buyuk ne‘matdir. Faqat sog‘lom inson va sog‘lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz”⁴⁵. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha dunyoning eng rivojlangan AQSH, Hindiston, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya kabi davlatlari bilan hamkorlikda 100 dan ortiq tibbiyot klinikalari tashkil qilinmoqda. Bu esa, sog‘liqni saqlash barqaror rivojlanishga zamin yaratadi. “Buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriy hazratlarining “Al-jome as-sahih” asarida shunday mazmundagi hadisi sharif keltiriladi: “Ikkin ne‘mat borki, ko‘pchilik odamlar vaqtida uning qadriga yetmay aldanib qolganlar. Bular-sihat-salomatlik va farog‘at”. Ya‘ni, tana sihatini asrab-avaylash masalasiga insonning muqaddas burchi va haqqi sifatida qarash g‘oyasi o‘tmishda ham, hozir ham taraqqiyot falsafasining o‘ta muhim qismlaridan hisoblanadi ”⁴⁶. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

⁴⁵ Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. T.: O‘zbekiston, 2020.- B 382.

⁴⁶ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2024. –Б.178.

Tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash:

- tibbiyot sohasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, mavjudlarini yangilash;
- tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash darajasini oshirish;
- aholiga zarur bo'lgan dori-darmonlar bilan taminlash;
- sog'liqni saqlash muasasasida pullik to'lov xizmatlarini aniq va shaffof tartibda amalga oshirish.

Qishloq joylaridagi sog'liqni saqlashni rivojlantirish:

- qishloq vrachlik punktlarini qayta tiklash va yangi punktlar tashkil etish;
- punktlarni zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash;
- yuqori malakali tibbiy xodimlarni qishloq vrachlik punktlariga jalb qilish.

Aholi salomatligi ni yaxshilash uchun moliyaviy salohiyatni oshirish:

- aholiga kafolatli tibbiy sug'urta tizimini joriy etish;
- xususiy tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish;
- sog'liqni saqlash uchun turli grand loyihalar salmog'ini oshirish.

Profilaktika va kasalliklarni oldini olish bo'yicha ishlarni takomillashtirish:

- erta diagnostika va skrining tekshiruvlarini kengaytirish;
- profilaktika va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi dasturlarni kuchaytirilish;
- ekologiya va sanitariya-gigiyena masalalariga e'tiborni kuchaytirish.

Ushbu islohotlar aholi salomatligini yaxshilash, sifatli va qulaylikdagi tibbiy xizmatlarni ta'minlashga qaratilgan.

4-maqсад: Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish.

Har qanday mamlakat taraqqiyotida ta'lim inson va jamiyatni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi.

Ta'lim jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammolarni yechimi sifatida hal etishga katta ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy

ta'lim dasturlariga asoslanib ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini zamonaviy laboratoriya, elektron doska, elektron o'quv adabiyotlari, ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish, hayot davomida ta'lim olishni rag'batlantirish, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash uchun xorijiy tajribalar asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish, kundalik hayot uchun zarur bo'lgan kasb-hunar sohalarini rivojlantirishga doir islohotlar Birlashgan millatlar tashkilotining "Ta'lim-butun umr davomida" loyhasi va "Ta'lim-hamma uchun" konsepsiyasiga hamohang ravishda olib borilmoqda. "Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz"⁴⁷. Shuningdek, ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan ezgu g'oyasi asosiy shiorga aylandi. Darhaqiqat, maktab ta'lim tizimini isloh qilish natijasida butun ta'lim tizimini rivojlantirish va jamiyatni modernizatsiya qilishga imkon yaratadi. Ta'limga investitsiya qilish, eng yaxshi investitsiyalardan biri hisoblanadi. Ta'limga keng miqyosda investitsiya kiritish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

Inson salohiyatini rivojlanishi:

- ta'lim olish orqali fuqarolarning intellektual salohiyati oshadi. Natijada, jamiyatning faol qatlami sifatida shakllanadi;
- yuqori malakali mutaxassisga aylanadi, jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi;
- kretik, kreativ, kommunikativ, kollaboratsiya ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish samaradorligi:

- malakali kadrlarni ko'payishi natijasida ta'lim sifati oshadi, mehnat unumdorligi yaxshilanadi;

⁴⁷ Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir . T.: O'zbekiston, 2018.- B. 448.

- ishlab chiqarish sohalariga yangi innovatsiyon texnologiyalar kirib keladi, iqtisodiy o'sish sur'atlari rivojlanadi;

- iqtisodiyotda raqobat muhiti shakllanadi, iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Ijtimoiy-ma'naviy yangilanish:

- fuqarolarning ma'naviy dunyoqarashi yuksaladi;

- jamiyatda ijtimoiy tenglik, birdamlik, o'zaro ishonch, islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi mustahkamlanadi;

- insonparvarlik, ma'rifatparvarlik qadriyatlari yuksalishi natijasida jamiyatda savodsizlik va jinoyatchilik kamayadi.

Xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlanishi:

- xalqaro miqyosidagi Startap loyihalarga qatnashish imkoniyati rivojlanadi;

- investitsiya oqimi faollashadi, ishki turizm rivojlanadi, mamlakat barqaror taraqqiyoti mustahkamlanadi;

- Birlashgan millatlar tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari jamiyatda to'laqonli amalga oshirishini ta'minlashga hissa qo'shiladi. Shuning uchun ham ta'limga investitsiya kiritish - bu yuksak samara beruvchi va ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Davlat va jamiyat rivojlanishining mustahkam poydevori bo'lgan ta'lim sohasiga ajratiladigan mablag'lar ortishi muhim ahamiyat kasb etadi.

5-maqсад: Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish. Gender tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar hamda ayollar huquqlarining bir xil bo'lishini nazarda tutadigan tushuncha. Gender tenglik tamoyili esa hayotning barcha sohalarida erkak va ayol shaxslarini to'laqonli anglash va ularga teng ijtimoiy imkoniyatlar yaratishni ta'minlashdan iborat. “Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlari, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi”⁴⁸. Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlar ulushini oshirish, gender tenglikni

⁴⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегиси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.247.

ta'minlash masalalari davlat dasturlarida belgilanganligi mamlakatimizda xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratdi. Natijada, xotin-qizlar o'rtasida ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, sport va ishlab chiqarishning turli sohalarida yutuqlarga erishmoqda. Bundan tashqari mamlakatimiz boshqaruv sohalarida – vazirlar, hokimlar, bank va boshqaruv kompaniyalari raisi, huquq-tartibot idoralarida, qolaversa, qurolli kuchlarimiz tarkibida xizmat qilayotgan ayollarimiz borligi yurtimizda gender tenglik ta'minlanganligiga ishoradir.

Gender tenglikka oid dasturlarida jamiyatda xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlashga oid munosabatlarda tenglikka rioya qilish, ilmiy va kasbiy faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash, tibbiyot va ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy xizmatlardan erkin foydalanish imkoniyati yartildi. Zero, xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi o'rnini oshirish, liderlik salohiyatini rivojlantirish hamda barcha ta'lim bosqichlarida gender teng yondashuvni tatbiq etishga qaratilgan amaliyotda o'z tasdig'ini topayotganligi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga doir “xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish, zo'ravonlikni barcha shakllarini tugatish, erta nikohni oldini olish, kundalik faoliyatda munosib rag'batlantirish, jamiyatning barcha sohalarida ishtirok etish va qarorlar qabul qilishda teng imkoniyatlar berish, reproduktiv salomatligini asrashda tibbiy xizmatlardan foydalanish” kabi vazifalar BMTning BRMga uyg'un holda amalga oshirilmoqda.

6-maqсад: Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash. Suv bu – hayotimiz va salomatligimiz uchun eng muhim bo'lgan manbadir. Biroq bu manbalar zaxirasi cheklangan. Suvdan oqilona foydalanmas ekanmiz, kelajak avlodlar esa, buni fojeali oqibatlariga olib kelishidan ogoh bo'lmog'i kerak. Iqlim o'zgarishi va suv muammolari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra, so'nggi 50–60 yil ichida Markaziy Osiyo tog'laridagi muzliklar taxminan 30 foizga qisqargan. Bu holat shunday davom etaversa 2050-yilga borib mintaqada chuchuk suv yetishmasligi iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatib, yalpi ichki mahsulotni 11 foizga

kamaytirishi mumkin. Suv tarmoqlarini zamonaviy rekonstruksiya qilish, suvni asrab-avaylash masalasi bugungi kunda global muammoga aylanmoqda. “BMT Bosh kotibining “suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq”, degan pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘l yo‘q”⁴⁹. Global iqlim o‘zgarishi, O‘zbekistonda aholi soni o‘sib borayotgani, iqtisodiyotning turli sohalarida tez sur‘at bilan rivojlanish va suvga bo‘lgan talabning oshishi sababli suv resurslarining yetishmovchiligi yil sayin kuchayib bormoqda.

Buning uchun mamlakatimizda suvdan oqilona foydalanish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

- aholida suv resurslaridan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish;
- suv va suv inshootlarini tejamkor qurilmalar bilan ta'minlash;
- suvni zahiralarini saqlash hamda qayta ishlash tizimlarini modernizatsiya qilish ;
- suv omborlarini samarali boshqarish va suvni yo‘qotishlarni kamaytirish;
- suvni tejamkor ishlatishga oid odat va xulq-atvorni rivojlantirish;
- uy, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida suvni samarali ishlatish usullarini qo‘llash;
- suvni tejashga oid zamonaviy texnologiyalar, qurilmalar va amaliyotlar haqida jamoatchilikni xabardor qilish.
- suv tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ta'mirlab-tiklash;
- suvni o‘lchash va boshqarish tizimlarini joriy etish;
- suv omborlarini ta'mirlash va yangi suv ombori qurilishlarini amalga oshirish;
- Suv tanqisligini oldini olish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish;
- Suvdan foydalanish bo‘yicha me‘yor va standartlarni ishlab chiqish;

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi, 2017-yil 19-sentyabr. <https://president.uz/oz/lists/view/1063>

- suv tizimini tartibga solish bo'yicha davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

- suv xarajatlarini to'g'ri tartibga solish va suvni tejash rag'batlari tizimini joriy etish kabi yondashuvlar orqali suvdan oqilona foydalanish, suv resurslarini muhofaza qilish va aholi ehtiyojlarini ta'minlash mumkin.

7-maqсад: Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta'minlash.

So'nggi yillarda mamlakatimizda Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning ijro etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqsadlar 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida tizimli tarzda amalga oshirilmoqda. Xususan, jahon energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish hamda energiya samaradorligini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, boradagi infratuzilmani kengaytirish, mavjud texnologiyalarni modernizatsiya qilish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Xususan, sanoat korxonalari faoliyatini tungi vaqtga o'tkazish, tarmoqdagi yo'qotishlarni kamaytirish, reaktiv kompensatsiya qurilmalarini o'rnatish, ko'mirga o'tkazish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida elektr energiyasi va tabiiy gaz iqtisod qilingan.

"Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun mamlakatimiz energetika tizimini isloh qilishimiz, bu borada aniq strategiya ishlab chiqishimiz lozim. Avvalo, samarasiz va zarar bilan ishlaydigan korxonalarni xususiylashtirish, monopoliyani tugatish kerak. Shuningdek, elektr energiyasi yetkazib berishda raqobat muhitini shakllantirish va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish zarur"⁵⁰. Bu esa quyidagi yo'nalishlarning ahamiyatini oshiradi:

- elektr energiyasidan samarali foydalanish uchun aqlli texnologiya qurilmalarni tatbiq etish;

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2027-yil, 22-dekabr. <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

- 2030-yilga qadar binolar, sanoat va transport sohaslarida arzon, ishonchli, zamonaviy elektr energiyasi bilan ta'minlash imkoniyatini kengaytirish;
- ijtimoiy obyektlarni tejankor tabiiy elektr qurilmalari(quyosh, shamol, geotermik va boshqa yangilanuvchi manbalardagi elektr energiya) bilan jihozlash;
- elektr energiyani oqilona saqlash va uzatish tizimlarini rivojlantirish;
- elektr transport vositalarini joriy etish va qo'llab-quvvatlash;
- elektr energiya narxlarini to'g'ri tartibga solish va iste'molchilar uchun to'g'ri tashviqot ishlari olib borish;
- iste'molchilarning elektr energiya sarfini nazorat qilish va tejankorlikni ragbatlantirish kabi yondashuvlar elektr energiyadan oqilona foydalanishga, energiya tejankorligini va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

8-maqсад: Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga ko'maklashish. Jamiyatning barqaror taraqqiyotga erishishida aholining ish bilan bandlilik darajasi nihoyatda muhimdir. Ish bilan samarali bandlik mehnatga layoqatli aholini zarur daromad bilan ta'minlaydi va natijada farovon turmush tarziga zamin yaratadi. Mamlakatimizda aholini ish bilan bandlik darajasini ta'minlash borasida qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

“Aholining bandligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida “Bandlik fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir”⁵¹ deb ta'rif berilgan. Davlat ish bilan bandlikni tartibga solishda turli usul va vositalarni tanlaydi.

Samarali ish bilan bandlikni tartibga solish usullari⁵²

t/r	Mezonlar	Ish bilan bandlikni tartibga solish usullari
1	Tartibga solish vazifalari	Mehnat xizmatiga talab va uning taklifi eng maqbul nisbati
		Ishsizlik darajasini kamaytirish
		Mehnat resurslaridan samarali foydalanish
		Mehnat xizmatiga qondirilmagan talabni yo'qotish

⁵¹ “Aholining bandligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 4-modda, <https://lex.uz/ru/docs/-5055690>

⁵² Muallif ishlanmasi

2	Tartibga yo‘nalishlari	solish	Mehnat bozoriga bevosita ta’sir ko‘rsatish usuli
			Bilvosita ta’sir ko‘rsatish usuli
3	Tartibga ko‘lami	solish	Xalqaro mehnat bozori
			Milliy mehnat bozori
			Mintaqaviy mehnat bozori
4	Tartibga ob‘yekti	solish	Ish bilan bandlik
			Ishsizlik
			Mehnatga haq to‘lash
			Mehnat xizmatiga talab va uning taklifi nisbati
			Mehnat bozorining egiluvchanligi
5	Tartibga sub‘yektlar	solish	Ish beruvchilar
			Kasaba uyushmalari
			Davlat institutlari
6	Tartibga manbalari	solish	Ish beruvchilar yoki yollanma xodimlar soliqlari
			Davlat budjeti
			Turli ijtimoiy fondler
7	Tartibga darajasi	solish	Qonunchilik usullari
			Rag‘batlantiruvchi usullar
			Cheklovchi usullar
			Nazorat qiluvchi usullar
			Tashkiliy-institutsional usullar
8	Tartibga xususiyatlari	solish	Psixologik usullar
			Ijtimoiy usullar
			Moliyaviy usullar
			Narx-navoni tashkil etuvchi usullar

Hozirgi kunda erkaklar va ayollarni munosib ish bilan ta’minlash maqsadida ayollar uchun kasb tanlash, malaka oshirish va karyera imkoniyatlarini kengaytirish, erkaklar va ayollar uchun teng ish haqi hamda ish sharoitlarini yaratish, mehnat bozorining ehtiyojlariga mos ta’lim va o‘quv dasturlarini joriy etish hamda ish beruvchilar talabiga muvofiq kadrlar tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Xususan, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarini takomillashtirish, ish joyini o‘zgartirish va kasbni qayta tanlash imkoniyatlarini kengaytirish, ish topish, ish o‘rni va ishga joylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, rag‘batlantirish, haqqoniy mehnat haqini belgilash va ijtimoiy kafolatlar tizimini takomillashtirish kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish orqali erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta’minlash, bandlikni oshirish va gender teng imkoniyatlar yaratish mumkin.

9-maqсад: Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko‘maklashish. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi yutuq va amaliy natijalarga erishish uchun, avvalo, zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish dolzarflik kasb etmoqda. Zero, “sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosida tashkil etish, uni rivojlantirishda drayver va o‘sish nuqtalarini belgilab olish, ishlab chiqarishga ilg‘or texnologiyalarni jalb etish orqali sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish “yashil texnologiya”larni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish, xom-ashyoni chuqur qayta ishlash va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, tashqi bozorlarda yuqori talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim”⁵³ligi ta’kidlandi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad 2030-yilga qadar mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasi global innovatsion indeks reytingida rivojlangan 50 ta davlat qatoriga kirishdir. Bundan tashqari, yangilanuvchi energiya manbalari ulushini kengaytirish, shu jumladan, quyosh, shamol, geotermik va boshqalarni, elektr tarmoqlarining ishonchliligini va samaradorligini oshirish, elektr energiyani tejash va uzatish tizimlarini takomillashtirish, umumqamrovli raqamli infratuzilmani barpo etish, keng qamrovli internet va mobil aloqa tarmog‘ini rivojlantirish muhimdir. Xususan, “Internet of Things” hamda “Smart City” kabi raqamli qurilmalarni amaliyotga tadbiq etish, axborot va ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash, yangi SMART texnologiyalar, mashina va uskunalarni joriy etish, resurs va energiya tejash, qayta ishlash siklini rivojlantirish hamda ekotizimlarni saqlash, sanoat chiqindilari va ifloslanishni kamaytirish, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va STARTAP yechimlarini rag‘batlantirish, texnologik va sanoat parklar, laboratoriyalar va inkolyatorlar tarmog‘ini kengaytirish kabi yondashuvlar orqali barqaror, innovatsion infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoat rivoji va innovatsiyalarni ilgari surish mumkin.

⁵³Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегиси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б.134.

Sanoatlashuv, innovatsiya va infratuzilmani takomillashtirishning ustuvor vazifalari:

- “iqtisodiy rivojlanish va odamlar farovonligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida sifatli, ishonchli, barqaror va chidamli infratuzilmani, shu jumladan, hududiy va transchegaraviy infratuzilmani rivojlantirish, bunda barcha uchun arzon va teng huquqli foydalanishni ta’minlash;

- umumqamrovli va barqaror sanoatlashuvga ko‘maklashish va ishlov beruvchi tarmoqlarning jadal rivojlanishi, resurs tejovchi va ekologik xavfsiz texnologiyalarni keng qo‘llash orqali mavjud korxonalarni modernizatsiyalash hamda yangilarini tashkil etish yo‘li bilan 2030 yilgacha sanoat ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 40 foizga yetkazish;

- mayda sanoat korxonalari va kichik korxonalarining moliyaviy xizmatlardan, shu jumladan, arzon kreditlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda ishlab chiqarish-sotish bosqichlarida qo‘shilgan qiymatni hosil qilish va bozorlarga integratsiyalashuvni kuchaytirish;

- 2030 yilgacha infratuzilmani modernizatsiyalash va sanoat korxonalarini qayta jihozlash, resurslardan foydalanish hamda sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlaridan keng foydalanish hisobiga ularni barqarorlashtirish, bunda barcha manfaatdor mamlakatlarning ularning individual imkoniyatlariga muvofiq ishtirokini ta’minlash;

- mahalliy texnologiyalar sohasidagi ishlanmalar, tadqiqotlar va innovatsiyalarni, jumladan, sanoatning diversifikatsiyasi uchun qulay bo‘lgan siyosiy muhitni yaratish va xomashyo sohalarida 2030 yilgacha 2 baravarga oshirish orqali qo‘llab-quvvatlash;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini jiddiy ravishda kengaytirish hamda Internet tarmog‘idan umumiy va arzon foydalanishni ta’minlash”⁵⁴ kabi vazifalarni ijrosi mamlakat barqaror taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

⁵⁴ “O‘zbekiston-2030” milliy taraqqiyot strategiyasi tahliliy ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
<https://ns1.stat.uz/uz/goal/12?>

10-maqсад: Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha ko‘rinishlarida qisqartirish. Har bir jamiyatning rivojlanishini ta’minlovchi asosiy kuch insondir. Shu sababli, insonning huquq va imkoniyatlari davlat tomonidan himoya qilinganda va kafolatlanganda, jamiyat barqarorlikka erishadi. Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, tengsizlikning barcha ko‘rinishlariga barham berish huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Xususan, 2023-yilda qabul qilingan yangi konstitutsiyada davlat qurilishining asosiy maqsadi-ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson o‘rtasida tegsizlikka barham berish borasida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, inson huquqlarini himoya qilish “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga hamohang tarzda ta’minlanmoqda. Tenglik tushunchasi jamiyatning barcha a’zolarining huquq va imkoniyatlari baravarligini bildiruvchi tushuncha. “Tenglik ta’minlangan jamiyatda uning barcha a’zolari yashash, ta’lim olish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, mulkdor bo‘lish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, qariganda mehnat layoqatini yo‘qotgan ijtimoiy ta’minot olish, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, saylash va saylanish kabi huquqlarga ega bo‘ladi”⁵⁵.

Mamlakatimizda tengsizlikning barcha ko‘rinishlarini qisqartirish borasida quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- 2030-yilgacha aholining ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan qismini qo‘llab-quvvatlash;

- “barcha odamlar, ularning yoshi, jinsi, nogironligi mavjudligi, millati, dini va ijtimoiy maqomidan qat’i nazar, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishini qonunchilik yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish”⁵⁶;

- insonni sha’ni, qadr-qimmatini kamsitishga qarshi normalarni qonunchilikda mustahkamlash;

⁵⁵ Falsafa qomusiy lug‘at. T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004.- B .396.

⁵⁶ 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar. <https://lex.uz/docs/-5870397>

- jamiyatda tenglikni ta'minlashda ijtimoiy himoya, ish haqi, byudjet va soliq siyosati takomillashtirishga doir vazifalar barqaror rivojlanish uchun zamin yaratadi.

11-maqсад: Shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqliği, xavfsizlığı va ekologik barqarorlığını ta'minlash. Bugungi kunda jamiyat barqarorlığını ta'minlashda aholini munosib turmush sharoitini yaxshilash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Aholiga qulaylik yaratish borasida arzon va sifatli uy-joylarni qurishni rag'batlantirish, ko'pqavatli uylarni qurishda zamonaviy me'yorlarga amal qilish, sifatli, arzon va uzluksiz suv, elektr, gaz va issiqlik ta'minoti, maishiy chiqindilarni yig'ish va tozalash xizmatlari, shuningdek, kanalizatsiya va drenaj tizimlarining samarali ishlashi, maktablar, bog'chalar, kasalxonalar, poliklinikalar, madaniy markazlar, yashash joylariga yaqin bo'lgan savdo, sport, dam olish muassasalari, transport aloqa tizimlarining rivojlanganligi, havoning, suvning, tuproqning ifloslanishini kamaytirish, yashil zonalar, parklar, xiyobonlarning yetarli bo'lishi, favqulodda vaziyatlarga tayyor bo'lish, sog'liqni saqlash tizimining ishonchliligi kabi masalalarni kompleks hal qilish orqali fuqarolar uchun munosib yashash sharoitini ta'minlash mumkin.

“Hududlarda bir million xonadonli uy-joylar qurish, “Yangi O'zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazib, qo'shimcha 200 mingta oilaga mo'ljallangan uylarni barpo etish, respublikada kamida 140 ming oilaga mo'ljallangan ijtimoiy uylarni barpo etish”⁵⁷ga oid islohotlar xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan. Bu kabi islohotlarni mantiqiy davomi sifatida barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida “2030 - yilgacha bo'lgan davrda barcha uchun turar joy va uy-joy kommunal xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, yo'l harakati xavfsizligini oshirish, barchaga xavfsiz, arzon, qulay va ekologik barqaror transport vositalarini joriy qilish, barchaga ochiq bo'lgan va ekologik barqaror urbanizatsiya ko'lamini hamda aholi yashash punktlarini kompleks va barqaror rejalashtirish hamda ularni boshqarish, shaharlar ekologiyasining aholiga salbiy ta'sirini kamaytirish, havoning sifatiga hamda shahar chiqindilari va boshqa chiqindilarning

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20203-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risidagi PF-153 son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

chiqarib tashlanishiga alohida e'tibor qaratish, shaharlar va aholi yashash punktlarida yashil hududlar, istirohat bog'lari, bolalar uchun o'yin maydonchalari maydonini kengaytirish, bunda nogironlarning dam olishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, shaharlar va aholi yashash punktlarida yashil hududlar, istirohat bog'lari, bolalar uchun o'yin maydonchalari maydonini kengaytirish, bunda nogironlarning dam olishi uchun zarur sharoitlarni yaratish"⁵⁸ bo'yicha vazifalar ijrosi aholi turmush farovonligining yuksalishiga zamin yaratadi.

12-maqсад: Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni ta'minlash. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish, maqsali ishlatish, chiqindilarni saqlash, qayta ishlash, agrar xo'jalik va sanoat ishlab chiqarish korxonalarida chiqindilarni kamaytirish, tabiiy toza mahsulotlarni yetishtirishni rag'batlantirish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlangan materiallarga asoslangan mahsulotlarni rivojlantirish borasida chora-tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, oziq-ovqat va xom-ashyo mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish bo'yicha klaster tizimi yaratildi. Bu tizimning asoschisi Maykl Porter "klaster-bu ma'lum bir hududda geografik jihatdan o'zaro yaqin joylashgan, faoliyati o'xshash va bir-birini to'ldiruvchi kompaniyalar(Tovar yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar) hamda tegishli tashkilotlar(ta'lim muassasalari, davlat idoralari, infratuzilma kompaniyalari) guruhidir"⁵⁹. Shuningdek, klaster tarmoqlari faoliyatini takomillashtirish natijasida mamlakatimizda ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida o'zaro raqobat muhiti shakllanadi, ishlab chiqarishning arzon, sifatli, eksportbop mahsulotlar salmog'ini rivojlanishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda 2030-yilga qadar iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishda qator vazifalar belgilangan:

- "iste'mol va ishlab chiqarishda oqilona modellarni joriy etish bo'yicha o'n yillik harakatlar strategiyasini amalga oshirish;

⁵⁸ 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar bo'yicha tahliliy ma'lumot.. <https://lex.uz/docs/-5870397>

⁵⁹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: О'zbekiston, 2024. –Б.330.

- 2030-yilgacha xalqaro kelishilgan tamoyillarga muvofiq kimyoviy moddalar va barcha chiqindilardan ularning butun hayotiy sikli davomida ekologik jihatdan samarali foydalanishni ta'minlash hamda inson va atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimal darajaga yetkazish uchun havoga, suvga va tuproqqa tushishini ikki baravarga kamaytirish;

- 2030-yilgacha chiqindilar hosil bo'lishini oldini olish, qayta ishlash va takroriy foydalanish choralari amalga oshirish orqali ularning hajmini ikki baravarga qisqartirish;

- korxonalarga, xususan yirik korxonalarga ishlab chiqarishni barqaror usullarda amalga oshirish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha hisobotlarini tayyorlashni tavsiya etish;

- davlat xaridlarida ekologik standartlarni keng qo'llash;

- 2030-yilgacha aholini barqaror rivojlanish va tabiat bilan uyg'un turmush tarzi bo'yicha tegishli ma'lumot bilan ta'minlash;

- ish o'rinlarini yaratish, mahalliy madaniyat va mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, barqaror turizm orqali barqaror rivojlanishga ta'sirni monitoring qilish vositalarini ishlab chiqish va tatbiq etish;

- qazilma yoqilg'ilarini behuda sarflashga olib keladigan samarasiz subsidiyalarni, milliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda, bozor nomutanosibliklarini, jumladan soliq tizimi islohotlarini amalga oshirish orqali bartaraf etish va zararli subsidiyalardan asta-sekin voz kechish, bu jarayonda ekologik oqibatlarni hisobga olish"⁶⁰ hamda ijtimoiy zaif qatlamlarning manfaatlarini himoya qilish orqali salbiy ta'sirlarni minimal darajaga yetkazish natijasida barqaror rivojlanish va iste'mol hamda ishlab chiqarishda oqilona modellarga o'tish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

13-maqсад: Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni qabul qilish. Bugungi ishlab chiqarish jarayonlarini sanoatlashish natijasida suv, havo, tuproq hamda iqlim o'zgarishi o'simlik va

⁶⁰ 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar bo'yicha tahliliy ma'lumot.. <https://lex.uz/docs/-5870397>

hayvonot olamidagi ekologik vaziyat jamiyat taraqqiyotiga xavf solmoqda. Shu bois, barcha davlatlar ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasiga davlat siyosati darajasi sifatida qaramoqda. "2019-2028-yillarda O'zbekistonda biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi ishlab chiqildi"⁶¹. Ushbu strategiyada tabiatda biologik xilma-xillikni saqlash undan faoydalanish, himoya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida 2030-yilgacha Milliy strategik maqsadlar belgilandi. "...BMT tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2030-yilgacha atrof-muhitga tashlanadigan global uglerod chiqindilari hamji 45 foiz qisqarish o'rniga, aksincha, 16 foiz ortadi. Bu dunyo bo'yicha harorat yanada ko'tarilishiga olib keladi"⁶². Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilga qadar quyidagi vazifalar belgilandi:

- "iqlim o'zgarishiga qarshi-ta'sir choralarini milliy darajada siyosatga, strategiyaga va rejalashtirishga kiritish;

- odamlar va muassasalar, tashkilot va korxonalarning iqlim o'zgarishi oqibatlarining oldini olish, ularga moslashish va xavfli iqlim hodisalarining tavakkalchiligidan erta ogohlantirish bo'yicha xabardorligini oshirish ma'lumotlarning tarqatilishini hamda imkoniyatlarini yaxshilash"⁶³ borasidagi vazifalar yurtimizda iqlim o'zgarishlarinins salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratilgan.

15-maqсад: Quruqlik ekotizimlarini himoya qilish va tiklash, ulardan samarali foydalanishni rag'batlantirish, o'rmon resurslarini oqilona boshqarish, cho'llanishni oldini olish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va tiklash hamda biologik xilma-xillikning yo'qolishini to'xtatish. Mamlakatimizda barqaror rivojlanish yo'lida milliy maqsad va vazifalar doirasida iqlim o'zgarishi, quruqlik ekotizimlarini asrash, himoya qilish, o'rmonlardan ehtiyotkora foydalanish, tog' va qir mintaqalarini cho'llanishiga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish hamda fauna va flora olami xilma-xilligi yo'qolishini oldini

⁶¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон снһfntubzcb. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.391.

⁶² Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: О'zbekiston, 2024. –Б.410.

⁶³ 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar bo'yicha tahliliy ma'lumot.. <https://lex.uz/docs/-5870397>

olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimli ravishda olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan “atrof-muhitni bekamu ko‘st saqlash, ekologik muvozanatni saqlash borsaida ko‘plab hujjatlar, qarorlar qabul qilishimiz, keng miqyosli loyihalar ishlab chiqishimiz, zarur choralar ko‘rishimiz, ularni moliyalashtirish uchun mablag‘ yo‘naltirishimiz mumkin. Ammo bu sohadagi barcha ishlarimiz samarasi ushbu jarayonlarda fuqorolarimizning faol ishtiroki, tevarak-atrofga mas’uliyat hissi, boshqacha aytganda, jamiyatdagi ekologik madaniyatga bog‘liq”⁶⁴ ekanligini, ushbu ekologik vaziyatni yaxshilashda jamiyat a’zolarining bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etish choralari ko‘rishni taqozo etadi. Bu borada Barqaror rivojlanishning quruqlik ekotizimlarini himoyalash, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish, bioxilma-xillikni saqlab qolishga doir maqsadlarini amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilandi:

- “xalqaro bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq yer usti va ichki chuchuk suvli ekotizimlar, jumladan, o‘rmonlar, suvli-botqoqli hududlar, tog‘lar va qurg‘oqchil yerlarni saqlash, tiklash va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash;

- o‘rmonlarning barcha turlaridan oqilona foydalanish usullarini joriy etishga ko‘maklashish, o‘rmonlarning yo‘qolib ketishini to‘xtatish, yemirilgan o‘rmonlarni tiklash hamda o‘rmonzorlar va o‘rmonlarni tiklash ko‘lamini jiddiy ravishda ko‘paytirish;

- 2030 yilgacha cho‘llanishga qarshi kurashish, yemirilgan yerlar va tuproqlarni, shu jumladan, cho‘llanish, qurg‘oqchilik va suv toshqiniga uchragan yerlarni tiklash va yerlarning yemirilishining neytral balansiga erishish;

- 2030 yilgacha tog‘ ekotizimlarining, shu jumladan, ularning bioxilma-xilligi saqlanishini barqaror rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ne’matlarni yaratish salohiyatini kuchaytirish maqsadida ta’minlash;

⁶⁴ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2024. –Б.402.

- hayvonlarning tabiiy yashash muhiti yemirilishini cheklovchi jiddiy choralarni ko‘rish, yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan biologik turlarning sonini kamaytirish;

- brakonerlik hamda flora va faunaning qo‘riqlanadigan turlarining kontrabanda savdosini tugatish uchun shoshilinch choralar ko‘rish, jonli tabiatning noqonuniy mahsulotlariga talab, shuningdek, ularni taklif qilishga oid muammolarni hal qilish;

- begona invaziv turlar kirib kelishining oldini olish va ularning yer usti va suv ekotizimlariga ta’sirini jiddiy qisqartirish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, ustuvor turlar miqdorining qisqarishi yoki yo‘q qilinishining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish;

- iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarini rivojlantirishning milliy strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda ekotizim va biologik xilma-xillik qiymatining hisobga olinishini ta’minlash;

- biologik xilma-xillik va ekotizimlarni saqlash hamda ulardan oqilona foydalanish maqsadida moliyaviy resurslarning barcha manbalarini safarbar etish va jiddiy ravishda ko‘paytirish”⁶⁵ kabi vazifalar ijrosi Yangi O‘zbekistonni ekologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

15-maqсад: Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida tinchliksevar va ochiq jamiyatlarni rivojlantirish, barcha fuqarolar uchun adolatli sudlov imkoniyatlarini ta’minlash hamda barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng jamoatchilik ishtirokiga asoslangan muassasalarni tashkil etish. Bugungi globallashuv davrida tinchliksevar jamiyatni barpo etish, inson huquq va imkoniyatlarini ta’minlash hayotiy zaruriyatdir. Tinchliksevar ochiq jamiyatlar barpo etish uchun avvalo insonlarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash, ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlarini yaratish,

⁶⁵ 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar bo‘yicha tahliliy ma’lumot.. <https://lex.uz/docs/-5870397>

fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirish, davlat va fuqarolik sektori o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash kabi vazifalarni amalga oshirish lozimdir.

Jamiyatda shaffoflikni ta'minlash, inson omilidan holi bo'lgan elektron tizimni yaratish, ma'lumot olish va ularga erkin kirish imkoniyatini yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish, shuningdek, fuqarolarning davlat boshqaruvi jarayonlariga faol ishtirokini rag'batlantirish muhimdir. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Milliy strategiya qabul qilindi. Strategiyada "inson huquqlarining buzilishlariga barham berish maqsadida sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov tizimi vakolatlarini mustahkamlash"⁶⁶ bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda inson huquqlari oliy qadriyat darajasiga ko'tarilayotganligining ifodasidir. Bundan tashqari, jamiyatimizda odil sudlovni olib borish, sudlarni mustaqilligini ta'minlash, tinchlikni saqlash, turli tahdidlarga qarshi aholida immunitetini shakllantirish tizimini yaratish lozim. "Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, so'nggi 10 yil ichida diniy ekstremizm va terrorizm tufayli dunyo iqtisodiyoti 583 trilion AQSh dollari miqdorida zarar ko'rgan bo'lsa, 15 yil ichida 100 mingdan ziyod begunoh insonlar terrorchilik hujumlari oqibatida halok bo'lgan"⁶⁷ ligi jamiyat tahlikali holatda bo'lganligiga ishoradir. Bu salbiy holatlarni oldini olish maqsadida mamlakatimizda zo'ravonlikning barcha turlarini kamaytirish va ushbu hodisalar sababli o'lim ko'rsatkichlarini pasaytirishga e'tibor qaratilmoqda. "2030-yilgacha bo'lgan davrda zo'ravonlikning barcha turlarini kamaytirish, qonun ustuvorligiga ko'maklashish, odil sudlovdan foydalanish bo'yicha teng imkoniyatlarni ta'minlash, noqonuniy pul va qurol-yarog' oqimlarini jiddiy ravishda qisqartirish, o'g'irlangan aktivlarni izlab topish, uyushgan jinoyatchilikning barcha shakllariga qarshi kurashish, korrupsiya, ekstremizm, poraxo'rlik illatlarni oldini olish, boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining samaradorligi, hisobdorligi va shaffofligini oshirish, fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqini amalga oshirishlari uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot oshkoraligini kuchaytirish,

⁶⁶ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: O'zbekiston, 2024. –Б.48.

⁶⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.399.

fuqarolarning asosiy erkinliklari himoya qilish, zo‘ravonlikning oldini olish, terrorchilik, ekstremizm va jinoyatchilikka qarshi kurashishda milliy va xalqaro darajalarda hamkorlikni kengaytirish”⁶⁸ barqaror rivojlanish milliy maqsadlarining asosiy vazifalari hisoblanadi.

16-maqсад: Barqaror rivojlanish maqsadlarida Global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini mustahkamlash va ishlarni faollashtirish. Mamlakatimiz barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarni yo‘lga qo‘ymoqda. Xususan, mamlakatimizda BMTning inson huquqlari, bola huquqlari, gender tengligi, barqaror rivojlanish maqsadlari kabi bir qancha konvensiyalari ratifikatsiya qilingan. Shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda erkin va adolatli savdo tizimini rivojlantirish orqali barqarorlikni ta‘minlash, savdo va investitsiyalar uchun qoidalar va standartlarni belgilash, global sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlashga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini tatbiq etish, iqlim o‘zgarishlari, ekologiya, tabiat resurslarining barqaror foydalanishi kabi masalalarni qo‘llab-quvvatlash borasida ko‘plab barqaror rivojlanish maqsadlariga erishilmoqda.

1.3. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot asoslari

Har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti-uning suverenitetidir. Jonajon vatanimiz shonli tarixga ega bo‘lib, bugun har bir sohada taraqqiyot sari dadil ildamlayotir. “Biz bugun xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan, istiqlol yillarida bosib o‘tgan og‘ir va mashaqqatli, shu bilan birga, g‘oyat sharaflı yo‘limizni sarhisob qilar ekanmiz, tarixan qisqa bir davrda o‘z taqdirimizni o‘zimiz hal etish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash, milliy davlatchiligimizni azaliy qadriyat va urf-odatlarimizni, muqaddas dinimizni tiklash, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash borasida ulkan yutuq va marralarni qo‘lga kiritganimizni

⁶⁸ 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar bo‘yicha tahliliy ma‘lumot. <https://lex.uz/docs/-5870397>

faxr bilan tilga olamiz”⁶⁹. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida O‘zbekiston rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bu bosqich Yangi O‘zbekiston terminida o‘z ifodasini topmoqda.

Jamiyat taraqqiyotini mustahkamlashda avvalo, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda qonun ustuvorligini ta‘minlash, demokratik islohotlarning chuqurlashuvi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlat va jamiyat boshqaruvini isloh qilish, xalqaro munosabatlar va amaliy tashqi siyosatni rivojlantirishga oid omillar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi.

Yangi O‘zbekistonda inson, uning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Albatta, dunyodagi hozirgi murakkab sharoitda bu vazifalarni amalga oshirish oson bo‘lmaydi. Lekin biz o‘tgan davrda katta bilim va tajriba to‘pladik. “Eng muhimi, o‘z kuch va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonchimiz tobora ortib bormoqda. Shu bois, qanchalik qiyin bo‘lmasin, tanlagan yo‘limizdan hech qachon ortga qaytmaymiz. Ko‘zlagan marralarimizga albatta yetamiz. Bu yo‘lda niyati ulug‘, qalbi pok, mehnatkash xalqimizga tayanamiz. Bir tanu bir jon bo‘lib harakat qilsak, men ishonaman, el-yurtimiz intilayotgan Yangi O‘zbekistonni albatta barchamiz birgalikda bunyod etamiz”⁷⁰. Darhaqiqat, Yangi O‘zbekiston poydevorini mustahkamlash borasida bugun tizimli amaliy chora-tadbirlar qilinmoqda. Natijada, fuqarolarning siyosiy faolligi yuksalmoqda. “Ulardan ko‘zlangan maqsadi — “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat”⁷¹. Yangi O‘zbekiston tushunchasi mamlakatimizning zamonaviy obrazini yaratish va inson huquqlari hamda imkoniyatlari kafolatlangan demokratik davlatni barpo etishga qaratilgan, Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga zamin yaratadi. “...Yangi O‘zbekiston, avvalo, xalqimiz o‘z

⁶⁹ Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. T., 2017-yil, 31-avgust

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022- yil 20 -dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

⁷¹ Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O‘zbekiston, 2018.-B. 244.

milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘yganini, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallayotgan, bu borada oldimizda ko‘plab imkoniyatlar paydo bo‘layotganini anglatadigan tushunchadir”⁷² degan ta’rifda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar erkinlik va ozodlik, bunyodkorlik hamda farovonlik yo‘lining yuksak bosqichidir. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizning har bir fuqarosi o‘z kundalik hayotida teran his qilayotganligi, turmush farovonligi yuksalayotganligida ko‘rishimiz mumkin.

Nizomulmulk o‘zining “Siyosatnoma” asarida, “mamlakatda adolatni qaror toptirmoq uchun qonun ustuvorligini ta’minlamoq darkor. Jazo ham adolatli bo‘lmog‘i lozim. Qonun kuchi sezilmaydigan davlatda adolat haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlashda hokimlar, qozilarning mas’uliyati haqida fikr yuritgan Nizomulmulk, bunday mas’uliyatli amalni johil va nopok kishilarga ishonib topshirib bo‘lmaydi, bunday amalni faqat pok, porso odamlarga berish lozim”⁷³, deydi.

Azal-azaldan xalqimiz hamma narsadan adolatni, mehr-oqibat, o‘zgalar huquqlarini paymol qilmaslik kabi axloqiy tamoyillar hayotini ajralmas qismiga aylangan. Shu nuqtai nazardan “qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash-Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir”⁷⁴. Zero, qonun va adolat ustuvor bo‘lgan mamlakatda barqarorlik va farovonlik hukm suradi. Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari va qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar yangi darajaga ko‘tarildi. Xususan, mamlakatimiz bosh qomusiga 2023-yil 30-aprelda referendum orqali o‘zgartirish kiritildi. Avvalo konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tashabbusi 2022-yil 17-may kuni parlamentimizdagi “O‘zbekiston Liberal-demokratik” va “Milliy tiklanish” demokratik partiyalari fraksiyalari tashabbusi bilan Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish masalasi ko‘tarildi. Shuningdek, Konstitutsiyani isloh qilish va unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda jamoatchilik vakillaridan kelib

⁷² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б.26.

⁷³ Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk. Toshkent., 1997.- B.47.

⁷⁴ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б.26.

tushgan takliflarni shakllantirish va har bir fuqarolar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni eshitish va umumlashtirish vazifalari bilan shug'ullanuvchi maxsus Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etildi.

Konstitutsiyani takomillashtirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda ***Meningkonstitutsiyam.uz portali*** hamda telegram-bot va koll-markaz orqali fuqarolar o'z takliflarini bildirishi va bundan tashqari qator imkoniyatlar yaratildi. Buning natijasida 2023-yil 30-aprel kuni konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish bo'yicha bo'lib o'tgan referendumda 11 ta modddan iborat bo'lgan qonunning qabul qilinishiga asos bo'ldi. Referendum yakuniy natijalariga ko'ra yangilangan konstitutsiya 2023- yil 1- maydan e'tiboran kuchga kirdi. Ushbu konstitutsiya shu vaqtga qadar jami 15 marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan edi. Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha jamoatchilik vakillaridan olingan takliflarni ko'lamini yangi tahriri qabul qilinishiga asos bo'ldi. Demokratik prinsiplar orqali yangilangan konstitutsiya 128 ta modddan 155 ta moddaga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga oshdi. Natijada, konstitutsiyamiz 65 foizga yangilandi. Konstitutsiyada inson huquqlari va kafolatlari eng ustuvor tamoyil sifatida namoyon bo'lmoqda.

“Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz”⁷⁵ degan fikr yangilanayotgan O'zbekistonda inson taraqqiyotini ta'minlashga, jamiyat barqarorligini mustahkamlashga zamin yaratadi. Yangi O'zbekistonda “Inson qadri uchun” g'oyasi, har qanday shaxsning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini, boshqa daxlsiz huquqlarini joyiga qo'yish, ulug'lash hamda har bir fuqarolariga tinch va xavfsiz turmush sharoitini ta'minlash, tibbiyoy va ta'limga oid imkoniyatlaridan samarali va maqsadli foydalanish kabi jihatlar alohida e'tirof etildi va yuqori baholandi. Inson huquqlari, adolat masalalari azaldan mutafakkir olimlar tomonidan asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaragan. Xususan,

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi, 2022 -yil 20-dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

Kaykovusning “Qobusnoma” asriga ko‘ra, insonning asosiy xususiyatlaridan biri — barcha ishda adolatni saqlashdir. “Hamma ishda adolatli bo‘l. Har kishi adolatli bo‘lsa, unga qozining keragi yo‘q. Adolatdan yiroq insonda na himmat va na saxovat belgilari bo‘lmaydi. Adolatni o‘zining insoniy burchiga aylantirgan kishi bag‘ri keng, nazar-u himmati baland, jamiyatda o‘rnatilgan tartib-intizomga rioya qiladi”⁷⁶. Buning natijasida jamiyat taraqqiyotga erishadi, insonlar farovan turmush tarzi asosida yashaydi. Agar jamiyatda qonun ustuvorlik tamoyili ta’minlanmas ekan insonlarda davlatga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati shakllanib begonalashuv holati vujudga keladi. Ana shunday sharoitda “insonni begonalashuv xolatidan xalos qilishning asosiy yo‘li uning individual erkinligini mustahkamlash va ma’naviy-axloqiy yetukligini muntazam takomillashtirib borish zarur”⁷⁷. Bu borada, mamlakatimizda siyosiy barqarorlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan faoliyatlarga dunyo miqyosidagi forum va sammitlarda alohida e’tirofga ega bo‘lmoqda. Xususan, umuminsoniy muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarning Markaziy Osiyo davlatlari hamda boshqa mintaqalarda xavfsizlikni ta’minlash va barqaror iqtisodiy hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilayotgani ta’kidlandi. Bundan tashqari birgina Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 10 dan ziyod rezolyutsiyasi bevosita mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingani e’tirof etildi. Zero, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan dunyodagi juda kamdan kam davlatlar rahbarlarining qisqa vaqt ichida 10 tashabbusi bo‘yicha rezolyutsiyalar qabul qilingan. Xususan, xorijiy ishtirokchilari tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga bildirilgan ba’zi xulosalarni keltirib o‘tamiz.

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlarning bosh bog‘lovchi bo‘g‘inini, o‘zagini yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun”, “Avval inson – keyin jamiyat va davlat”, “Hech kim ortda qolmaslik” g‘oyalari tashkil etadi. O‘zbekiston tarixda ilk marotaba Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo bo‘lishi –mamlakatda

⁷⁶ Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent., 1994.- B.32.

⁷⁷ Крылова Л.А., Мосолова Л.Н. Экзистенциализм в Англия и США. М., 1976 с .39

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi hisoblanadi.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- inson huquq va erkinliklarini davlat tomonidan himoya qilinishi, jamiyatda konstitutsiya va qonunlarning ustunligini kafolatlaydi;

- fuqorolar huquqlarini himoya qilishda davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqorolar oldida mas'ul ekanligini belgilaydi;

- jamiyatda sud hokimyatini mustaqilligini ta'minlash natijasida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmi mavjudligi;

- inson huquqlarini himoya qiluvchi va adolat, qonun ustuvorligi tamoyilini amliyotda mustahkamlash davlat va nodavlat tashkilotlari va jamoatchilik nazorati muhim rol o'ynaydi;

- xalqaro huquqning umuminsoniy prinsipalarini milliy qonunchilik amaliyotiga tatbiq etish. Bular inson huquqlari va erkinliklarining real ta'minlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy barqarorlik va demokratik islohotlarning chuqurlashuvining eng muhim omillaridan biri fuqarolik jamiyatining takomillashuvidir.

Davlat faoliyati funksiyalarini bosqichma-bosqich o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalariga o'tkazilishi fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun muhim qadamdir.. "...davlatchiligimiz rivojlana borgani sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir"⁷⁸ degan fikrda fuqarolik jamiyati barqarorlikni mustahkamlashda eng muhim vosita ekanligidan dalolatdir.

Fuqarolik jamiyati instituslarining faoliyati, huquqiy asoslari Konstitutsiya va boshqa qonun osti hujjatlarda mustahkamlangan. Mustaqillikni dastlabki yillarida

⁷⁸ Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т., 1995.- Б. 14.

mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”⁷⁹ gi qonuni qabul qilinishi Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishda dastlabki qadam bo‘ldi. Fuqorolarning huquqlarini himoya qilish, jamoat birlashmalari faoliyatini rivojlantirish ularning faolligini oshirish, tashabbuskorligini rag‘batlantirish ushbu qonunning asosiy maqsad edi. Ular fuqarolarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy va iqtisodiy faollik hamda huquqiy madaniyatini oshirish uchun qulay sharoit yaratadi va jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta‘minlashga yordam beradi degan qoida mustahkamlangan edi. Bu borada, fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirish borasida nodavlat-notijorat tashkilotlari, xayriya, kasaba uyushmalari kabi ijtimoiy harakatlar faoliyati tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid islohotlar natijasida:

Birinchidan, fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda ishtirok etish darajasi sezilarli ravishda oshdi.

Ikkinchidan, fuqarolar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarini yuqori tashkilotlarga murojaat qilish va ularni hal etishda faol rol o‘ynamoqda.

Uchinchidan, davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi muloqot va sheriklik rivojlanmoqda.

To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari bilan davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikka alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy islohot va modernizatsiya. Bugungi bozor iqtisodiyotiga asoslangan globallashuv davrida avvalgi davrlarga xos bo‘lmagan tendensiyalar paydo bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda har qaysi mamlakat iqtisodiyotini doimo takomillashtirib borishi, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishi, aholiga farovon turmush tarzini ta‘minlash borasidagi islohotlarni olib borishni taqoza etmoqda. Zero, Yangi O‘zbekistonni barqaror rivojlanish tendensiyalaridan biri ham shundan iboratdir. “...inson manfaatlarini va yana bir bor inson manfaatlarini-iqtisodiy

⁷⁹ Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Қонуни.//Ўзбекистон Республикасининг Қонунлари. 4-сон. -Т., Адолат, 1993.- Б.155.

islohotlarimizning o‘zak masalasidir”⁸⁰ degan fikrda jamiyatimiz farovonligi, xalqimiz turmush tarzini ta‘minlash eng asosiy maqsad ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda aholining talab va ehtiyojlarini ta‘minlash borasida barcha imkoniyatlar yaratilgan. “...xizmat ko‘rsatish va keng iste‘mol mollari ishlab chiqarish iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga aylanadi”⁸¹, natijada aholining umumiy farovonligi ta‘minlanadi.

Yangi O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish natijasida quyidagi ijobiy omillar ko‘zga tashlanmoqda:

- aholining ijtimoiy jihatdan kam ta‘minlangan qismi tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlanmoqda;

- iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish maqsadida xususiy sektorlar faoliyati kuchaytirilmoqda;

- kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanmoqda;

- tadbirkorlarga turli iqtisodiy yengilliklar berilmoqda;

- xususiy mulkka daxlsizlik, uning daxlsizligini ta‘minlash kafolatlari kuchaytirilmoqda;

- transport, aloqa va kommunal xizmatlar bozorlarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda;

- O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi uchun faol tayyorgarlik ishlari davom etmoqda;

- erkin savdo zonalarini tashkil etildi va chet el investitsiyalari jalb qilinmoqda;

- O‘zbekiston xalqaro moliya institutlari va tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. iqtisodiy islohotlar natijasida olingan foydalar aholining barcha qatlamlari manfaatlariga yo‘naltirilgan;

- kambag‘al va ijtimoiy jihatdan kam ta‘minlangan aholini qo‘llab-quvvatlash tizimi kuchaytirildi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotiga yanada tezroq o‘tish uchun ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy chora tadbirlar tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

⁸⁰ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.127.

⁸¹ Rostow W.W.The Process of Economic Growth.2ed.-Oxford, 1930. P.319.

Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar. Bugungi kunda inson va jamiyat rivojining eng muhim omili bu-ta'limdir. Ta'lim inson tomonidan barcha bilimlarni o'zlashtirishga, jamiyatning faol hayotiga kirishishiga xizmat qiladi. Shuning uchun so'nggi yillarda mamlakatimizni har tamonlama rivojlantirish uchun barcha sohalarda bo'lgani singari ta'lim tizimiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad Yangi O'zbekistonni barqarorligini ta'minlashdir.

Yangi O'zbekistonni dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish ziyolilar va bilimli yoshlarga bog'liqdir. "Buyuk yunon olimi, Sharqda "Birinci muallim" deb ulug'langan Arestotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari, qarang, miloddan 350 yil avval aytilgan"⁸². Demak, insoniyat qadimdan ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor berganligi va bu bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Shu bois, Yangi O'zbekiston rivojlantirish uchun eng avvalo ta'limni qo'llab-quvvatlashimiz va unga investitsiya ajratishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. "...Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi"⁸³ degan ma'rifatparvar jadid allomalarimizning o'gitlari barchamiz uchun amaliy harakatiga aylanishi kerak.

Ta'lim insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda shaxs, davlat, jamiyat nuqtai nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shaxsiy darajada - bu insonning o'zligini namoyon qilishga, intellektual salohiyatini shakllantirishga zamin yaratadi. Bundan tashqari ta'lim nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishishda, kasbiy bilimlarni egallashga, ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi.

Davlat darajasida - har qanday davlat mamalakat intellektual salohiyatini yuksaltirishdan manfaatdordir. Buning uchun aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, intellektual mulk sohiblari salmog'ini ko'paytirishga alohida e'tibor berish lozim.

⁸²Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.234.

⁸³ О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022- yil 20 -dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

Jamiyat darajasida – ta’lim barcha uchun teng bo’lishi, aholida moddiy va ma’naviy qadriyatlarni takomillashtirishga xizmat qilishi kerak. Chunki ta’lim jamiyat barqaror taraqqiyotini ta’minlashga imkon beradi.

Yangi O‘zbekistonda maktabgacha va maktab ta’limi tizimini isloh qilish maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklarning mazmunini takomillashtirish ishlari davom etmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilarga adolatli mehnat sharoitini yaratish, ularning kasbiy mahoratini oshirish, xorijiy tajriba asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini takomillashtirish, o‘quv binolarini zamonaviylashtirish hamda laboratoriyalar va o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonalari bilan jihozlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish kabi islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy bilim sohalarini odamlar tamonidan egallashi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy va madaniy rivojlanishini ta’minlaydi. Amerikalik taniqli iqtisodchi T.Stoun’er “Iqtisodiyotning sanoat rivojlanishidan keying davrida bilim yer, mehnat va kapital o‘rnini bosib, zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarining eng muhim asosiga aylandi”⁸⁴ deb bilimga yuqori baho beradi. Hindistonlik Amartya Kumar Sen o‘zining ilmiy asarlarida jamiyat barqarorligining asosi moddiy farovonlik bilan emas, balki, insonga zarur bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli ravishda takomillashtirish jarayoni sifatida tahlil etadi. Xususan, Amartya Kumar Sen ⁸⁵ inson va jamiyat taraqqiyotini rivojlanishidan asosiy maqsad tovar ishlab chiqarish ko‘lamini haddan ziyod ko‘paytirish emas, odamlarga ko‘proq ish bajarishi uchun bilimlarni egallashi, uzoq umr ko‘rishi, kasalliklardan holi bo‘lishi kabi imkoniyatlarni yaratib berish kerakligi ta’kidlaydi.

Ta’lim tizimini rivojlantirish natijasida biz jamiyatdagi barcha ijtimoiy muammolarga amaliy jihatdan yechim topishimiz mumkin. 2020- yil 24- yanvarda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojatnomasida aholimiz orasida kam

⁸⁴ Стоунъер Т. Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики. Новая технологическая волна на Западе/Под пред. Гуревича П.С.-М.:Прогресс,1986.-С.24.

⁸⁵ Амартя Сен. Развитие как расширение человеческого выбора, 1989.

ta'minlanganlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni oldini olish to'g'risida tizimli ishlar olib borish kerakligini aytib o'tdi. Murojatnomada "har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari bizda ham borligi, ularning soni taxminan 12-15 foizni tashkil etishi, bu foiz 4-5 million aholimizni qamrab olishi, kambag'allikni kamaytirish uchun aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'laro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish lozimligi"⁸⁶ haqidagi fikr mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohotlar aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan.

Aholiga sog'liqni saqlash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishi Yangi O'zbekistonni barqaror rivojlanishining asosiy maqsadi sifatida belgilangan. Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak. Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash bo'yicha sa'y-harakatlarimizni, xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarimizni kuchaytiramiz⁸⁷. Statistik ma'lumotlarga qaraganda so'nggi yillarda yog'ingarchilik holati avvalgi yillarga qaraganda 25 foizga qisqarishini inobatga olgan holda suv xo'jaligi tizimi tubdan isloh qilish, aholining suvdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz muhimdir. "Suvning hisobini ochiq-oshkora yuritish tizimi joriy etiladi va kelgusi uch yilda 13 mingga yaqin suv xo'jaligi obyekti raqamlashtiriladi. Shu bilan birga, 16 ta yirik nasos stansiyasi davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizatsiya qilinadi va muqobil energiyaga o'tkaziladi"⁸⁸.

⁸⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <http://uza.uz>

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022- yil 20 -dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

⁸⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022- yil 20 -dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/5774a>

Tashqi siyosat va xalqaro hamkorlik. Bugungi kunda O‘zbekiston dunyoda bo‘layotgan turli tahlikalardan qat’i nazar, o‘zining suverenitetini, chegaralar daxlsizligini, xavfsizligini, barqaror taraqqiyotini hamda barcha aholi qatlamlarini farovonligini ta’minlashga oid islohotlar olib bormoqda. “So‘ngi yillarda mamlakatimizda kechayotgan tub yangilanishlar, izchil va faol tashqi siyosat, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi yaqin qo‘shnichilik muhiti tobora mustahkamlanayotganligi yurtimizning xalqaro nufuzini yanada oshirmoqda”⁸⁹. Bundan tashqari, O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosati aniq va asosli qarorlar bilan shakllantirilayotganligi bugungi kun ruhiyati bilan odamlarning ehtiyoji hamda manfaatlariga javob berishi dunyo hamjamiyatida alohida e’tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzining oshishiga quyidagi omillar xizmat qilmoqda:

Birinchidan, mustaqil, pragmatik va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Jumladan, qo‘shni va boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar SHHT, MDH, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan samarali diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Ikkinchidan, xalqaro savdo aloqalarini amalga oshirishda bir qator mamlakatlarga vizasiz tizimni yo‘lga qo‘yishi, Yevroosiyo iqtisodiy makoniga integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, investitsiyon muhit paydo bo‘lishi, ishlab chiqarishning barcha sohalarida eksport hajmini ortishi bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, O‘zbekiston xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda, muzokaralar va sammitlarda faol qatnashmoqda. Xalqaro vazifalarni bajarish, xalqaro xavfsizlikni ta’minlash, inson huquqlari masalalarida, madaniy-gumanitar, sport, turizm va boshqa sohalar bo‘yicha yetakchi pozitsiyalarni mustahkamlayapti.

To‘rtinchidan, mamlakat taraqqiyoti va islohotlar jarayonining shaffofligining oshishi, ochiq va erkin ommaviy axborot vositalari faoliyatining rivojlanishi, internet, elektron texnologiyalar va innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda

⁸⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.330.

aholining faol ishtirokini ta'minlash orqali erishiladi. Bundan tashqari islohotlarning amaliy natijadorligi ham barqarorlikni ta'minlashga zamin yaratadi. "... modernizatsiyaga, eng avvalo, moddiy va mehnat resurslarini qayta taqsimlash, sektorlar o'rtasida ayirboshlash (mehnat unumdorligi past bo'lgan sektorlarni qisqartirib, mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan sektorlarni kengaytirish) vositasi sifatida qaralar edi"⁹⁰. O'zbekiston o'zaro manfaatli, samarali va strategik hamkorlikni rivojlantirishda Xitoy, AQSh, Rossiya kabi rivojlangan davlatlar, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlar, Evropa mamlakatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Malayziya kabi davlatlar, arab-musulmon va turkiy tilli mamlakatlar bilan olib borilmoqda.

Bu sohada olib borilayotgan tashqi siyosat faoliyati rivojlangan davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish natijasida investitsiya oqimi tezlashdi hamda mahalliy eksport geografiyasini rivojlantirish yo'nalishlarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Buning natijasida, "so'nggi 10 yil ichida birinchi marta mamlakatimiz Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining kredit xavfi reytingidagi pozitsiyasini yaxshiladi. Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida yurtimiz 7 ta pozitsiyaga yuqori ko'tarildi va biznesni ro'yxatdan o'tkazish ko'rsatkichi bo'yicha 190 ta davlat orsida 8-o'rinni egallab, eng yaxshi islohotchi mamlakatlar safiga kiritildi"⁹¹. Kelgusi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatini olib borishda quyidagi ustuvor vazifalar:

- Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tashqi siyosat uzoq muddatli strategik maqsadlar asosida olib borilmoqda.

- dunyoning rivojlangan hamkor davlatlarimiz Xitoy, Rossiya, AQSh, Fransiya, Angliya, Germaniya, Yaponiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari bilan diplomatik aloqalarni yanada kengaytirish.

- yaqin qo'shni davlatlar, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan do'stlik, birodarlik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch asosidagi hamkorlik

⁹⁰ Fella, Paauw D. Analysis of the Open Dualistic Economy. An Application to the Philippine.-Washington, 1996.P.46

⁹¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. -Б.333.

aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan normalar O'zbekistonning taraqqiyot tamoyilida va O'zbekiston-2030 strategiyasida mustahkamlangan.

Bu omillar O'zbekiston Respublikasining 2030- yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasining asosini tashkil etadi. Bu strategiya mamlakatimizni jadal rivojlanishga xizmat qiladi.

I Bob yuzasidan xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu tendensiyalar ilmiy-nazariy asoslarga tayanadi va mamlakatning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang tarzda amalga oshirilmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlari — bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining global tashabbusi bo'lib, u dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ekologik vaziyatni yaxshilash, insonlarning turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu chaqiriq 17 maqsaddan iborat bo'lib 2030- yilgacha barcha maqsad va tegishli vazifalar bajarilishini ko'zda tutadi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar ushbu maqsadlarni o'zining milliy mentalitetiga moslashtirishi, mavjud vazifalarni milliy strategik hujjatlarda belgilashi kerak. Bu esa, Yangi O'zbekistonni barqaror rivojlanish tendensiyalari: milliy maqsad va vazifalarida o'z ifodasini topadi. Yangi O'zbekiston o'zining rivojlanish yo'lini tanlashda barqarorlik va taraqqiyotga yo'naltirilgan strategiyani tanlash natijasida:

birinchidan, inson kapitalini qo'llab-quvvatlash, ta'lim, tibbiyot sohalarini rivojlantirish, aholi turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida fuqarolarning islohotlarga nisbatan qoniqish va xayrixohlik hissini oshishida o'z aksini topmoqda.

ikkinchidan, aholining tanlov imkoniyatlari kengaymoqda. Sifatli ta'lim, malakali tez tibbiy yordam, adolatli mehnat sharoitlar, na'munali tarzda qurilgan

arzon uy-joylar, kuchli ijtimoiy himoya kabi xizmatlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

uchinchidan, jamiyatda xususiy sektor faoliyatini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat tizimini rivojlantirish hamda “yashil iqtisodiyot”ga o’tish orqali mamlakat barqarorlikka erishmoqda. Shu bilan birga, makro va mikroiktisodiy ko‘rsatkichlar jamiyatning turmush tarziga moslashmoqda.

to‘rtinchidan, “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan ezgu tamoyil asosida islohotlar olib borilmoqda. Bu esa, davlat manfaatlariga nisbatan xalq va inson manfaatlarining amalda o‘z isbotini topishi natijasida jamiyat a‘zolarida o‘z hayotini o‘zi farovon qila olishga ishonchi kuchaymoqda.

beshinchidan, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining asosiy yangilanishi, aholi turmush darajasining oshishi hamda ijtimoiy adolatni ta’minlash va barqaror jamiyatni shakllantirishga qaratilgan islohotlar mamlakatimizning barqaror rivojlanishi yo‘lida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu o‘zgarishlar mamlakatning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

II Bob. Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari va ularning ilmiy-nazariy asoslari

Annotatsiya: “Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari va ularning ilmiy-nazariy asoslari” deb nomlangan mazkur bobda Harakatlar strategiyasining umuminsoniy mohiyati, Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari tamoyilining inson qadr-qimmatini ta’minlashdagi o‘rni, Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari konsepsiyasining Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini mustahkamlashga oid ilmiy-nazariy g‘oyalar tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy ahamiyati, fuqarolarning islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg‘usi shakllanishi “Islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlariga xizmat qilishi” tamoyili barcha fuqoralarga dasturilamal vazifasini bajarayotganligiga oid ezgu g‘oyalar tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil metodi vositasida bayon qilingan.

2017- 2021 – yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va uning ustuvor yo‘nalishlarida inson qadri, huquq va imkoniyatlari, kuchli ijtimoiy himoya, xalq qabulxonalari “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ezgu g‘oya barqaror taraqqiyotning ijtimoiy ahamiyati falsafiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, aholiga ijtimoiy servis ko‘rsatish bo‘yicha qulayliklar yaratish, fuqarolarni eshitish, ular bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularning muammolarining bartaraf qilish, insonlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishini, o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli amalga oshirish sharoitlarini yaratilganligining ilmiy-nazariy asoslari taqdim etilgan.

Harakatlar strategiyasining umuminsoniy mohiyati, insonning o‘z hayotini boshqarish, maqsadlariga erishish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga asoslangan. Bu yerda insoniyat rivojlanish tarixi davomida shakllangan tamoyillar zamonaviy dunyoda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgani, demokratik islohotlar ko‘lamini chuqurlashtirish, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalar, “Elektron hukumat” kabi tizim faoliyatini takomillashtirish, nodavlat-notijorat tashkilotlarini jamiyatda rolini mustahkamlashga doir yo‘naltirilgan boshqaruv modelining tizimli tahlili berilgan.

2.1. Harakatlar strategiyasining umuminsoniy mohiyati

Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyingi davrida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish sari dadil odimlamoqda. Shu bois, xalqimiz inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida tan olingan jamiyatni, islohotlarning davr talablariga mos ravishda izchil, tizimli, barqaror rivojlanish tamoyillari asosida davom ettirish yo‘lini tanladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi shakliga o‘tildi.

Jamiyatda qabul qilinadigan qonunlarni hayotiyli, ustuvorligi, barchaning qonun oldida tengligi ta‘minlangan erkin demokratik tizim shakllantirildi. Darhaqiqat, jamiyatda qonun ustuvorlik tamoyilini qaror toptirish asnosida kishilik jamiyati ravnaq topadi va qonunlar qadriyatga aylanadi. Zotan, jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash natijasida mamlakat barqarorlikka erishadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf qilish va aholiga munosib turmush sharoitini ta‘minlash borasida 2017-yil 7-fevralda O‘zbekiston Prezidentining PF-4947-son farmoni bilan “2017—2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishlardan iborat Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyaning mohiyati, xalq bilan muloqot qilish, ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatida duch kelayotgan to‘siqlarni bartaraf qilish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirish, xavfsizlik va amaliy tashqi siyosatni olib boorish tashkil qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlar ko‘lamini yanada jadallashtirish va amaliy natijadorligini ta‘minlashga oid mazkur hujjatda qayd etilgan har bir maqsad va vazifalar shu zaminda istiqomad qilayotgan, ertangi kuniga qat‘iy ishonch bilan qarayotgan har bir inson hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmon prezident Shavkat Mirziyoyev hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-ma‘rifiy sohalaridagi kontseptual muammolarning echimi sifatida keng jamoatchilik vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar hamda xalq bilan muloqotlarida bildirgan fikr va mulohazalar inobatga olingani alohida ta‘kidlangan.

Harakatlar strategiyasining besh ustuvor yo‘nalishda amalga oshirilishi, shuningdek, 2017–2021-yillarga berilgan maxsus nomlar asosida har yili uni

bajarish bo'yicha Davlat dasturlarini qabul qilish va tasdiqlash strategiyani jamiyat hayotiga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, 2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinib, uning Davlat dasturida davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. "Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda"⁹². Buning zahirida xalqqa har tomonlama qulaylik yaratish, aholi bilan muloqot qilish, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish yanada takomillashtiriladi. Xususan, "mehnatga layoqati cheklangan 972 nafar nogiron ayolga kasanachilik bilan shug'ullanish uchun tikuv mashinalari olib berildi va ular uchun doimiy daromad manbai yaratildi. Shu toifaga mansub fuqorolarga 7 mingdan ortiq protez-ortopediya vositalari, 6 ming 500 dan ortiq nogironlik aravachalari, 1 ming 600 ga yaqin eshitish apparatlari bepul berildi"⁹³. Zero, odamlarda mulkchilik munosabatlari va mulkka egalik qilish tuyg'usi shakllandi.

Bir so'z bilan aytganda jamiyatda insonlarning sha'ni, qadr-qimmat, turmush tarzi, o'z salohiyatini erkin namoyon qilishi, huquq va imkoniyatlari kafolatlanganligi huquqiy demokratik jamiyat shakllantirildi. Shuningdek, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini optimallashtirish, qonunlarni qabul qilishda ularni hayotiylikni kuchaytirish, siyosiy partiya deputatlarini xalq bilan hokimyat o'rtasidagi mustahkam ko'priikka aslantirishga asos yaratadi. 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish uchun qulay shart-sharoit yaratishni ta'minlashdan iboratdir.

Harakatlar strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat va jamiyat boshqaruv tizimini rivojlantirish;

⁹² Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O'zbekiston, 2018. – B. 73.

⁹³ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2017-yil 7-dekabr, <https://constitution.uz>.

- qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish hamda ularning mustaqilligini mustahkamlash;
- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish;
- ijtimoiy sohani rivojlantirish;
- xavfsizlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda o'zaro manfaatli chuqur o'ylangan amaliy tashqi siyosat yuritish.

Eng avvalo harakat va strategiya so'zlarining mazmun-mohiyatini anglashimiz lozim. Xo'sh harakat nima ? Jamiyat barqarorligiga qanday ta'siri bor? "Harakat tushunchasi butun borliq va olamda, jumladan, kishilik jamiyatida ham yuz berayotgan barcha o'zgarish va jarayonlarni o'z ichiga oladi. Harakat, eng avvalo, har qanday o'zgarishdir. O'zgarish esa turli obyektlarning o'zaro ta'siri natijasidir"⁹⁴. Strategiya esa - bu uzoq muddatli maqsadga erishish uchun mo'ljallangan keng qamrovli reja yoki yo'l xaritasidir. Uning asosiy xususiyatlari:

- kelajakdagi aniq maqsadli holatga qaratilgan;
- uzoq muddatga mo'ljallangan;
- natijaviylik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan;
- resurslarni samarali taqsimlash kabilarni o'z ichiga oladi. Xulosa qilib aytganda strategiya – kelajakni shakllantirish va maqsadlaringizga erishish yo'lida sizga yo'nalish berish uchun muhimdir. Unga rejalashtirish, tahlil va ijodiy fikrlashning kombinatsiyasi kiradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz barqarorligini ta'minlashga oid barcha sohalarni rivojlantirishga Harakatlar strategiyasida alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, ijtimoiy himoya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, yo'l-transport logistikasi, axborot-kommunikatsiya kabi qator ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning olis hududlarida kommunal xizmat tizimini yaxshilash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini kuchaytirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

⁹⁴ Falsafa qomusiy lug'at. T.: O'zbekiston Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004.- B. 488.

Harakatlar strategiyasi, insonning o'z maqsadlariga erishish uchun tanlagan yo'llarini, qadamlarini va usullarini o'z ichiga oladi. Uning umuminsoniy mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. *Maqsadga yo'naltirilganlik*: Harakatlar strategiyasi har doim aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu maqsad shaxsiy, ijtimoiy yoki global miqyosda bo'lishi mumkin.

2. *Rejalashtirish*: Harakatlar strategiyasi rejalashtirishni talab qiladi. Bu rejalashtirish qisqa muddatli yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin, ammo har doim aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

3. *Moslashuvchanlik*: Harakatlar strategiyasi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, rejalashtirishda moslashuvchanlik va o'zgartirish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak.

4. *Jamoaviylik*: Ba'zi hollarda, harakatlar strategiyasi jamoaviy ravishda amalga oshiriladi. Bu jamoaviy ravishda ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash va maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilishni talab qiladi.

6. *O'z-o'zini baholash*: Harakatlar strategiyasi o'z-o'zini baholashni talab qiladi. Bu esa, strategiyani amalga oshirish jarayonida uning samaradorligi va muvaffaqiyat darajasi muntazam ravishda baholanib borilishi kerak.

Harakatlar strategiyasining umuminsoniy mohiyati, insonning o'z hayotini boshqarish, maqsadlariga erishish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga asoslangan. U insoniyatning rivojlanish tarixi davomida shakllangan va zamonaviy dunyoda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi asosiy qomusimizda ham qayd etilgan: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi"⁹⁵ degan normani mustahkamlanganligi jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi asosiy kuch inson ekanligining isbotidir. Shuningdek, davlat va jamiyat hayotida, shuningdek inson

⁹⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya. 2023-yil 30-aprel. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

taraqqiyotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi. Erkinlik, tenglik va birodarlik insoniyat tomonidan doim qadrlanib kelgan.

Insonning erkinligi, uning sha’ni va qadr-qimmatini jamiyatimizning eng oliy qadriyatlaridan biridir. 2017–2021-yillarda mamlakatimizni yanada rivojlantirish maqsadida Harakatlar strategiyasidagi belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi.

Natijada mamlakat barqaror taraqqiyotga erishdi. Endi ana shu qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy sivilizatsiya talablari, XXI asrda inson va insoniyat taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan global muammolardan kelib chiqqan holda rivojlantirishga oid bir qator me’yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli qarori bilan “2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” tasdiqlandi. Ushbu qarorda mamlakatimizda barqarorlikni ta’minlash va rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish hamda 2030-yil oralig‘ida maqsad va vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Xalqimizning o‘ziga xos jihati shundaki, u adolatga, murosaga, ochiqko‘ngillik va samimiy munosabatga moyil xalqdir. U faol va ongli boshqarish orqali yangidan yangi imkoniyatlarni namoyon qila oladigan, o‘zining yuksak ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy-ruhiy va intellektual salohiyatini ko‘rsata oladigan bunyodkor xalq. Ayni ana shu kayfiyat, xalq fe’l-atvori, milliy ruhiyat ochiq jamiyat qurilayotganini, xalq bilan davlat o‘rtasidagi munosabatning sog‘lom va o‘zaro ishonchli, aniq maqsad va umummilliy manfaat asosida qurilayotganligini katta mamnuniyat bilan qabul qilinmoqda. Ana shu ma’naviy-ruhiy vaziyat tobora chuqurlashib borayotgani sayin jamiyatda ulkan taraqqiyotga, sifat jihatdan yangilanishlarga va O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga qodir bo‘lgan butunlay yangi, zamonaviy ruhiyatni shakllantirmoqda.

***O‘zbekiston xalqaro reytinglar indekslaridagi ko‘rsatkichlari*⁹⁶**

⁹⁶ Muallif: “Taraqqiyot strategiyasi” tahliliy ma’lumotlari asosida tayyorlangan

Umumiy ko‘rsatkichlar	2016- yil	12,5 ball	
	2017 –yil	17,6 ball	
	2018 –yil	19,3 ball	
	2019-yil	62,9 ball	

Harakatlar strategiyasida belgilangan beshta ustuvor yo‘nalish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy tomonidan rivojlantirishga qaratilgan edi. Bu ustuvor yo‘nalishlarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

Birinchidan, davlat va jamiyat tizimini takomillashtirish doirasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyot sohalarini modernizatsiya qilish, qonun chiqaruvchi organlar faoliyatini kuchaytirish, davlat boshqaruvini raqamlashtirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, xujjatlar bilan ishlashda insonlar emas, hujjatlar aylanadi tamoyili asosida shaffof boshqaruv modeli joriy etildi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish borasida quyidagi ma’muriy islohotlar ham amalga oshirildi. Bular:

- 110 ta samarasiz faoliyat ko‘rsatayotgan idoralararo organlar faoliyati tugatildi;
- 10 ta yangi vazirlik va idoralar tuzilib, 6 ta davlat funksiyasi xususiy sektorga o‘tkazildi;
- 2017-yildan boshlab O‘zbekistonda Xalq qabulxonalari va Prezidentning Virtual qabulxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi;
- 2017-yildan 2020-yilgacha ular orqali 10,1 mln. murojaatlar o‘rganilib ijobiy hal etilgan;
- byurokratiyaga qarshi kurashish natijasida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar soni 2 barobarga (167 dan 79 gacha) qisqartirildi;

-4 yil ichida “Yagona darcha” tamoyili asosida taqdim etiladigan xizmatlar soni 10 barobarga (16 dan 157 gacha) oshdi⁹⁷.

Islohotlarning natijadorligini ta'minlash maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qonun qabul qilindi. Bu kabi islohotlar natijasida “...shu yilning 9 oyida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar o'tgan yilga nisbatan 33 foizga kamaydi. Biz bunday natijalarni korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi uzoq va davomli faoliyatimizning dastlabki samarasi”⁹⁸ dir. Davlat va jamiyat tizimini boshqarishda, demokratik prinsiplarni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari muhim ahamiyatga ega. Chunki, ommaviy axborot vositalarining faoliyati barqarorlik va shaffoflikni ta'minlashga, davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlashga zamin yaratadi. Zero, jamiyatdagi muammolarni yuqori tashkilotlarga yetkazish va yechimini topishda ularning xizmati katta. Binobarin, ular aholi va yuqori tashkilotlar orasida o'ziga xos tarzda ko'prik vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, Qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimi faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid chora-tadbirlar yangi bosqichiga ko'tarildi. “Hamмамizga ma'lumki, shu vaqtgacha huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud idoralari ko'pincha odamlarni jazolashga yo'naltirilgan. Bu achchiq haqiqatdir. Shu munosabat bilan alohida ta'kidlashni istardim: huquq-tartibot organlari xodimlari aniq tushunsin – xalqimiz “tekshir-tekshir” yoki “dedi-dedi” kabi asoslanmagan ayblovlar bilan javobgarlikka tortilishdan charchagan”⁹⁹. Shuningdek, huquq-tartibot organlari faoliyatini takomillashtirish, odil sudlovni amalga oshirish, sudyalarni bilim, malaka, ko'nikmalarini oshirish, huquq sohaslarini liberallashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmini samarali yo'lga qo'yish kabi islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, sud-huquq sohasida xalqimizning azaliy qadriyatlari bo'lmish bag'rikenglik va kechirimli bo'lish tamoyilidan kelib chiqqan holda jinoiy javobgarlik va ma'muriy sohalarda tizimli ishlar olib






⁹⁷ Muallif: Taraqqiyot strategiyasi tahliliy ma'lumotlari asosida tayyorlangan

⁹⁸ Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O'zbekiston, 2018.- B.90.

⁹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017- yil 22 - dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

borilmoqda. Buning natijasida, jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanishiga poydevor yaratdi.

Sudlar tomonidan mahalliy hokimliklar qarorlarining haqiqiy emas deb topishga doir ko'rilgan ishlar¹⁰⁰

Haqiqiy deb topilmaganlari	218 ta 	770 ta 	1255 ta 	1597 ta 	3840 
Ko'rilgan ishlar soni	492 ta	1726 ta	2992 ta	3491 ta	8701 ta
	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	Jami

2017-2020-yillarda sudlarda tadbirkorlik sub'yektlarining foydasiga ko'rilgan ishlar

Summasi	918,0 mlrd.so'm 	1015,7 mlrd.so'm 	1330,1 mlrd.so'm 	1899,7 mlrd.so'm 	5163,5 mlrd.so'm 
Ko'rilgan ishlar soni	40960 ta	42478ta	31948 ta	29583 ta	144969 ta
	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	Jami

Bu bevosita sud hokimiyatini tubdan isloh qilish, uni xalq urf-odatlarini, an'analarini va turmush tarzi mantig'i bilan mutanosib holda takomillashtirishni taqozo etadi. Bu yo'nalishda qonunchilikni liberallashtirish borasida qo'yilgan muhim qadam sifatida Jinoyat kodeksida "tuhmat" va "haqorat qilish" moddalariga oid ozodlikdan mahrum qilish choralari besh yil ichida bekor qilinishi misol bo'la oladi.

Uchinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish maqsadida soliq va kredit tizimini soddalashtirish, tadbirkorlik va ishlab chiqarish sohalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy faoliyatda davlat ishtirokini kamaytirish, kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha amaliy ishlar olib borildi.

¹⁰⁰ Muallif: "Taraqqiyot strategiyasi" tahliliy ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Shu ma'noda davlatning iqtisodiy imkoniyatlardan zamonaviy innovatsion dasturlarini shakllantirish, investitsiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun esa, "O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak"¹⁰¹ bo'ladi. Kutiladigan natijada, mamlakatimizni dunyoning rivojlangan davlatlari safiga olib chiqishga imkon yaratadi. Ma'lumki, hozirgi vaqtda yurtimiz aholisi taxminan yarmi qishloq joylarda yashaydi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 28,8 foizdan oshmaydi, agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizdan kam. Rivojlangan davlatlarda esa bu ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'ladi. Shu sababli, qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va isloh qilish uchun kompleks dastur ishlab chiqish zarur. Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va genetik modifikatsiya qilingan mahsulotlar yetishtirilishining oldini olish bo'yicha qat'iy nazorat choralari alohida e'tiborga loyiqdir. "Kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil - bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi kerak. O'quv kurslarini tamomlab, o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar beriladi"¹⁰². Shundan kelib chiqqan holda, har bir tumanning sharsharoiti va imkoniyatidan kelib chiqqan holda dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik, kasanchilik bilan shug'ullanuvchi oilalarga imtiyozli kreditlar beriladi, qishloq joylarda esa 10 sotixdan 1 gektargacha bo'lgan yer maydonlari ajratiladi. "Dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalariga 300 milliard so'm imtiyozli kredit va subsidiya ajratilgani ham qishloq aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda yangi yo'nalishga aylandi"¹⁰³.

So'nggi yillarda mamlakatimiz bozorlarida import meva va sabzavotlar ko'payib borayotgani ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bunday vaziyatni oldini olish uchun avvalo qadimiy navlarni tiklash, mahsulotlarning intensivligiga amal qilish,

¹⁰¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017- yil 22 - dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

¹⁰² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 -yil 29-dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

¹⁰³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 -yil 29-dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

seleksiya ishlarini takomillashtirish, sohaga zamonaviy innovatsion ilmiy ishlanmalarni joriy qilish zarur. Iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy mohiyatidan kelib chiqib, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini uzluksiz modernizatsiya qilish choralarini ko‘rish zarur.

Jahonning bir qator rivojlangan mamlakatlarida ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha global tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ekologik ma‘lumotlar yordamida energiya, xomashyo va tabiiy resurslarni tejash, ekologik toza texnika va texnologiyalarni joriy etish boshlangan. Ilg‘or kapitalistik mamlakatlarda dunyo energiyasining 60 foizi iste‘mol qilinayotgan bo‘lsa, u yerda aholining atigi 20 foizi yashaydi. Shu mamlakatlar sayyoramiz tabiiy muhitining yarmiga yaqinini ifloslantirayotgan bo‘lsa-da, ekologik muammolarni bartaraf etish va musaffo ekologik jamiyat yaratishda yetakchilik qilmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejashda “ko‘kalamlashtirish” kabi ijtimoiy-demokratik harakatlar ham faol ishtirok etmoqda. Ekologik barqaror jamiyatni shakllantirish va jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi uyg‘un aloqalarni qayta tiklash zarur. Bu aloqalar oqilona tashkil etilmasa, ekologik tanglikning oldini olish qiyin bo‘ladi. U.D.Ursul “ekologik jarayonlarga oid aloqadorlikni jamiyatning intensiv-koevolyutsion holati, deb baholadi”¹⁰⁴.

To‘rtinchidan, ijtimoiy sohani rivojlantirish va samaradorligini oshirish masalasiga davlat siyosati darajasi sifatida qaralmoqda. Xususan, aholini ish bilan ta‘minlanganligi, moddiy tomondan qo‘llab-quvvatlanayotganligi, aholini ehtiyojiga qarab uy-joy bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor berilmoqda. Aholini ijtimoiy jihatdan kam ta‘minlangan qatlamini “Ijtimoiy reyestr”da ro‘yxatga olinib “temir daftar”dagi barcha ma‘lumotlar asosida 30 dan ziyod ijtimoiy xizmatlar aholining ehtiyojmand oilalariga elektron shaklda ko‘rsatiladi. Bunda birinchi navbatda, aholining asosiy ijtimoiy ehtiyojmand kambag‘al toifalarini kafolatli

¹⁰⁴ Урсул У.Д. На пути к информационно -экологическому обществу . Философские науки , 1991, № 5 , 6 – bet

tarzda ta'minlashimiz lozim. Shuningdek, "Temir daftar"ga kiritilgan aholi qatlamini ilmiy, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish orqali kambag'allikdan chiqarish mexanizmini yaratish, ularga jamiyatning faol a'zosi toifasiga kiritish. Bu islohotlarni hayotiyli va samaradorligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari vakillari jurnalist va blogerlarning faoliyatini yanada rivojlantirishdan eng avvalo, jamiyat manfaatdordir.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishning dastlabki davrida ommaviy axborot vositalari tizimini qo'llab-quvvatlash, aholini axborotlardan erkin foydalanish imkoniyatlarini oshirish hamda davlat idoralarida axborot xizmatlarini samarali yo'lga qo'yish maqsadida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashkil etilgan edi. Ana shu umuminsoniy qadriyat va ehtiyoj Harakatlar Strategiyasining asosi qilib olinganligi O'zbekistonda insonparvar davlat siyosatining chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan ezgu g'oya ta'lim tizimini rivojlanishiga poydevordir bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun:

Birinchidan, barkamol avlodni tarbiyalashda birinchi navbatda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy bilim hamda kasb-hunar ko'nikmalarini egallashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, ularni jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk, sog'lom, milliy qadriyatlarga sodiq hamda vatanparvar shaxslar sifatida tarbiyalashga barcha resurs va kuchlarni safarbar etish zarur.

Ikkinchidan, yosh avlodni mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, olgan nazariy bilimni amaliyotda qo'llay oladigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan yetuk shaxs etib tarbiyalashimiz kerak.

Uchinchidan, o'g'il-qizlarimizni bugungi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda biznes akselerator, freelanserlik va yaratuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratish davlat va jamiyatning muhim funksiyalaridan biri sifatida qaralmog'i lozim.

Qisqacha aytganda, farzandning tug'ilishi bilan 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va hayotda o'z o'rnini topishiga yordam beradigan tizimni tashkil etish.

To'rtinchidan, har qanday xalq, har qanday jamiyat tinch-totuv yashashdan, barqarorlikdan manfaatdor. Bu asriy qoida XXI asrda umumdunyoviy masalalar tobora chigallashib borayotgan bir paytda dolzarblik kasb etmoqda. Hozirgi davrning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ilmiy va texnik yutuqlar inson hayotining barcha sohalariga tezkor kirib, turmushning turli jabhalarini global darajada bog'layotgan bo'lsa-da, bu jarayon insoniyat uchun jiddiy xavf va tahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Har bir insonning taqdiri va baxti, shuningdek butun insoniyatning kelajagi, ayniqsa, yer yuzida tinchlikni saqlash, yadroviy urushning oldini olish, qurollanish raqobatiga chek qo'yish va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, dunyoda tinchlikni saqlash zamonamizning eng dolzarb va muhim masalalaridan hisoblanadi.

“XX asming saksoninchi yillarida qurollanish poygasining avj olib ketishi natijasida sayyoramizda yashovchi kishi boshiga 3,5 tonnaga yaqin portlovchi modda to'g'ri keldi. Yadro qurollari va ulami tashuvchi turli moslamalar soni o'zining eng baland cho'qqisiga ko'tarildi. AQSh va sobiq Ittifoq hududidagi yadro qurollarining talofat kuchi 60 ming megatonnani tashkil etdi. Dunyoda insoniyat boshiga eng katta ofat olib kelgan, yer yuzida 100 milliondan ortiq inson umriga zomin bo'lgan ikkinchi jahon urushi yillarida barcha portlovchi qurollarning umumiy quvati 6 megatonnani tashkil etganligini e'tiborga olsak, hozirgi sharoitda to'plangan yadro qurollarining dahshati naqadar xavfli ekanligini tasavvur etish mumkin”¹⁰⁵. Insonning taqdiri butun insoniyat kelajagi bilan chambarchas bog'liq ekani xalq ongida chuqur ildiz otgan. Shu bois, odamlar nafaqat mintaqadagi chegaradosh davlatlar bilan, balki boshqa mamlakatlar bilan ham o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishga intilib kelishgan.

¹⁰⁵ To'lenov J .T . Hayot falsafasi. -Toshkent., 1993. -B .154-155.

Har bir insonning baxtli yashashi davlat va jamiyatning umumiy farovonligiga bogʻliqdir. Chunki, tinchlik, totuvlik, inson huquqlari taʼminlangan davlatda insonlar chinakam farovonlikka erishadi. Jamiyat biologik omillar orqali insonni toʻla kamolga yetkazishda cheklangan imkoniyatga ega, lekin ijtimoiy muhit yordamida uning barqarorligini taʼminlash orqali bunga erishish mumkin. Shu nuqtai nazardan, bugungi globallashtirilgan davrda muammolarni hal qilish, davlatlar oʻrtasida oʻzaro savdo aloqalarini yoʻlga qoʻyish, ijtimoiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi rivojlangan davr jarayonlari ikki tomonlama tavsiflanadi: bir tomondan hudud, makon nuqtai nazardan davlatlar oʻrtasida baʼzi ziddiyatli holatlar saqlanib qolmoqda. Masalan: Rossiya va Ukraina, Isroil va Falastin v/b.

Ikkinchi tomondan: jahomhamjamiyati mamlakatlari umumiy madaniyat, umumiy maqsad yoʻlida turli xalqlarning ijtimoiy hayoti va turmush tarzidagi oʻzaro bogʻliqligi kuchayib global tus olmoqda. Shu tarzidagi qarama-qarshiliklar natijasida ziddiyatli, ammo bir-biriga bogʻliq, koʻp jihatdan yagona dunyo shakllanib bormoqda.

Shu bilan birga, barcha xalqlar uchun munosib va chinakam insoniy turmush sharoitlarini yaratish, sayyoramizdagi mavjud holatni saqlash, uning boyliklarini asl holatida, xususan eng katta boylik — inson ekanligiga uning imkoniyatlariga eʼtibor qaratish davrimizning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

“Hozirgi paytda insoniyat oldida shunday dolzarb, oʻtkir muammolar turibdiki, ularni hal etish uchun dunyodagi koʻpchilik mamlakatlar va xalqlarning kuch va imkoniyatlarini safarbar etishga toʻgʻri keladi, mamlakatlarimiz xalqlari hayotining hozirgi holati va kelajagi uchun masʼuliyatni his etgan holda, biz teng huquqli hamkorlik, yaxshi qoʻshnichilik va oʻzaro hurmat davlatlarimizning bir-biriga oʻzaro munosabatida asosiy tamoyillar boʻlib qolishi muhim. Mazkur mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlar tarixiy, madaniy taraqqiyotining mushtarakligi bilan birlashgandir, ularni anʼanalar va maʼnaviy qadriyatlar jipslashtirib turadi. Ular har doim oʻzaro hurmat, tinch-totuvlik va yaxshi

qo‘shnichilik ruhida birgalikda yashab kelishgan”¹⁰⁶. Afg‘on muammosini hal etishga qaratilgan global sa’y-harakatlarga Toshkent Xalqaro konferensiyasi ham mustahkam poydevor yaratdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog‘laydigan Trans-Afg‘on transport yo‘lagini barpo etish bo‘yicha dastlabki amaliy ishlar boshlandi. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi butun mintaqada barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘rishga katta hissa qo‘shadi. BMT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish doimo e’tiborimiz markazida turadi.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar va jahon hamjamiyati bilan birga Orol dengizi halokati natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni yumshatishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom ettiramiz. “Barqarorlik, tinchlik, totuvlik - bular davlatchiligimizning yangi binosi barpo qilinadigan poydevordir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga olib boradigan yo‘ldir. Tinchlik va barqarorlik bular xalqaro hamjamiyat bilan birlashtiruvchi vositadir. Insonparvarlik, yaxshilik, sofdillik singari umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilgan va birgalikda baham ko‘rgan mamlakatgina, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo‘lishi, jahon hamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin. Faqat ular bilan teng huquqli, o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatilishi mumkin”¹⁰⁷.

Orol dengizining qurigan tubida yuz minglab gektar o‘rmon va butazorlar barpo etilishi hamda Orolbo‘yi hududlarida olib borilayotgan keng ko‘lamli qurilish va obodonchilik ishlari xalqimizni ulkan yutuqlarga intilishga ilhomlantirmoqda. Shu maqsadda, BMT bilan hamkorlik natijasida tashkil etilgan Orolbo‘yi mintaqasida inson xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ko‘p tomonlama Trast fondi faoliyatini yanada faollashtiramiz.

Jahonda diniy ekstremizm va aqidaparastlikning avj olayotgani, millatlararo totuvlikka rahna solishga harakat qilayotgan kuchlarning mavjudligi sharoitida O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik xalq fenomeniga, uning ma’naviy timsoliga, ruhiy qiyofasiga aylangani eng katta yutug‘imizdir. Endi uni

¹⁰⁶ J.Tulenov . Jamiyat falsafasi. T.: O‘zbekiston, 2001.- B. 84 .

¹⁰⁷ Karimov I.A. O ‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. - T .: O‘zbekiston, 1995.- B. 170-171.

asrash, rivojlantirish uchun har bir fuqaro qalbida mafkuraviy immunitetni, ma'naviy-ma'rifiy darajasini oshirish orqali o'zini o'zi himoya qilish instiktni kuchaytirishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosati o'zaro manfaatli, chuqur o'ylangan, har qanday davlat suverenitetini hurmat qilgan holda, teng huquqli sog'lom munosabatlarni chuqurlashtirishdan iborat. Bu O'zbekiston davlatining har jihatdan siyosiy sog'lom va insonparvar g'oyalar asosida qurilganidan dalolat beradi. Harakatlar Strategiyasi ana shu qadriyatlarni yangi tarixiy sharoitlardan taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarishga xizmat qilganligidan dalolat beradi. Xalqimiz uchun barqarorlik, tinchlik va millatlararo totuvlik buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyat hisoblanadi. Ularni asrab-avaylash va mustahkamlashga intilish millatlarimizning ajralmas fazilati bo'lib, bugungi kunda ham davom etmoqda. O'zbekiston aholisi tinchlik, totuvlik, do'stlik va o'zaro hamkorlikni qadrlashni chuqur qabul qilgan. Shu bois mamlakatimiz jahonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, tinchliksevar davlatlar bilan har tomonlama hamkorlik qilish va taraqqiyot yo'lini tanlash orqali obro' va e'tiborini oshirib bormoqda. Barqarorlik, tinchlik va totuvlik – davlatimizning mustahkam poydevori bo'lib, kelajak avlodimizga yetkaziladigan yo'lning asosini tashkil etadi.

Mintaqaviy qadriyatlar tarixiy, iqtisodiy, madaniy, urf-odat, qadriyat an'analari bir-biriga bog'liq bo'lgan xalqlar milliy manfaatlariga xizmat qiluvchi tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuidir. Xususan, mintaqamiz hududida yashovchi o'zbek, tojik, qozoq, turkman, qirg'iz xalqlarining o'zaro bir-biriga yaqin bo'lgan qadriyatlarni keltirish mumkin. Qadimgi Turon zaminida shakllangan xalqlarning tarixi, tili, madaniyati, dini, urf-odat va an'analarida ko'plab o'xshashliklarga ega. Ular tarixan bir-birlariga yaqin bo'lib, hozirda ham totuv va hamjihat hayot kechirmoqdalar. Shu xalqlarning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqalari qadim zamonlarga borib taqaladi. Bugungi murakkab va mas'uliyatli davrda esa ular aql, zakovat, shijoat, dunyoviy salohiyat va milliy g'urur talab qiladigan pallada bir-biriga yanada yaqin va mehr-oqibatli bo'lishi lozimligi hayot sharoitlari bilan belgilanmoqda.

Demak, O'zbekistonda yangilanishlar strategiyasining zamon talablariga mos va uzoqni ko'zlagan, aniq maqsadlarga tayangan taraqqiyot davri boshlandi.

Harakatlar strategiyasining to'liq amalga oshirilishi quyidagi natijalarni berdi:

- kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat shakllantirildi, aholi turmush darajasi va hayot sifati yaxshilandi;

- samarali ishlamagan yoki eskirgan tashkilotlar va ta'lim muassasalari zamonaviy texnika va uskunalar bilan jihozlanib, ularning faoliyati sezilarli darajada faollashdi.

- tadbirkorlik faoliyati odamlar orzusidagi ishdan, real hayot tarziga, yalpi ijtimoiy harakatga aylandi;

- soliq to'lovchilarning umumiy miqdori oshdi, demakki, ish bilan band aholi hissasi keskin ko'paydi;

- davlatning eksport salohiyati keskin ko'tarildi;

- davlat aholiga samarali va to'liq xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'ydi;

- barcha sohalar mustaqil emas, balki o'zaro muvofiqlikda faoliyat yurita boshladi;

- 2021-yilga kelib, yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat mahsulotlari va xizmatlarning ulushi sezilarli darajada oshdi.- odamlarda mas'uliyatlilik, hamjihatlik, mehr-oqibatlilik fazilatlarini milliy mentalitetning uzviy jihatiga aylandi;

- bandlikni ta'minlash muammosi umumjamiyat miqyosida hal etila boshladi;

- uy-joyga ehtiyojmand oilalarning muammolari tizimli ravishda hal qilish mexanizmi shakllandi;

- jamiyatda to'g'rilik, halollik, adolatlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik haqiqiy qadriyatlarga aylandi;

- vatanparvarlik ma'naviy siyosatning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi;

- milliy ma'naviy o'zlikka egalik uchun kurash yalpi ijtimoiy harakatga aylandi.

Aytish mumkinki, Prezident Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni rivojlantirish istiqbollari o'ld besh ustuvor yo'nalishdan iborat Harakatlar strategiyasi yaqin 25

yil davomida to'plangan tarixiy tajribalarni tahlil qilib, xato va kamchiliklardan xulosalar chiqarish bilan birga, hozirgi dolzarb masalalarni hisobga oldi va keyingi besh hamda undan ortiq yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning yangi tarixiy taraqqiyot bosqichini belgilab berdi. Shu bilan u butunlay yangi davrni, mamlakat tarixida yangi sahifani ochdi.

2.2. Harakatlar strategiyadan -Taraqqiyot strategiyasi sari tamoyilining inson qadr-qimmatini ta'minlashdagi o'рни.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita, inson, uning huquq va imkoniyatlari kafolatiga, forovon turmushini ta'minlashga oid ezgu g'oyalarga qaratilmoqda. Ushbu g'oyalar asosida mamlakat barqarorligini ta'minlash "Davlat – inson manfaatlari uchun" tamoyili negizida shakllantirilmoqda. "Mazkur tamoyilga amal qilish esa, insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirish lozimligidan dalolat beradi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillariga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson manfaatlari, haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganining e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda"¹⁰⁸. Tarixdan bizga ma'lumki, inson huquqlari, qadr-qimmati to'g'risidagi tushunchalarning vujudga kelishi va takomillashishiga jahondagi tamaddunlar, madaniyat va diniy qarashlar ta'sirida vujudga kelgan. Xususan, O'rta Osiyo hududida yaratilgan dastlabki yozma yodgorlik bo'lmish "Avesto"da inson qadri, huquq va burchlari, erkinliklari, boshqa millat vakillariga hurmat kabi axloqiy tushunchalar muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, odamlar o'rtasida o'zaro ishonch tamoyillari orqali jamiyatda adolatsizlik va zo'ravonlikka qarshi kurashgan.

Shuningdek, XII asrda yashagan Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida insonning haq-huquqlari, inson qadri, qonun ustuvorligi, qarindoshlar o'rtasida silai rahm to'g'risidagi g'oyalar asosiy o'rinni egallagan. Ana shu ezgu qadriyatlarimiz bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu kabi, inson

¹⁰⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.67.

huquqlarini kafolatlash, aholi turmush darajasini ta'minlashga oid ezgu ishlar bugungi Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohandir. "Bir so'z bilan aytganda, inson qadrini ulug'lashga qaratilgan sharqona falsafa va g'oyalar bugungi kunda ham o'zining nazariy va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan"¹⁰⁹. 2017-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida yurtimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, insonning huquq va imkoniyatlarini kafolatlash, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni takomillashtirish, sog'lini saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, adabiyot, san'at hamda sport sohalarini rivojlantirish, davlat suverenitetini mustahkamlash, xavfsizlik, xalqaro hamkorlik aloqalarini samarali yo'lga qo'yishga oid islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini amaliyotga tadbqiq uchun 2017-2021-yillar mobaynida mamlakatimizda 300 ga yaqin qonun va 4 mingdan ziyod qonun osti hujjatlar qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatlar qabul qilinishi natijasida quyidagi natijalar kuzatildi:

- inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash, xalq oldida davlat organlarining hisobdorligini oshirish, jamoatchilik nazoratini takomillashtirish hamda ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi;

- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, soliq, kredit hamda moliya siyosati liberallashtirildi, tadbirkorlik faoliyati qo'llab-quvvatlandi, mulk daxlsizligi kafolatlandi, qishloq xo'jaligida eksportbop mahsulotlarni yetishtirish va qayta ishlash samaradorligi yo'lga qo'yildi;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining turmush sharoiti yaxshilandi, kambag'allikni kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, sifatli tibbiy xizmat va malakali ta'lim olish imkoniyatlari kengaytirildi.

¹⁰⁹ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: O'zbekiston, 2024. –Б.46.

- so‘nggi besh yil ichida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar Yangi O‘zbekistonning poydevorini mustahkamlash, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda ilmiy-ma‘rifiy asoslarini yaratishda amaliy natija berdi.

-mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar xalqimizning turmush sharoitini yaxshilashga, inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga uning jamiyat tashabbuskorligi yo‘lida faolligini oshishiga xizmat qiladi. Mazkur islohotlar amaliy natijadorligini ta‘minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” ezgu tamoyilidan kelib chiqqan holda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

2022-yil 28-yanvarda PF-60-sonli Taraqqiyot strategiyasiga imzolandi. Taraqqiyot strategiyasining 7 ta ustuvor yo‘nalishi va undagi 100 maqsad asosida islohotlar olib borilishi jamiyatda inson qadr-qimmatini oshirishga, farovon turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar amalda o‘z natijasini bermoqda. Bugun “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” ezgu g‘oyasi asosida Yangi O‘zbekiston barpo etilmoqda. Ushbu islohotlarning tashabbuskori bo‘lgan Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan bu ezgu maqsad yo‘lida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyilidan kelib chiqqan holda aholi farovon turmushini oshirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlash, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida taraqqiyot strategiyasini xalqparvar qadriyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish belgilangan edi. Bu loyiha sifatida 2021-yilning 31-dekabrda 2022-yilning 15-yanvar kuniga qadar 2022–2026.strategy.uz, jamoatchilik.uz va regulation.gov.uz elektron platformasiga keng jamoatchilik va ekspertlar fikrini bilish uchun joylashtirildi.

Avvalo shuni ta‘kidlash joizki, Taraqqiyot strategiyasining loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning saylovoldi dasturlari, Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida bayon

qilingan maqsad va vazifalar joy olgan. Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasiga keng jamoatchilik, ekspertlar va yuzdan ortiq vazirlik, idora, tashkilot va hokimliklar tomonidan kelib tushgan takliflar ham o'z aksini topdi. Natijada, inson qadr-qimmati ta'minlanadigan, qonun ustuvorligini mustahkamlanadigan, ma'naviy va ma'rifiy hamda tashqi siyosatda amaliy islohotlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar o'zida mujassam etgan Taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi.

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi¹¹⁰

<i>t/r</i>	<i>Yo'nalishlar</i>	<i>Maqsadlar</i>
1	Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish	<i>1-12-maqsadlar</i>
2	Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish	<i>13-20-maqsadlar</i>
3	Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash	<i>21-36-maqsadlar</i>
4	Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish	<i>37-70-maqsadlar</i>
5	Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish	<i>71-78-maqsadlar</i>
6	Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish	<i>79-88-maqsadlar</i>
7	Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.	<i>89-100-maqsadlar</i>

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlari ustuvor bo'lgan jamiyat barpo etish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangiliklar aholining siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksalishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, aholining siyosiy ongi va

¹¹⁰ 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi PF-60 son farmon. 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

siyosiy tafakkur darajasi yuksalgan sari davlat va jamiyat boshqaruvida erkin ishtirok etish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa, jamiyat barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlari ilg'or tajribalarini o'rgangan holda "Davlat organlari-xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi" degan demokratik tamoyil muhim ahamiyat kasb etadi. Shunindek, mazkur tamoyil rivojlangan davlatlarning bugungi taraqqiyot bosqichidagi tajribalari bilan bizning asriy qadriyatlarimizning o'ziga xos ifodasi tarzida namoyon bo'lmoqda.

"Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi"ga o'tish jarayonida quyidagi asosiy o'zgarishlar kuzatilmoqda:

Birinchidan, "Harakatlar strategiyasi"da e'tibor asosan ichki islohotlarga, ya'ni qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy himoya, ma'muriy boshqaruv, sud-huquq sohasi, ta'lim, tibbiyot kabi sohalarga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, "Elektron hukumat", "Raqamli iqtisodiyot", "Jamoatchilik nazorati", "Xalq qabulxonalari"ga oid normativ hujjatlar qabul qilinganligi inson huquqlari oliy qadriyat darajasiga ko'tarilganligidan dalolatdir. Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"dagi maqsad va yo'nalishlarning amalga oshirish qamrovi kengaytirilib xalqaro miqyosida hamkorlik aloqalri amalga oshirilmoqda. Strategik maqsadlar doirasi kengayib, mamlakat rivojlanishining barcha asosiy jihatlarini qamrab oladi.

Ikkinchidan, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini modernizatsiya qilish jarayonlari "Harakatlar strategiyasi" doirasida amalga oshirilgan bo'lsa, "Taraqqiyot strategiyasi" butun davlatning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bilan birgalikda xalqaro hamkorlik aloqalarini kompleks tarzda amalga oshirishni qamrab oladi. Shu bilan birga taraqqiyot strategiya milliy taraqqiyotni rivojlantirish, ochiq, pragmatik tashqi siyosatni olib borish kabi maqsadlarni belgilaydi. Innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya va ilmiy-texnik taraqqiyot esa strategiyaning muhim ustun omillari sifatida xizmat qiladi.

Uchinchidan, "Harakatlar strategiyasi"da xalqaro hamkorlik masalalari nisbatan cheklangan bo'lgan bo'lsa, "Taraqqiyot strategiyasi"da ular alohida

yoʻnalish sifatida maqsad va ustuvor vazifalar sifatida qayd etiladi. Zero, mamlakat xavfsizligi va barqaror rivojlanishini taʼminlashda xalqaro hamkorlik, mintaqaviy integratsiya va globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etish muhim oʻrin egallaydi.

Toʻrtinchidan, “Harakatlar strategiyasi” doirasida mamlakatning xalqaro nufuzi va obroʻsi sezilarli darajada ortdi. “Taraqqiyot strategiyasi” esa Oʻzbekistonni mintaqaviy va jahon miqyosida yetakchi davlatlardan biriga aylantirishni koʻzda tutadi. Bu esa, Yangi Oʻzbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi” mamlakatning yangi rivojlanish bosqichida uning strategik maqsadlarini yanada kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

Jamiyat taraqqiyoti bevosita aholining islohotlarga befarq emasligida, ularda daxldorlik tuygʻusi shakllanganligiga bogʻliq jarayondir. Daxldorlik tuygʻusining muhim omillaridan biri bu - jamoatchilik nazorati hisoblanadi. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini jamiyatga tatbiq etishda avvalo ommaviy axborot vositalari hamda fuqorolik jamiyati institutlarini rolini kuchaytirishni taqozo etadi. “Bizning bosh maqsadimiz-yurtimizda xalq hokimyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilishdan iborat”¹¹¹. Huquq ustuvorligi taʼminlangan jamiyatning muhim omillardan biri — xalqning maqsad va manfaatlari, xohish-istaklari hamda huquqlari va manfaatlarini inobatga olgan holda davlat va jamiyat boshqaruv tizimini yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, xalqning murojaatlarini eshitish, ularni amaliy jihatdan hal etish natijasida jamiyat barqaror taraqqiyotga erishishiga xizmat qiladi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar provardida “Fuqorolar emas, hujjatlar aylanadi” tamoyili amaliyotga tadbiq qilindi. Shu bilan birga, xalqimizning muammolarini bartaraf qilish, “davlat-fuqaro” munosabatlarida qulay shart-sharoit yaratish va adolatli shaffof tizim yaratilganligidan dalolatdir.

Davlat va jamiyat boshqaruv idoralari xodimlarining asosiy vazifasi aholiga xizmat koʻrsatish va ularni rozi qilish faoliyatining mezonidir. Shu nuqtai nazardan aholining ehtiyoj va muammolarini hududlar kesimida oʻrganish va ularga shart-

¹¹¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: Оʻzbekiston, 2021. –Б.82.

sharoitlar yaratish, ijtimoiy xizmatlar faoliyatini yaxshilash, aholiga qulaylik yaratish kerak.

Aholining uzog'ini yaqin qilish, ortiqcha qog'ozbozlikdan voz kechish, davlat xizmatlari uchun to'lanadigan to'lovlarning qiymatini kamaytirish, qog'oz hujjatlarini axborot texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda raqamlashtirishga alohida e'tibor berish natijasida Yangi O'zbekiston zamonaviy innovatsion texnologiyalarga asoslangan davlatga aylanadi.

Bizga ma'lumki, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy rivojlanishining asosiy sharti adolat va qonun ustuvorligi hisoblanadi. Shu jihatdan 2022-yil 28 –yanvarda qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasining ikkinchi ustuvor yo'lanishining 13-20-maqсадlari bevosita adolat va qonun ustuvorligiga qaratilgan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda quyidagi jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

- jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda inson va ularning kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyi, tili, dini, millatidan qat'i nazar barcha uchun birdek bo'lishini ta'minlash lozim. Bu esa, asosiy qomusimizda "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar"¹¹² degan qoida mustahkamlangan. Shu nuqtai nazardan:

- qonunning yagona manbai va ijodkori xalq bo'lishi lozim;
- qonunchilik tizimi adolatli, xalqchil, demokratik tamoyillarga asoslangan bo'lishi zarur;

- jamiyatda sud-huquq tizimining adolatli bo'lishi huquqiy davlatning muhim shartidir. Sudlar faqatgina qonunga bo'ysunishi, boshqa tashqi ta'sirlardan xoli bo'lgan holda faoliyat yuritishi kerak;

- inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning ustuvorligini tan olish va samarali himoya qiluvchi tizim yaratish shart.davlat hokimiyati organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash. Hokimiyat idoralarining xalqaro standartlarga

¹¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: O'zbekiston, 2023.- B. 9.

mos keladigan ochiq va javobgarlik tamoyillari asosida ishlashi zarur. Buning uchun “barcha bo‘g‘indagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining xalq oldidagi javobgarligi aniq belgilanib, fuqorolarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda ular tomonidan sansolorlik, ma’suliyatsizlik va befarq munosabatda bo‘lish holarlariga barham beriladi”¹¹³. Bunda, aholining muammolarini eshitmagan va uni ishonchini oqlamagan rahbarlarning faoliyatini qonuniy asosda baholash mexanizmlari takomillashadi. Bu borada islohotlarning hayotiyligini ta’minlashda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda davlat boshqaruv faoliyati ustidan nazorat qilish mexanizmi yaratiladi. Buning uchun davlatimizda to‘laonli huquqiy asoslar bor. Xususan, “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi”¹¹⁴ degan qoida konstitusiyamizda ko‘rsatilgan.

Yuqorida qonun ustuvorligini ta’minlashga oid sanab o‘tilgan tamoyillarni amalga oshirish natijasida mamlakat taraqqiyotining turli sohalarida barqaror taraqqiyotga erishiladi.

“Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi” sari tamoyilining muhim tarkibiy qismlaridan biri iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashdir. Buning uchun avvalo sanoat ishlab chiqarish sohalarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan jihozlash, xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish, infratuzilma, transport logistika tizimlarini rivojlantirish, raqobatbardosh eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish muhimdir. “Harakatlar strategiyasining natijasi o‘laroq, Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining huquqiy asoslari yaratildi. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, avvalo, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga

¹¹³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б.85.

¹¹⁴ О‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Т.: О‘zbekiston, 2023. –Б. 40.

qaratilganini ta'kidlash lozim"¹¹⁵. Chunki iqtisodiy barqarorlik — jamiyatning mustahkam asosidir.

Kelgusi besh yillikda, Taraqqiyot strategiyasi doirasida iqtisodiyotning 5 foizi o'sishi, byudjet defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2 foizdan oshmasligi, narx-navoni 10 foizdan oshirmaslik choralarini ko'rish belgilangan. Natijada "2030-yilgacha yillik iqtisodiy o'sish 6,3-6,5 foizga, eksport esa, 9,0-10,0 foizga erishishni maqsad qilingan"¹¹⁶. Mamlakatimizda qonun ustuvorligini mustahkamlash, aholiga teng va adolatli mehnat sharoitlarini ta'minlash, inson huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, inson salohiyatini yuksaltirish bo'yicha amaliy tadbirlar qilinmoqda. Jumladan:

Ijtimoiy adolatni ta'minlash:

- inson salohiyatiga qarab daromadlarni adolatli taqsimlash mexanizmini takomillashtirish;

- pensiyalarni hisoblashda o'rtacha ish haqining maksimal chegarasini bazaviy pensiya miqdorining 10 barobaridan 12 barobarigacha ko'tarish.

- xotin-qizlar muammolarini hal etish bo'yicha "Ayollar daftari"ni yuritish tizimini yanada takomillashtirish;

- aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.

Ish o'rinlari yaratish va bandlikni ta'minlash:

- yangi ish o'rinlarini tashkil etish;

- aholining faol mehnat faoliyatini rag'batlantirish.

Sifatli ta'lim va tibbiyot xizmatlariga barcha uchun keng imkoniyat yaratish:

- ta'lim va tarbiya sohalarini rivojlantirish va ularning sifatini yaxshilash.

- kasbga o'qitish ko'lamini 2 barobarga oshirish, jami 1 mln nafar ishsiz fuqarolarni joriy yildan boshlab kasb-hunarga o'qitish ishlarini yo'lga qo'yish;

¹¹⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.129.

¹¹⁶ Muallif: "Taraqqiyot strategiyasi" tahliliy ma'lumotlari asosida tayyorlangan

- yangi maktablar qurish va xususiy maktablar sonini oshirish, shuningdek ta'lim sifati samaradorligini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda mavjudlarini takomillashtirish;

- xorijiy nufuzli universitetlarda bakalavriat, magistratura va doktorantura darajasida ta'lim olish uchun ochiq tanlovlarni tashkil etish;

- malakali tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- markazlashgan laboratoriyalar, sterilizatsiya va yuqori texnologiyali tekshiruvlar tizimini yaratish;

Inson kapitalini rivojlantirish:

- aholining sog'lom, bilimli va malakali bo'lishini ta'minlash;

- kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Demografik siyosatni yaxshilash:

- oila, ona va bolani qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

- yoshlarning yangi jamiyatga moslashishini ta'minlash.

Kambag'allikni kamaytirish va unga qarshi kurashishda:

- aholini ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash;

- aholining turmush farovonligini oshirishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish, adolatli ijtimoiy jamiyat qurish va inson kapitalini rivojlantirish mumkin. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy omillari bilan bir qatorda ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar dolzarb ahamiyatga ega.

Hammamiz bilamizki, jamiyatning tanasi iqtisodiyot, ruhiy va ma'naviyati esa uning jonidir, degan so'zlar bejizga aytilmagan. Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonni barpo etishda biz aynan shu ikki asosiy ustunga – mustahkam iqtisodiyot va boy ma'naviyatga tayanganmiz. "... ma'naviyat-insonlar o'tasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat-jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini

belgilaydigan poydevor...”¹¹⁷ qanchalik baquvvat bo‘lsa, davlat va jamiyat kelajagi shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Bugungi kunda yurtimizda inson baxtli va farovon yashaydigan, huquq hamda erkinliklari kafolatlangan jamiyat qurishga intilmoqdamiz. Bu sohada olib borilayotgan chora-tadbirlar davlat dasturlariga kiritilayotganligi mamlakatimizda ma’rifatli jamiyat qurishga zamin yaratmoqda. Biroq, ma’naviy sohalarda islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda dunyo miqiyosida turli tahdidlar ko‘zga tashlanmoqda. Shunigdek, bugungi globallashuv davrida turli axborot xurujlari ko‘lami ta’sirida milliy an’ana va qadriyatlarga qarshi tahdidlar kuchaymoqda.

Ommaviy madaniyat niqobi ostida egoizm, nihilizm, xudbinlik, oilaga, mehnatga, hayotga yengil qarash kabi illatlar turli yo‘llar bilan aholi turmush tarziga kirib kelmoqda. Natijada, boqimandalik kayfiyati, oilada ajrimlar, farzand tartibiyasidagi muammolar ko‘zga tashlanmoqda.

Odamlarning ongi va shurini egallash va ularning o‘z maqsadlariga ergashtirish uchun eng arzon qurol kuchi bu- axborot xurujlaridir. Axborot xurujlari nima va ular qanday namoyon bo‘ladi degan tabiiy savol tug‘iladi.

Axborot xurujlari - bu turli manbalardan tarqatiladigan ta’sirchang, salbiy yoki yolg‘on axborotlar orqali ommaviy ong va xulqni o‘zgartirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni buzish maqsadidagi maqsadli va tashkiliy ravishda amalga oshiriladigan jarayonlardir.

Axborot xurujlariga qarshi kurashish uchun axborot xavfsizligini ta’minlash, ularni aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish, ommaviy axborot vositalarida bunday holatlarning oldini olish uchun tartibga soluvchi qonunchilikni kuchaytirish lozim. Buning uchun aholining media- madaniyatini rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalarini oshirish, axborot tizimlarini kiberxavflardan himoya qilish choralari va mexanizmlarini qo‘llash, axborot tizimlarini boshqarish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali unga qarshi samarali

¹¹⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.167.

kurashish mumkin. Bu borada ma'naviy xurujlarga qarshi kurashishda fuqarolarni yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ta'lim-tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy hamda milliy-ma'rifiy yo'nalishlarni mustahkamlash, oila, mahalla va jamoatchilik institutlari orqali ma'naviy qadriyatlarni keng yoyish, madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy muassasalar faoliyatini yanada kuchaytirishga har qachongidan ko'ra zarurat tug'dirmoqda.

Bu kabi xatarlarni oldini olishda avvalo, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ko'lmni kengaytirish, jismonan baquvvat, ma'nan yetuk, yuksak intellektli qilishga oid chora-tadbirlarni kompleks amalga oshirish ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy tahdidlarga qarshi fuqorolarda immunitet hosil qilish uchun mediya savodxonlik, axborotni izlash, tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish zarur. Buning uchun mamlakatizmida huquqiy asoslar yaratilgan. Xususan, "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda tartibini ta'minlash, shuningdek, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining olidini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi"¹¹⁸.

XXI asr fan-texnika davrining eng yuqori bosqichi bo'lib, butun bashariyat ko'plab global muaommolar girdobiga duch kelmoqda. Ularni bartaraf etish masalasi bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada, mamlakatimizda ham mavjud bo'lgan bunday umumbashariy muammolarni yechishga har qachongidan

¹¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2023. –B. 23.

ko'ra zarurat ortmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda global muammolardan tashqari ichki muammolarni ham bartaraf qilish lozimdir.

Jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilayotgan bunday muammolarni bartaraf qilish uchun barchamiz kuch va imkoniyatlarimizni yagona maqsad sari safarbar etish, xususiy va umumiy manfaatlarni uyg'unlashtirishimiz kerak. Bu esa, kelajagimizga to'siq bo'ladigan global miqyosidagi muammolarni yechimlarini milliy va mintaqaviy darajada hal qilish zarur.

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda asosiy prinsip - global muammolarga milliy manfaatlar nuqtai nazaridan yondashish, lekin umumbashariy yechimlarni izlash va amalga oshirish lozim.

Bunday yondashuvlar mamlakatning strategik maqsad va vazifalarini belgilash, milliy manfaatlar bilan umumbashariy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, global muammolarga milliy nuqtai nazardan yondashish, umumbashariy yechimlarni taklif etish jarayonida milliy manfaatlarni ko'rib chiqish, xalqaro munosabatlar doirasida milliy manfaatlarni umumbashariy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish kabilar yo'nalishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shuningdek, milliy manfaatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida targ'ib etish, millatlararo hamkorlikni, o'zaro hurmat va totuvlik muhitini mustahkamlash, milliy manfaatlarni global maqsadlar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuvlarni amalga oshirish orqali milliy va umumbashariy manfaatlar o'rtasida samarali muvozanatni ta'minlash, global muammolarga milliy nuqtai nazardan yechimlar taklif etish va umumbashariy hamkorlikni kuchaytirish mumkin. "Barchamiz xavfsizlik-yaxlit tushuncha, ishonch esa uning fundamental asosi ekanini yaxshi bilamiz. Bu borada butun dunyo va ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi hamkorlikning mavjud dinamikasini saqlab qolish juda muhim.

Shuning uchun, o'ylaymanki, hamkorlikda izlanish va o'zaro manfaatli qarorlar qabul qilish tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash imkonini

beradi”¹¹⁹. Taraqqiyot strategiyasining yettinchi ustuvor yo‘nalishi mamlakatimiz xavfsizligi hamda mudofaa qudratini mustahkamlash, shuningdek, ochiq, amaliy va faol tashqi siyosat yuritishga qaratilgandir. Ushbu yo‘nalish 89-100-maqсадlarni o‘z ichiga oladi. Yangi O‘zbekistonning 2026-yilgacha xavfsizlik, mudofaa va faol tashqi siyosatni amalga oshirish bo‘yicha asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- mamlakat mudofaa qudratini kuchaytirish, qurolli kuchlarda yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etish va uni raqamlashtirishni rivojlantirish;

- mudofaa vazirligi qo‘shinlarida rahbarlikka kadrlar zaxirasini shakllantirish;

- harbiy qism va muassasalarda xotin-qizlar hamda harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislar faoliyatini samarali tashkil etish;

- Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan oliy darajadagi uchrashuvlar, hukumatlararo komissiyalar, hududlararo forumlar va parlamentlararo mexanizmlarni rivojlantirish;

- chegaraoldi nazorat-o‘tkazish punktlarini modernizatsiya qilish va ularning o‘tkazuvchanligini oshirish;

- mintaqada ekologik holatni muhofaza qilish borasida hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish;

- muzeylar va arxivlar o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish, ikki davlat tarixi va madaniyatini yorituvchi kataloglarni birgalikda chop etish;

- Yevropa va Yevropa Ittifoqi institutlari bilan savdo, energetika, transport va madaniy aloqalarni rivojlantirish;

- BMT Bosh Assambleyasining Orolbo‘yi bo‘yicha rezolyutsiyasini keng targ‘ib qilish, “Orol orzusi” dasturini amalga oshirish orqali mintaqaning investitsiya, turizm va madaniyat salohiyatini oshirish;

- turizm sohasida yangi sharoitlar va epidemiologik talablarni hisobga olib, moslashtirilgan choralarni joriy etish;

¹¹⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б.386.

- milliy manfaatlarni ilgari surishda iqtisodiy diplomatiyani faollashtirish va samaradorligini oshirish;
- xorijdagi diplomatik vakolatxonalar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yangi vakolatxonalar ochish;
- Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bozorlariga eksport hajmi va mahsulot turlarini kengaytirish;
- AQSh, Kanada va Amerika qit'asidagi boshqa davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni kuchaytirish;
- O'zbekistonni BMT tuzilmalari orqali xalqaro maydonda keng tanitish va targ'ibot tadbirlarini kengaytirish;
- milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti talablari bilan uyg'unlashtirish, texnik tartibga solish, sanitariya va intellektual mulk himoyasini kuchaytirish;
- O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonida to'qimachilik, oziq-ovqat va avtomobil sanoatiga ta'sirini tahlil qilish.

Umumiy qilib aytganda, ushbu vazifalar mamlakat xavfsizligini mustahkamlash, mudofaa qudratini yuksaltirish, shuningdek, faol va samarali tashqi siyosat yuritishga qaratilgan.

2.3. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari konsepsiyasining Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyati

Bugun Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining natijadorligi bilan yangi bir bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, yurtimizni yangicha qiyofasini yaratish, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini ta'minlash asnosida jamiyatning demokratik imedji yaratilmoqda. Bu borada 2017-yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasida o'z aksini topgan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" nomli ezgu g'oya barqaror taraqqiyot uchun dasturilamal vazifasini bajarmoqda.

"Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" konsepsiyasi - bu mamlakatimiz taraqqiyot yo'lini belgilovchi strategik konsepsiyadir deb ta'kidlaydi mamlakat rahbari o'z nutqida. Konsepsiyaning bosh maqsadi – mamlakatni yangi rivojlanish

pogʻonasiga olib chiqish, aholining turmush darajasini sezilarli yaxshilash, demokratik tamoyillar va bozor iqtisodiyotini yanada kuchaytirishdan iborat.

“Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga koʻtarishni tushunamiz”¹²⁰. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga, olijanob mehnatkash xalqimizning turmush darajasini yaxshilashga oid ezgu maqsadlarga qaratilmoqda. Bunday ezgu maqsad va gʻoyalarni amalga oshirishda barchamiz masʼuliyat his qilamiz.

“Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” konsepsiyasining asosiy yoʻnalishlari:

-madaniy merosni asrab-avaylash va qayta tiklashdir. Madaniy meros – bu ajdodlardan qolgan moddiy hamda nomoddiy qadriyatlar, tarixiy va maʼnaviy boyliklar majmuasini anglatadi. Dunyo ilm-fan taraqqiyotiga oʻzining munosib hissalarini qoʻshgan buyuk vatandoshlarimiz “Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Hakim at-Termiziy, imom Buxoriy, Zamaxshariy, Margʻinoniy, Motrudiy, Ulugʻbek, Navoiy, Behzod¹²¹” kabi allomalarning ilmiy yutuqlari, diniy-falsafiy qarashlari jamiyat barqaror taraqqiyotiga xizmat qilgan. Bu esa, yurtimiz tarixida birinchi va ikkinchi renessans davrini rivojlanishga asos boʻlgan. Tarixiy va madaniy obidalarni saqlash hamda restavratsiya qilish, milliy anʼanalarni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarning meʼmoriy yodgorliklarini asrab qolish, shuningdek, madaniy tadbirlar, festival va koʻrgazmalar orqali milliy anʼanalarni keng targʻib etish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, Oʻzbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunning obyektiv zaruriyatidir.

¹²⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi, Toshkent, 2019-yil, 31-avgust.

¹²¹ Falsafa qomusiy lugʻat. Sharq nashriyoti, 2004. –B. 230.

Ta'lim va ilm-fan rivoji: Har qanday jamiyat taraqqiyoti bevosita ta'lim tizimi rivojlanishiga bog'liqdir. Bugun biz mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lida bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilmoqdamiz. Bu borada yurtimizda barcha maktablar uchun etalon vazifasi sifatida Prezident maktablari, turli sohalarga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari faoliyatini alohida aytish o'rinlidir. Ushbu maktablarning iqtidorli o'quvchilari "Andijonda Durdona Muxtorxo'jayeva, Buxorodan Firdavs Sobirov, Doniyor Ismoilov, Sirdaryodan Ilg'or Qodirqulov, Nabixon Nabixonov, Toshkent shahridan Nodira Sa'dullayeva, Iskandar Bo'riyev, Dilshod Xo'jaqulov, Rail Xashayev fizika, matematika va kimyo bo'yicha xalqaro olimpiadalarning oltin, kumush va bronza medallariga sazovor bo'lgan¹²²"ligi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda o'z samarasini berayotganligiga ishoradir. Shu bilan birga, mamlakatimizda ta'lim muassasalari zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanmoqda, ilg'or pedagogik yondashuvlar joriy etilmoqda, o'qituvchilar malakasi oshirilmoqda hamda raqamli o'quv resurslari va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, xorijiy mamlakatlarda malaka oshiris, tajriba almashish, innovatsion loyihalash dasturlari yo'lga qo'yilmoqda, ilmiy tadqiqot yo'nalishlari qo'llab-quvvatlanmoqda, xalqaro grantlar hamda milliy loyihalar uchun investetsiya ajratilmoqda. Shuningdek, innovatsion markazlar, texnoparklar tashkil etish, xorijiy yetakchi universitetlar bilan hamkorlik o'rnatish va qo'shma dasturlar ishlab chiqish orqali O'zbekistonda ta'lim hamda ilm-fan sohalarining raqobatbardoshligi yanada kuchaytirilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: Bugungi kunda mamlakat barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni takomillashtirishga yangicha ruh, yangicha qarash asosida islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholini qo'llab-quvvatlash, turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta'minlash, sifatli ta'lim olish sharoitlarini yaratish, malakali tibbiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, iqtisodiyotda diversifikatsiyani kuchaytirish, raqobat muhitini rivojlantirish, shuningdek, yo'l, transport, aloqa, energetika sohalariga

¹²² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. T.: O'zbekiston, 2023. –B. 282.

zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

urtimizda jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy tubdan yangilash va rivojlantirish yo'lida izchil aholiga fuqarolarning kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, va

So'nggi yillarda "...yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash, soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish, sanoat tarmoqlari, energetika, transport, qishloq xo'jaligi, uy-joy va kommunal sohalarni rivojlantirish borasida katta marralarni belgilab oldik. Jumladan, yalpi ichki mahsulotni qariyb 2 barobar oshirish yoki 58 milliard dollardan 100 milliard dollarga yetkazish"¹²³ kabi islohotlar xalq farovonligi va davlat taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Ekologik barqarorlik: Ekologik barqarorlik — bu tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni himoya qilish va kelajak avlodlar uchun muvozanatni saqlashga qaratilgan yondashuvdir. Dunyo mamlakatlar aholisining katta qismi so'ngi 50 yil ichida moddiy ahvolini yaxshilashiga qaratilgan harakatlar natijasida ona tabiatga nihoyatda zarar yetkazdi. Natijada, ekologik vaziyat keskinlashdi. "Yer yuzidagi 1,1 milliard kishi xavfsiz ichimlik suvi iste'mol qilish imkoniyatiga ega emas. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi barcha kasalliklarning 10,0 % ichimlik suvi iflosligi, umuman ichimlik suvining yetishmasligi bilan izohlanadi. Qishloq joylaridagi aholining 29,0 % toza ichimlik suvi iste'mol qilishdan, 62,0 % oddiy sanitariya sharoitlaridan mahrum"¹²⁴ ekanligi ekologiya sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni taqozo etadi. Shu maqsadda, eng avvalo suv va suvdan samarali foydalanish, uni tejash, qayta ishlash, shuningdek yer holatini yaxshilash hamda biologik xilma-xillikni turlarini qilish zarur. Bu esa ekologik tizimlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Havo, suv va yer ifloslanishini kamaytirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish, quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza

¹²³ Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari, T.: O'zbekiston, 2020. –B. 90.

¹²⁴ Abdurahmonov Q.A. Inson taraqqiyoti. T.: Fan va texnologiyalar, 2013. -B.293-b.

mahsulotlar yetishtirish va pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Zero, atrof-muhitni saqlash, inson hayoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun ham muhimdir.

Davlat boshqaruvi va huquqiy islohotlar: Davlat boshqaruvi va huquqiy sohadagi islohotlar katta ahamiyatga ega, chunki ular jamiyatning to'g'ri faoliyat yuritishi hamda fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Davlat boshqaruvi, hukumat organlari va ularning o'zaro aloqalari, masalan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari o'rtasidagi munosabatlar. Davlat boshqaruvi va huquqiy islohotlarni tahlil qilishda avvalo, ba'zi siyosiy tushunchalar mohiyatini anglashimiz muhimdir. Bular:

Boshqaruv jarayoni – davlat siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, shu jumladan strategik rejalashtirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni o'z ichiga oladi.

Fuqarolar ishtiroki esa – insonlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini anglatadi, masalan, mehnat qilish, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish, saylovlarda ovoz berish, jamoaviy muhokamalarda erkin fikr bildirish v/b.

Qonunchilik esa, yangi qonunlar ishlab chiqish va mavjud qonunlarni takomillashtirish jarayoni. Bu fuqarolar huquqlarini himoya qilish va adolatni ta'minlashda muhimdir.

Sud tizimi: sudlarning mustaqilligini ta'minlash, sud jarayonlarida qonun ustuvorligini ta'minlash, adolatli hukm chiqarishni rag'batlantirish.

Huquqiy madaniyat – fuqarolarning huquqiy savodxonligini amaliyotda qo'llash jarayoni bo'lib, bu ularning o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu borada mamlakatimizda to'laqonli huquqiy asos yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishda konstitutsiyaviy normalar qabul qilindi. Bu normalar inson, uning sha'ni, qadriyatini oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. "So'nggi 7 yilda qabul qilingan uchta kompleks taraqqiyot strategiyasi hamda turli sohalarni rivojlantirishga oid 60 dan ziyod strategiya, konsepsiya va dasturlarga insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning rivojlanishi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit

yaratish, ijtimoiy tenglik kabi tamoyillar, g‘oyalar”¹²⁵ to‘liq singdirilganligi jamiyatda huquq ustuvorligini ta’minlashga zamin yaratadi. Chunki davlat boshqaruvi va huquqiy islohotlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, samarali boshqaruv tizimi hamda adolatli huquqiy muhitni shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Shu bois, mazkur yo‘nalishlarda islohotlar olib borilayotganda fuqarolarning ehtiyojlari va huquqlari albatta e‘tiborga olinishi lozim.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy modeldir.

Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari

Resurslardan samarali foydalanish	Energiya iste’molini qisqartirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash va foydalanilgan xomashyoni yangidan ishlatish orqali resurslardan oqilona foydalanish.
Atrof-muhitni muhofaza qilish	Ekotizimlarni asrab-avaylash va biologik turlarning xilma-xilligini muhofaza etish, shuningdek, iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini kamaytirishga yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
Ijtimoiy soha obyektlari sifatini takomillashtirish	Yashil iqtisodiyot doirasida ijtimoiy tenglikni kafolatlash, yangi bandlik imkoniyatlarini yaratish hamda mahalliy aholini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish; “Toza hudud” konsepsiyasini yanada mukammallashtirish, ekologik toza transport vositalarini keng joriy etish va shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish.
Zamonaviy texnologiyalarni innovatsion amaliyotga tatbiq etish	Yangilanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, energiya tejankor texnologiyalar hamda atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish usullarini joriy etish; yashil iqtisodiyotga qaratilgan innovatsion yechimlarni rag‘batlantirish.

Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga ham yordam beradi. Bu jamiyatning barqaror kelajagini qurish uchun muhim qadamdir.

¹²⁵ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2024. –Б.46.

Bugungi kunda ham “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” konsepsiyasi yetakchi siyosiy yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda va bu davlat siyosatida muhim o‘rinni egallaydi. “Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi. Men bunga qat’iy ishonaman va bu fikrni sizlar ham qo‘llab-quvvatlaysizlar, deb o‘ylayman”¹²⁶ degan fikrda jamiyat barqarorligini ta’minlashga barcha aholi qatlamlari birdek mas’ul ekanligiga ishoradir.

“Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” ezgu g‘oyasi asosida mamlakatimizda boshqaruvning turli sohalari, huquq tizimini takomillashtirish, erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishda tadriijiy yo‘ldan bormoqda. Bunda, davlat mulklarining xususiylashtirilishi, tadbirkorlar uchun soliq yukini kamaytirilishi va ular faoliyatiga to‘sqinlik qilmaslik borasida barcha shart-sharoit hamda imkoniyatlar yaratilmoqda.

Yurtimizda, “Obod mahalla”, “Obod qishloq”, “Besh muhim tashabbus”, “Yoshlar – kelajagimiz” nomli dasturlarni qabul qilinishiga oid o‘ziga xos tizim shakllandi. Natijada, shahar va olis hududlardagi aholi yashaydigan yuzlab qishloqlarning ma’naviy qiyofasi zamonaviylashdi. Shunindek, ilm-fan va ta’lim-tarbiyani rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylandi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan xotin-qizlarni behsta muhim tashabbus doirasida tadbirkorlikka jalb qilish, o‘z-o‘zini band qilsih bo‘yicha qisqa muddatli maqsadli o‘quv kurslariga jalb qilish tizimi joriy etildi. Bundan asosiy maqsad, yoshlarga keng qamrovli yordam ko‘rsatish va zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish, eng mihimi ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir. “...yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “Yangi O‘zbekiston-Uchinchi Renessans sari !” shiori atrofida

¹²⁶ Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. T.: O‘zbekiston, 2020. –B. 6.

birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali va tizimli tashkil etish”¹²⁷ masalasi davlatning asosiy ijtimoiy funksiyalari sifatida qaralmoqda. Shuningdek, “Yoshlar – kelajagimiz” nomli dastur dorasida yosh yigit-qizlarimizning jismoniy jihatdan yetuk barkamol qilib voyaga yetkazish hamda ularni ma’naviy-ma’rifiy saviyasini muntazam ravishda yuksaltirish muhim ahamiyatga ega.

Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va malakali mutaxassislar tayyorlashga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilishi natijasida mamlakatimizda zamonaviy ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Shu bilan birga, aholiga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish agentligi hamda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizim ham shakllantirilmoqda. Shu jihatdan “...“Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” dasturiy g‘oya asosida yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik va yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish – eng mas’uliyatli va sharaflı burch”¹²⁸ ekanligi dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz ijtimoiy ma’naviy hayotida xalqaro miqyosida anjuman va simpoziumlar o‘tkazila boshladi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida xalqaro maqom san’ati anjumani, Syrxondaryo viloyatida xalqaro baxshichilik san’ati festivali, Samarqand shahrida xalqaro musiqa festivallari o‘tkazilib dunyoga milliy madaniyatimizni namoyon etdi. “Biz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir. Mana shunday qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg‘in qo‘llab-quvvatlanayotgani ma’naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi”¹²⁹.

¹²⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б.262.

¹²⁸ О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/679>

¹²⁹ О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning О‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, Toshkent, 2019-yil, 31-avgust.

**Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari konsepsiyasining
asosiy tamoyillari va maqsadlari ¹³⁰**

Tamoyillar:	mamlakatimizda islohotlarning demokratlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish orqali barqaror tizimni yaratish, inson huquqlari kafolatini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda o'z ifodasini topadi
	bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish orqali erkin bozor tamoyillarini joriy etish, iqtisodiy faoliyatlarda davlat aralashuvlarini kamaytirish orqali amalga oshiriladi
	jamiyat barqarorligiinsonni uzoq umr ko'rishi, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy himoyani ta'minlash kabi sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshiriladi
	milliy qadriyatlar urf-odat, an'ana, til, ma'naviy merosni asrash va rivojlantirishga qaratilgan
Maqsadlar:	O'zbekistonning demokratik, huquqiy va inson huquqlari kafolatlanadigan davlatga aylantirish.
	bozor iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.
	xalqning turmush darajasini sezilarli darajada oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash.
	milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy merosni qayta tiklash.
	tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirish.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” konsepsiyasi doirasida asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida siyosiy tizimni yangilash jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirish, siyosiy plyuralizmni rivojlantirish, siyosiy institutlar faoliyatini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyatini kuchaytirish, fuqoralarni o‘zini o‘zi boshqarish tizimini yuksaltirish bo‘yicha muhim siyosiy islohotlar olib borilmoqda. Xususan, siyosiy jarayonlarda quyidagi bir qator islohotlar amalga oshirildi:

- saylov kodeksi qabul qilindi;

¹³⁰ Muallif ishlanmasi

- saylov jarayonlarini kuzatish uchun 50 dan ortiq davlatlardan xalqaro ekspertlar hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlariga oid masalalar bo'yicha tuzilmasi bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

- "Yangi O'zbekiston–yangi saylovlar" shiori asosida o'tkazilgan demokratik islohotlar natijasida yangi siyosiy muhit vujudga keldi. Jumladan, ilk marotaba O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o'tkazish"¹³¹ bo'yicha yangi tizim yaratildi. Bunda Oliy Majlis qonunchilik palatasiga bir vaqtning o'zida 150 deputatdan 75 nafari mojaritar, 75 nafari esa proporsional tizim bo'yicha saylovlar o'tkazilish amaliyoti joriy etildi.

Iqtisodiy islohotlar:

- mulkiy munosabatlarni liberallashtirish;
- xususiy sektorni yanada rivojlantirish;
- bozor infratuzilmalarini shakllantirish;
- investitsion muhitni yaxshilash.

Ijtimoiy sohani yangilash quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- ta'lim, tibbiyot tizimlarini xorijiy tajribaga asoslangan holda rivojlantirish;
- inson farovanligi, turmush darajasi, ijtimoiy himoya tizimlarini yuksaltirish;
- ijtimoiy servis xizmatlarini sifat jihatdan takomillashtirish.

Ma'naviy-ma'rifiy sohani isloh qilish:

- milliy g'oya va mafkurani shakllantirish;
- til, madaniyat, an'analarni rivojlantirish;
- ma'rifiy va axborot resurslarini yaxshilash.

Ushbu sohalar "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" konsepsiyaning asosiy tamoyillarini amalga oshirishda eng muhim o'rin tutadi. Chunki ular davlatning demokratik, iqtisodiy va ma'naviy yangilanishiga xizmat qiladi.

¹³¹ "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 883-son qonuni, 2023-yil 18-dekabr. <https://lex.uz/ru/docs/-6697581>

Jamiyat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri iqtisodiyotdir. Iqtisodiyot inson uchun zarur bo'lgan ne'matlar, aholi farovon turmush darajasi, turmush sifati ta'minlash, ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan jarayondir. Iqtisodiy farovonlik bir qancha o'lchov mezonlari bilan baholanadi. Aholi turmush darajasini bevosita daromadlari oshishi, sifatli oziq-ovqat tovarlari va boshqa huquqlar bilan ta'minlanganligi bilan o'lchanib qolmasdan ma'naviyat va ma'rifatni rivoji, ma'naviy barkamollik kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Zero, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy sohalarsiz farovon turmush tarziga erishib bo'lmaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surulgan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" konsepsiyasi mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradigan strategik g'oya bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, maskur konsepsiya Yangi O'zbekiston farovonligini ta'minlashning asosiy mafkuraviy va amaliy yo'nalishidir. "Milliy tiklanishdan –milliy yuksalish sari" konsepsiyasining jamiyatda amalga oshirilishi natijasida :

birinchidan, O'zbekiston xalqi o'z tarixiy ildizlari, urf-odatlari, madaniy boyliklari va buyuk ajdodlari merosiga e'tibor ortdi. Ma'naviy meros, milliy g'urur va o'zlikni anglash kuchayib, yosh avlodda vatanga sadoqat, tarixga hurmat kabi fazilatlar mustahkamlandi. Natijada, jamiyatda ma'naviy uyg'onish, intellektual salohiyatning oshishiga olib kelmoqda.

ikkinchidan, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi Yangi O'zbekistonning yangi bosqichdagi siyosiy islohotlarining mafkuraviy poydevoriga aylandi. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati rivojlanishi natijasida fuqarolarning islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi ortmoqda.

uchinchidan, mamlakat taraqqiyotini ijtimoiy-iqtisodiy poydevori poydevori mustahkamlanib, "inson qadri uchun" tamoyili negizida ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, ish bilan bandlik darajasi oshirilishiga qaratilgan islohotlar oshib bormoqda.

to'rtinchidan, yoshlarga milliy g'urur, vatanparvarlik va zamonaviy bilimlarni uyg'un holda singdirilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston yoshlari, sen azizsan, muqaddassan!" degan shior ostida yoshlar festivallari o'tkazilmoqda. Natijada,

yoshlar ijodkorligi, tashabbuskorligi va tadbirkorligini ragʻbatlantirish orqali jamiyatda yangilanish ruhiyati kuchaymoqda.

beshinchidan, “Xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun” degan gʻoya hayotga joriy etilmoqda. Davlat boshqaruvi tizimi fuqarolarga yaqin, ochiq va xizmat koʻrsatishga yoʻnaltirilgan shaklda qayta tashkil etilib, jamiyatdagi ijtimoiy masalalarni hal etishda mahalliy kengashlar, fuqarolar yigʻinlari hamda jamoatchilik nazorati kabi tuzilmalar faoliyati yangi mazmun kasb etmoqda.

Xulosa sifatida, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” konsepsiyasi – bu shunchaki oddiy shior emas, balki Yangi Oʻzbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy, mafkuraviy taraqqiyotini belgilovchi asosiy yoʻnalishidir. U xalqning oʻz kuchiga ishonchi, milliy qadriyatlarga tayanib, zamonaviy va taraqqiy etgan davlat qurish istagini ifoda etadi. Bu konsepsiya asosida Oʻzbekiston bugun jahon hamjamiyatida oʻzining munosib oʻrnini topishga intilmoqda.

II bob boʻyicha xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, Oʻzbekiston taraqqiyotining rivojlanishida islohotlarning amaliy tus olganligi, fuqorolarda daxldorlik tuygʻusi ortganligi, mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga oid tendensiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, davlat, jamiyat va xalq farovonligini taʼminlashning asosiy garovi boʻlib xizmat qiladi.

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyoti iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy hamda maʼnaviy sohalarni rivojlantirish, fuqarolarning yaratilgan sharoitlardan qoniqish hosil qilishi, orzu-intilishlarini kelajakda emas, balki bugun farovon yashash orqali roʻyobga chiqarish, kundalik turmushdagi ijtimoiy muammolarni hal etish davlat siyosatining muhim vazifasi sifatida koʻrilmoqda. Ushbu muhim islohotlarni samarali amalga oshirish maqsadida “2017–2021-yillarga moʻljallangan Harakatlar strategiyasi” va “2022–2026-yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasi” kabi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Natijada faoliyat “davlat-jamiyat-inson” tamoyilidan “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga oʻtkazilib, “davlat inson uchun” gʻoyasi hayotga tatbiq

etila boshlandi. Shu bilan birga, “xalq qabulxonalari” tashkil qilindi va ishlar “mahalla tizimida ishlash”, “xalq ichiga kirish”, “ularning muammolariga quloq tutish”, “muammolarni joyida hal etish” “tashvishlariga sherik bo‘lish” tamoyillari asosida amalga oshiriladigan mexanizmlar yo‘lga qo‘yildi.

Yangi O‘zbekistonda milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari tamoyiliga yo‘naltirilgan strategiyani tanlash natijasida:

birinchidan, davlat xizmatlarini sifat jihatdan oshirish va ularning turlarini kengaytirish orqali aholiga qulay ijtimoiy muhit yaratildi. Natijada jamiyat barqaror taraqqiyot sari ildamlamoqda.

ikkinchidan, jamiyatda demokratik tamoyillarni har narsadan ustun qo‘yadigan, qonun ustuvorligini ta’minlash, sud-huquq sohalarini takomillashtirish va liberallashtirish ishlari hayotga izchil tadbiq etilmoqda.

uchinchidan, jamiyatda xususiy sektorni rivojlantirish, iqtisodiy siyosatda noreal raqamlar ortidan qo‘ymay balki amaliy natijadorlikka asoslangan tizimga o‘tilishi natijasida inson manfaatlari iqtisodiy islohotlarimizning bosh mezoniga aylandi.

to‘rtinchidan, xalq bilan muloqot davlat dasturi asosida fuqarolarning ijtimoiy huquq va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning yangicha tizimi yaratildi. Shuningdek, “Besh muhim tashabbus”, “Yoshlar - kelajagimiz”, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi ijtimoiy dasturlarning amalga oshirilishi provardida aholining ertangi kunga ishonchi kuchaymoqda.

beshinchidan, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashda ma’naviyat va ma’rifat muassasalarining faol rivoji natijasida aholida, xususan yoshlarimizda yuksak ma’naviy qadriyatlar vujudga kelmoqda hamda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilinmoqda, targ‘ibor-tashviqot tadbirlarini hayotiyli va uni ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan islohotlar tizimli ravishda olib borilmoqda.

III BOB. YANGI O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI AMALGA OSHIRISHNING STRATEGIK ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Yangi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning strategik istiqbollari deb nomlangan uchinchi bobda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar tizimida Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish mexanizmlari, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning tasnifi, intensiv shakldagi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tamoyillari hamda ochiq va pragmatik faol tashqi siyosatni amalga oshirish doirasidagi Yangi O‘zbekistonning ustuvor vazifalariga oid ilmiy-nazariy g‘oyalarning hozirgi kundagi ahamiyati tizimli tarzda tahlil qilingan.

O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ijtimoiy adolatni ta’minlash, aholining ijtimoiy himoyasi, inson huquqlari va imkoniyatlarini kafolatlash hamda fuqarolarning farovon turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan. Bu esa, davlatning siyosiy qudrati va iqtisodiy salohiyati oshayotganligiga ishoradir. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekistonni bunyod etish uchun xalqimizning orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari, islohotlarning mohiyati va falsafasini aks ettiruvchi yangicha g‘oyalar va yangicha dunyoqarashni talab etadi. Bu dunyoqarash “barqaror rivojlanish falsafasi” asosida shakllanmoqda. Barqaror rivojlanish falsafasi Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyot borasidagi ehtiyojlarni hisobga olish, cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, kelajak avlodlar farovonligiga daxl qilmagan holda o‘zaro uyg‘un ravishda hal etishni nazarda tutadi. Shuningdek, ushbu bobda mamlakatning iqtisodiy quvvati, “yashil iqtisodiyot”ga asoslangan rivojlanishi, ekologik taraqqiyoti, samarali tashqi siyosati, o‘zaro ishonch va yaqin qo‘shnichilik an‘analari hamda ijtimoiy-gumanitar yordam kabi masalalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari va O‘zbekistonning barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalar bilan qiyosiy tahlili, farqli jihatlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.

III Bob. Yangi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning strategik istiqbollari

3.1. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar tizimida barqaror rivojlanish maqsadlarining amalga oshirish mexanizmlari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar erkin bozor raqobati asosida, davlat ulushini xususiylashtirish, investitsiyalarni ijtimoiy sohalarga yo‘naltirishga qaratilayotganligi Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotiga zamin yaratmoqda. Bu borada, aholining turmush darajasini yaxshilash, insonlarga xavfsiz, to‘laqonli hayot kechirish imkonini beradigan sharoitlarni yaratish orqali barqaror iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir.

Barqarorlik, iqtisodiy farovonlik, mol-mulkka egalik qilish, tadbirli bo‘lish masalasiga azaldan ajdodlarimiz amal qilganligiga oid ilmiy manbalar mavjud. Jumladan, Amir Temurning davlat boshqaruviga oid qarashlarida “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”,¹³² degan fikrlarida jamiyat barqarorligining asosiy harakatlantiruvchi kuchi tadbirli insonlar faoliyatiga bog‘liq ekanligiga ishoradir. Shuningdek, Ibn Xaldun davlatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash haqida to‘xtalib: “Davlatning kuchi va qudrati, aholining soni, boylik va farovonlikka bog‘liqdir”. Davlat uchun soliqlar zarurligini, soliqlar yana aholining o‘ziga qaytib kelishi haqidagi fikrlari mavjud. “Aholining boylik manbaini bozor va savdo munosabatlari tashkil etadi”¹³³, degan qarashlari bugungi kunda ham naqadar dolzarblik kasb etayotgani hammamizga ayondir. Zero, rivojlangan davlatlar taraqqiyotning hozirgi tarixiy bosqichida, ilm-fanning zamonaviy yutuqlarini kundalik hayotida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muntazam ravishda foydalanmasdan taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda iqtisodiy barqarorlik iqtisodiy o‘shish, samarali byudjet-soliq, pul-kredit, investitsiya va tashqi savdo siyosati, institutsional masalalarga

¹³² Темур тузуклари.-Тошкент.: Ўзбекистон, 2014.- Б. 8.

¹³³ Раззоқов А., Тошматов Ш, Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: Молия, 2002. – Б. 41.

qaratilganligi Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mustahkamlangan. Taraqqiyot strategiyasida mamlakatning barqaror o‘shishini ta’minlash orqali aholi turmush darajasini oshirish, odamlarning xavfsiz va to‘laqonli hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratadigan iqtisodiyotni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa, mamlakatimizning 2030-yilgacha asosiy makroiqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha dunyodagi barqaror rivojlanayotgan mamlakatlar safidan joy olishiga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ikkinchi bo‘limi barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash masalalarini qamrab olgan bo‘lib, unda iqtisodiy o‘shish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha birlamchi maqsad va vazifalar belgilangan. “2030-yilga borib yalpi ichki mahsulotni 160 milliard AQSh dollariga yetkazish, ya’ni iqtisodiyot hajmini bugunga nisbatan 2 barobar oshirish rejalashtirildi”¹³⁴. Natijada, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad hajmini kamida 4 ming AQSh dollariga yetkazish mumkin bo‘ladi. Bu esa O‘zbekistonning “o‘rtachadan yuqori daromadli mamlakatlar” safiga qo‘shilishiga zamin yaratadi.

O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlar yo‘lidagi sa’y-harakatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 2030-yilgacha belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) bilan mos keladigan ko‘plab yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bu maqsadlar xalqaro miqyosda iqtisodiy barqarorlikni, ijtimoiy tenglikni va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan.

Yangi O‘zbekistonning rivojlanish tendensiyalarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, avvalo, davlat va jamiyat ravnaqini ta’minlashga, uzoq muddatga mo‘ljallanganligi, xorijiy ekspertlar tomonidan chuqur tahlil qilinganligi, rivojlanish strategiyalari va konsepsiyalar asosida rivojlanayotganligi bilan ahamiyatlidir. Zero, davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga oluvchi strategiyalarga ehtiyoj seziladi.

¹³⁴ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.282.

Har qanday demokratik davlatning rivojlanishdan asosiy maqsadi inson, uning farovon turmush sharoitini ta'minlashdan iboratdir. Davlat va jamiyat barqaror taraqqiyoti, uning iqtisodiy salohiyatini kattaligi bilan emas, balki unda har bir inson uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilganligi, inson kapitalliga yo'naltirilganligi bilan o'lchanadi.

Jahondagi turli mamlakatlarda jamiyat iqtisodiy salohiyati va aholi turmush sifatini baholash uchun pokistonlik iqtisodchi Mahbub ul – Haq¹³⁵ boshchiligidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti ekspertlari tomonidan inson salohiyatini rivojlantirish indeksi ishlab chiqildi. Ushbu indeks odamlarning asosiy moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy himoya tizimlarini tashkil etish masalalarini va inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan rivojlanishini ham o'z ichiga oladi.

“Endilikda inson, uning hayoti, ozodligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi”¹³⁶. Inson turmush darajasi, mamlakat farovonligi quyidagi mezonlar orqali rivojlanishi asoslanadi.

Inson turmush darajasi- bu aholi farovonligining, ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilishning darajasi, inson asosiy hayotiy ehtiyojlarining qondirilishi miqdoridir. Iqtisodiy adabiyotlarda aholi turmush darajasi insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida talqin etiladi. Jumladan, V.N.Salin, E.P.Shpakovskaya: “Aholi turmush darajasi - bu inson hayoti faoliyatining, eng avvalo, real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yig'indisini ifodalovchi murakkab va ko'p qirrali kategoriya bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tavsifi hisoblanadi”¹³⁷ deb ko'rsatadilar.

Turmush darajasining asosiy mezonlaridan biri – aholi daromadlaridir. Ular:

- aholi jon boshiga o'rtacha nominal va real daromadlar, daromadlar tabaqalanishining ko'rsatkichlari;

¹³⁵ Махбуб ул-Ҳақ(1934-1996) покстонлик иқтисодчи.

¹³⁶ Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатият билан давом эттириб , янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.- Б. 102.

¹³⁷ Солин В.Н., Шпаковская Е.П. Социально-экономическая статистика: Учебник.-М: Юрист. 2001.-С.339

- nominal va o'rtacha ish haqi;

- o'rtacha va real pensiya miqdori. Shuningdek, aholi turmush darajasini ma'naviy ehtiyojlarni qondirilishi, atrof-muhit sharoiti, jamoadagi muhit kabi mezonlar bilan ham baholanadi.

Turmush darajasining farovonligiga oid islohotlar bugungi kunda izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024-yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 5,6-5,8 foizga o'sishi kutzatildi. Ushbu ko'rsatkichni "2025-yilda 6,2 foizga, 2026-yilda esa 6,4 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda"¹³⁸. Inson barqaror taraqqiyotining mazmuni hozirgi kunda ham, kelgusida ham taraqqiyot imkoniyatlaridan foydalanishdagi tenglikdan iborat. Bu kabi islohotlarimiz natijasida ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy muammolarni o'rganish va hal etishda aholi barcha qatlamlarining real ishtiroki kuchaymoqda.

Barqaror rivojlanish tamoyillaridan biri tadbirkorlik va unga yaratilgan ijobiy muhitdir. Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyati o'zining mulkiy javobgarligi bilan xususiy yoki kredit mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi esa foyda olish va o'z ishini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat natijasidir.

"Yangi O'zbekistonni halol mehnat qilib muvaffaqiyatga erishishni orzu qiladigan, tadbirkorlik orqali o'zi va oilasi farovonligini ta'minlashga intiladigan, Vatani va xalqiga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan barcha fuqarolar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga aylantirishimiz shart va zarur"¹³⁹.

Ingliz mutafakkiri A.Smit "biznes va tadbirkorlikni shaxsiy foyda olish uchun tavakkalchilik tijorat g'oyasini amalga oshiruvchi, mulkdor deb tavsiflaydi. Mulkdor ishlab chiqarishni tashkil qiladi, rejalashtiradi, uning natijalarini o'zlashtiradi"¹⁴⁰. Nemis olimi Y.Shumpeter esa, "tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning yetakchi harakatga keltiruvchi kuch deb ataydi. Ishlab chiqarish omillarini hamma yangi kombinatsiyalari (birikuvlari) yordamida yangilikni amalga oshiradigan va shu asosda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan kishilarni olim ijodiy

¹³⁸ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.285.

¹³⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.195.

¹⁴⁰ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1962. - 332 с

tadbirkor deb ataydi”¹⁴¹. Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini takomillashtirish uchun barcha me’yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Buning natijasida tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorga asosan yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga subsidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalarni ularning reyting darajasidan kelib chiqqan holda berish bo’yicha yangi tartib joriy etildi. Shuningdek, kichik va o’rta biznesni rivojlantirish milliy strategiya darajasida ko’tarildi, tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar orqali yangi loyihalar boshlash moliyaviy imkoniyatlar(imtiyozli kreditlar, grant dasturlari, chet el investorlari bilan hamkorlik loyihalar, eksport salohiyati) kengaymoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda kichik biznesga yangi imkoniyatlar yaratish, o’rta biznesni barqaror iqtisodiy o’sish garoviga aylantirish, yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish, yuqori daromadli korxonalarni ko’paytirish, sodda soliq ma’muriyatchiligi va byurokratiyadan xoli qulay muhit yaratish bo’yicha boshlangan ishlar kyelgusida ham izchil davom ettiriladi. Shuni nazarda tutgan holda davlat rahbari: “xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, bugun hayotidan rozi va mamnun bo’lib yashashi kerak”¹⁴² degan egu g’oya faoliyatimizning asosiy mazmunini tashkil etishi kerakligini bejiz ta’kidlamagan.

O’zbekistonda tadbirkorlar uchun investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo’ldagi to’siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish borasida qat’iy qadamlar tashlanmoqda. 2023-yilda qabul qilingan “Davlat mulkini xususiylashtirish to’g’risida”gi Qonun asosida 250 ta yirik korxonadagi davlat ulushini va salkam 12 ta ko’chmas mulk obyektini sotish, 12 ta korxona aksiyalarini fond bozorlarida birlamchi ommaviy joylashtirish bo’yicha faol ish olib borilmoqda.

¹⁴¹ Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Директмедиа Паблишинг, 2008. – 169 с

¹⁴² Mirziyoyev Sh.M. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O’zbekiston Liberal-demokratik partiyasining XI syezdidagi nutqidan. 30.05.2023. // <https://uzlidep.uz/news-of-party/14425>.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri bu – oqilona byudjet-soliq siyosatini olib borish hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda byudjet taqchilligini optimallashtirish muhim rol o'ynaydi.

Yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlari asosan qishloq xo'jaligi, shaharsozlik, energetika, transport va tadbirkorlik sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar orqali ta'minlanadi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun, avvalo, soliq va moliya, pul-kredit, tashqi savdo aloqalarini yo'lga qo'yish, tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish talab etiladi. Ushbu islohotlarning amaliy natijasida yangi ish o'rinlari yartiladi, aholining turmush tarzi yuksaladi. "Iqtisodiy strategiyamizning muhim bandi-2030-yilga qadar munosib haq to'lanadigan 10 millionta yangi ish o'rinlarini yaratish"¹⁴³ni maqsad qilgan. Aholining turmush darajasini yuksaltirish uchun eng avvalo, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdorini oshirish, sih bilan bandlilik darajasini ta'minlash, oylik ish haqi tarkibini ko'tarish, uzoq umr ko'rish, sog'liq va ta'lim olish ko'rsatkichlarini rivojlantirish, eng muhimi iste'mol savatchasi qiymati va uning ta'minlanganlik darajasi takomillashtirish darajasi tushuniladi. Ushbu baholash mezonlari asosida jamiyat farovonlikka erishadi. Odamlar islohotlardan moddiy ozuqa oladi, kelajagiga ishonch mustahkamlanadi.

"Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat"¹⁴⁴. Mamlakat farovonligi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlar bilan bevosita chambarchas bog'liqdir. Farovonlik bevosita iqtisodiy rivojlanishsiz, iqtisodiy salohiyatni ko'tarmasdan, aholining ehtiyojlarini qondirmasdan, imkoniyatlarini kengaytirib bo'lmaydi.

¹⁴³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.145.

¹⁴⁴ Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик -ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2017 .- Б. 53.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik darjasi ta'lim, tibbiyot, gender rivojlanish va qashshoqlikka qarshi kurash, atrof-muhitni asrash kabi ijtimoiy mezonlar statistikasi asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari investitsiyalar, ishlab chiqarish, iste'mol qilish, savdo-sotiq, zamonaviy texnologiyalar kabi ko'rsatkichlarsiz mamlakat farovonligi to'g'risida xolisona baho berib bo'lmaydi.

Nihoyat, jamiyat rivojlanishi uchun odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlash uchun barcha resurslardan eng samarali tarzda foydalanishiga asoslanib baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uzoq vaqt davomida dunyoda iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi yakka hukmron bo'lib kelgan. Oddiy qilib aytganda, bu nazariyaning asosiy mazmuni shundan iboratki, iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan, yalpi ichki mahsulot va aholi jon boshiga o'rtacha daromadi yuqori darajada bo'lgan davlatlar farovon deb hisoblangan. Natijada mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti yuksaladi.

Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish tushunchalar ko'pincha bir ma'noda talqin etiladi, holbuki ular o'rtasida jiddiy tafovutlar mavjud.

Iqtisodiy o'sish (aholi jon boshiga milliy mahsulot yoki daromadning ko'payishi) jamlanma taklif ko'payishini aks ettiradi.

Iqtisodiy rivojlanish esa shunchaki tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning ko'payishiga qaraganda ko'proq ma'noga egadir. Iqtisodiy o'sishdagi jon boshiga daromad ko'rsatkichiga qo'shimcha ravishda iqtisodiy rivojlanishda iqtisodiyotdagi sifat va tarkibiy o'zgarishlar ham nazarda tutiladi. Jamiyatni iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi faqat rivojlanishni ta'minlash vositasi bo'lib qolmasdan, balki rivojlanishning maqsadiga aylanmog'i lozim. Ba'zi mutaxassislar iqtisodiy o'sishni faqat rivojlanish vositasi sifatida tushungan. Ingliz iqtisodchisi Artur Lyuis¹⁴⁵ rivojlanishning asosiy omili insonning tanlov erkinligini kengaytirish degan nazariyani ilgari suradi.

¹⁴⁵Сэр Уильям Артур Льюис (Sir William Arthur Lewis, 1915-199) – инглиз иқтисодчиси, «ривожланаётган давлатларга нисбатан иқтисодий ривожлантиришнинг новаторлик тадқиқоти учун» 1979 йилги Нобель мукофотининг лауреати. Асосий асарлари: «Иқтисодий режалаш принциплари» ("The Principles of Economic Planning", 1949), «Иқтисодий ўсиш назарияси» ("The Theory of economic Growth", 1955)

Barqaror iqtisodiy o'sish deganda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini uzoq muddatli barqarorligini kafolatlash, uning rivojlanishining doimiy va keng qamrovli qilish, shuningdek, atrof-muhit va ijtimoiy muhitga zarar yetkazmasdan taraqqiy etishini anglatadi.

Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv kabi turlari mavjud.

Ekstensiv-iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish omillarining miqdor jihatidan ko'paytirilish hisobiga ta'minlanadi. Natijada, jamiyat tabiiy, mehnat va investitsiya resurslaridan unumli foydalanadi va shuni hisobiga milliy mahsulotlarning o'sishi ko'zatiladi.

Intensiv-bunda iqtisodiy ishlab chiqarish sohalarini sifat jihatdan takomillashtirish va ulardan samarali foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Iqtisodiy o'sishni asosiy harakatlantiruvchi kuchi inson va unga beriladigan imkoniyat, tanlov erkinigi muhim ahamiyatga ega. Xususan, "Tashabbusli byudjetlashtirishni yanada takomillashtirish va ovoz berishda sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida "Bir fuqoro-bir ovoz" tizimi joriy etildi"¹⁴⁶. Ochiq byudjet" tizimi odamlarda tegishli muammolarni bartaraf etish va hayot sifatini yaxshilashga dahldorlik hissini oshirmoqda. Shuning uchun 2024-yilda fuqarolar tomonidan taklif etilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetdan 3 trillion so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Tashabbusli byudjet loyihalarini to'g'ri va samarali amalga oshirish orqali fuqarolar o'z ehtiyojlari va xohishlariga mos keladigan loyihalarni tanlashda ovoz berishadi, mahalliy muammolarni hal etish uchun eng muhim loyihalar aniqlanadi, bu esa ularning farovonligini oshiradi.

Tashabbusli byudjet orqali mahalliy muammolarni aniq belgilab, ularni hal qilishga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, aholi hayot sifatini yaxshilaydi.

Shuningdek, tashabbusli budjet fuqarolarda muammolarni hal qilish va hayot sifatini yaxshilashda aloqadorlik hissini kuchaytiradi, bu jamoatchilikning

¹⁴⁶ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.386.

moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydigan usul. Bu jarayonda aholi o'z hududlarida qanday loyihalarni moliyalashtirishni tanlashda qatnashadi. Natijada tashabbusli byudjet, odamlarda yagona vatan, jamoaviylik kabi tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun O'zbekiston keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu islohotlar iqtisodiyotning barcha yo'nalishlarida – ishlab chiqarish, tadbirkorlik, ekologik masalalar, raqamli texnologiyalar va inson kapitalini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan. Byudjet shaffofligini yanada oshirish jarayonida keng jamoatchilik uchun qator masalalar bo'yicha ochiq ma'lumot olish imkoniyati yaratilmoqda. Jumladan, endilikda jamoatchilik, jurnalist va blogerlar byudjet daromadi va xarajatlarining taqsimlanishi, soliqlardan hududlar byudjetiga ajratmalar, subvensiyalar va boshqa byudjetlararo transfertlar miqdori, davlat byudjetida nazarda tutilgan nafaqalar, pensiyalar haqidagi axborotlar bilan tanishib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'zbekistonda soliq tizimi faoliyati samaradorligini oshirish, raqamlashtirish va markirovkalash tizimini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarning daromadliligi va davlat byudjetiga yukini inobatga olib, ularni tasniflash hamda loyiha yo'nalishlari bo'yicha boshqarish tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda samarali pul-kredit siyosati olib borilishi iqtisodiyotda inflyatsiyani pasaytirishga erishish, tijorat banklari va kapital bozorida taklif qilinayotgan foiz stavkalarining ijobiy o'zgarishi orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirish, muomaladagi pul massasining eng maqbul hajmda bo'lishini ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

O'zbekistonda valyuta siyosati barqarorligini ta'minlash, inflyatsiyani kamaytirish hamda uzluksiz iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun asosiy omil sifatida qabul qilinib, xalqaro muvaffaqiyatli tajribalarni qo'llagan holda pul-kredit siyosati va valyutani tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Eng muhimi, soʻnggi yillarda respublikamizda olib borilgan chora-tadbirlar natijasida inflyatsiya darajasini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, monetar siyosat(davlatning pul massasi, kredit hajmi va foiz stavkalarini boshqarish orqali iqtisodiyotga taʼsir koʻrsatish siyosati) ni tubdan qayta koʻrib chiqish boʻyicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oʻtgan yillar mobaynida Oʻzbekistonda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, ilgʻor xalqaro tajribaga muvofiq monetar siyosatning yangi instrumentlarini joriy etish, milliy valyutani mustahkamlash va respublikada makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlashga alohida eʼtibor qaratildi.

Tub islohotlarimizning ilk davridayoq valyuta siyosatini liberallashtirishga katta eʼtibor qaratdik. Bu jarayonda milliy valyutaning barqarorligini taʼminlashga yoʻnaltirilgan qatʼiy monetar siyosat olib borildi. Bunda monetar siyosat usullaridan faol va samarali foydalanish, davlat qimmatli qogʻozlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalarni amalga oshirish amaliyotini hamda davlat qimmatli qogʻozlarini garovga qoʻyish bilan banklarning likvidligini oshirishga moʻljallangan operatsiyalarni joriy etish boʻyicha aniq maqsadlar belgilandi.

Markaziy bankning ichki narxlar barqarorligini taʼminlashda oʻrta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosati maqsadlariga erishish prinsipi va mexanizmlarining xorijiy markaziy banklar tomonidan qoʻllaniladigan inflyatsiyaviy targetlash rejimiga oʻtishi boʻyicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda investitsiya resurslarini faol jalb qilish uchun strategik ahamiyatga ega boʻlgan 500 dan ziyod texnologik va infratuzilmaviy loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Ularning umumiy qiymati 150 milliard AQSh dollaridan oshadi.

Salohiyatli investorlarni yurtimizga olib kelish uchun barcha hududlarda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratib, ularning jozibadorligini yanada oshirishimiz kerak.

Shu paytgacha investitsiyalarni boshqarishda faol ishga solinmagan yana bir omil - pay va venchur jamgʻarmalar faoliyatini yoʻlga qoʻyish orqali investitsiyalar portfeli hajmini 2 barobarga oshirish maqsad qilindi. Kapital bozorining rivojlanishi

yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlarning paydo bo'lishiga, ularning o'z jamg'armalarini investitsiya qilib, yuqori daromad olishiga imkoniyat yaratadi.

Tegishli vazirlikda tashkil etilgan "yagona darcha" orqali yurtimizdagi 14 ta hudud, 208 ta tuman va shaharda hamda xorijdagi barcha diplomatik vakolatxonalar orqali chet davlatlarda investorlarga zarur ko'mak va xizmatlar ko'rsatish tizimi yaratilmoqda. Shuningdek, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda mamlakatimiz tarixida ilk bor xalqaro tijorat sudi faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha aniq vazifalar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda investorlar yo'lga g'ov bo'ladigan ortiqcha byurokратиyani qisqartirish va korrupsiyani tag-tomiri bilan yo'q qilish masalalari bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning diqqat markazida bo'ladi. Bu borada boshlangan ma'muriy islohotlarni izchil davom ettirib, inson va biznesga ko'maklashadigan, ularga sifatli xizmat ko'rsatadigan ixcham va samarali davlat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Yangi O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda faol tashqi savdo siyosatini yuritishga alohida e'tibor qaratilmokda. Bu yo'nalishda, avvalo, eksport va importning mutanosib o'sishini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish vazifalari ustuvor hisoblanadi.

Ma'lumki, yangi islohotlarning dastlabki yilida valyuta bozorini tubdan isloh qilish va valyuta siyosatini liberallashtirish borasida yuz bergan ulkan o'zgarishlar mamlakatimizda bozor unosabatlarini shakllantirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, barcha tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishida teng sharoitlar yaratishda muhim rol o'ynadi. Natijada, mamlakatning eksport salohiyatini ko'tarish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijobiy muhitini yaxshilash, chet el sarmoyalarni jalb etishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni muvaffaqiyatli bartaraf etishga muvaffaq bo'ldik.

"Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarimizni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama

qo'llab-quvvatlash siyosati amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda, xalqaro standartlarga mos korxonalar sonini 10 barobar ko'paytirib, ularning jami miqdorini 5 mingtagacha yetkazish, yurtimizda dunyoning 50 ta nufuzli brendlari ishtirokida maxsus iqtisodiy zonalar tashkil qilish kabi maqsadlar belgilangan.

Shu o'rinda eksport va importni oshirib borish, ularning mahalliy ishlab chiqarish bilan o'zaro muvozanatini ta'minlash har qanday davlat iqtisodiyoti uchun o'ta muhim va nihoyatda murakkab vazifa hisoblanadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida import hajmining eksport hajmidan ortib borishi tufayli tashqi savdo balansida defitsit ham kuzatilmoqda va bu tashvishli xoldir. Yangi O'zbekistonda eksportni oshirish, yirik korxonalarning importni almashtiruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlash, ularning hududiy korxonalar bilan hamkorligini kengaytirish hamda sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy etish rejalashtirilmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, narx-navo va inflyatsiya "jilovlab" turilmasa, kishilarning daromadi oshgan taqdirda ham qimmatchilik tufayli bu zarur samarani bermaydi.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va yaqin kelajakda aholi daromadini o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridadan o'rin olishiga erishish asosiy maqsadlardan biridir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda avvalo, inson, jamiyat va davlatning tizimli ravishda rivojlanishi hamda aholimizning ozod va obod, erkin va farovon hayot kechirish haqidagi istaklarini amalga oshirish, eng muhimi ularning hayotdan rozi qilish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkilotini barqaror rivojlanish maqsadlarining birinchi maqsadida insonning har tomonlama qo'llab-quvvatlash, qashshoqlikning barcha shakllariga barham berish mamlakat taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev 2020- yil 24 -yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojatnomada kam ta'minlangan, ijtimoiy jihatdan

qo‘llab-quvvatlashga muhtoj aholi qatlamini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha islohotlar olib borish lozimligini aytib o‘tdi. Murojatnomada “kambag‘allikni kamaytirish uchun aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish”¹⁴⁷ natijasida jamiyatning passiy aholi qatlamlarini faol fuqorolar qatlamini darajasiga olib chiqish Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

“Kambag‘allik” va “qashshoqlik” umumbashariy global muammo sifatida, uzoq davrlardan barchani: iqtisodchilar, siyosatchilarni o‘ylantirib kelayotgan masalalardan biridir. Darvoqe, “buyuk izlanishlar, inqilobiy ixtirolar yoki madaniyat va jamiyatning rivojiga katta hissa qo‘shganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri bo‘lgan Alfred Nobel mukofoti 2019-yilda iqtisod fanlari bo‘yicha “Global qashshoqlikka qarshi kurashdagi eng yaxshi yo‘llar bo‘yicha ishonchli javoblarni olishda yangicha yondashuv” ishlab chiqilganligi uchun berilganining o‘zi ham qashshoqlik masalasi jahoniy muammo ekanidan va unga bo‘lgan e‘tibor aslo susaymayotganidan dalolat beradi”¹⁴⁸. Xususan, BMT ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi davrda “54 mamlakat, 1990-yilga nisbatan kambag‘al holda yashaydi, 21 mamlakatda aholining ko‘pchilik qismi ochlikdan azoblanadi, 12 mamlakatda bolalarni boshlang‘ich savodxonlikka erishishi pasayib bormoqda, 34 mamlakatda umr davomiyligi qisqardi, 800 mln.dan ortiq kishi oziq-ovqat yetishmasligidan qiynaladi”¹⁴⁹. Hattoki, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bo‘lmish “Xitoy (mamlakat aholisining 65 foizini) va AQShda (16 foiz) ham qashshoqlik mavjud ekanligi, iqtisodiy qudrati bo‘yicha jahonda uchinchi o‘rinda turuvchi Yaponiyada har oltinchi Yapon kambag‘al hisoblanadi va ularning asosiy sababi ishsizlikdir”¹⁵⁰. Bu kabi ma’lumotlar “kambag‘allik” va “qashshoqlik” muammolarini dolzarbligicha qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Kambag‘allik tushunchasi BMTning ta’rifiga ko‘ra, qashshoqlik- “bu insonning umrguzaronlik qilishi uchun zarur bo‘lgan daromad va resurslar yetishmasligi, ochlik va to‘yib

¹⁴⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <http://uza.uz>

¹⁴⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б.435.

¹⁴⁹ “Глобалне сели тсячелетия” Доклад. Узбекистан. //Экономическое обозрение. -2004. - №10

¹⁵⁰ BMT ning “Ijtimoiy himoya borasidagi Butun jahon sammiti”. <https://uzbekistan.un.org/uz/102848>

ovqatlanmaslik, ta'lim, sog'liqni saqlash yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi"¹⁵¹ (BMT ning "Ijtimoiy himoya borasidagi yuqori darajadagi Butun jahon sammiti"dan). O'zbek tilining izohli lug'atida "kambag'allik" so'zi kam, yetishmaydigan, hayotiy tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati, yo'qchilik yoki muhtojlikda yashamoq ma'nolarini bildiradi"¹⁵². O'zbek tilida "kambag'allik" so'zi bir qancha so'zlar bilan ifodalanadi. Jumladan, qashshoq, faqir, nochor, kam ta'minlangan, muhtoj, bechora, ijtimoiy himoyaga muhtoj kabilar bo'lib, ushbu so'zlar ma'lum ma'noda bir-biridan farq qilib, o'zining qo'llaniladigan joylari mavjudligini ko'rsatadi, shu sababli, "kambag'allik" tushunchasiga yagona ta'rif mavjud emasligi ta'kidlanadi.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish va uni oldini olish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholining mehnat bozorida raqobatga dosh beraolishiga oid zamonaviy bilim va kasb-hunar sohalarini egallash imkoniyatlarini yaratilishi, hududlarda ishsizlikning kamaytirish maqsadida yangi ish ovrinlarini tashkil qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Agar ushbu islohotlar amaliy jihatdan yechilmasa jamiyatning og'riqli nuqtasi sifatida saqlanib qoladi.

Sog'lom, baquvvat, intellektli ilmsevar avlodni voyaga yetkazish uchun avvalo, ta'lim va tarbiyani o'zi yetarli bo'lmasligi, buning uchun aqlli tibbiyot va aqlli oila yordamida raqamli intellektual qobiliyatni rivojlantirish va irsiyatni yaxshilash kerakligi ta'kidlanadi. Shuningdek, jamiyatda tabiiy boyliklar cheklangan bo'lsada, bilimlarning asosi bo'lgan inson qobiliyati cheksizligini ta'kidlash darkor. Mashhur olim Tomas Djefferson "Meni nochorlashtirmay fikrlarimni olib foydalangan inson, xuddi meni qorong'ulikka duchor etmay chirog'imning yorug'ligidan foydalangan inson kabidir",¹⁵³ -deb aytgan fikrlari ayni haqiqatdir. Ya'ni, bilim va uning natijalarining ayirboshlanishi uning kamayishiga

¹⁵¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.436.

¹⁵² О'zbek tilining izohli lug'ati. - Т., 2006-2008.

¹⁵³ Макаров В.Л. Экономика знаний: уроки для России // Наука и жизнь. - М, 2003.- №5.

emas, balki undan ham ziyoda bo‘lishiga olib keladi¹⁵⁴. Bu bilan, har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning eng muhim omili, bu bitmas-tuganmas hisoblangan inson omili ekanligidan, millatning ilmiy salohiyati va yuksak malakali intellektual qobiliyatli qatlami ekanligidan dalolat beradi.

Xususiy mulkka ega bo‘lish, uni tasarruf etish, iqtisodiy poydevorni mustakamlashga zamin yaratadi, bundan tashqari siyosiy, axloqiy, madaniy jihatdan rivojlanishning ham asosi hisoblanadi. Zero, “xususiy mulk bu:

birinchidan, insonning xususiy hayot tarzini belgilab beradi;

ikkinchidan, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni o‘zaro bog‘laydi;

uchinchidan, mulkdorda o‘ziga ishonch paydo qiladi;

to‘rtinchidan, insonga mehnatga ijodiy yondashish hamda Vatanga va davlatga nisbatan daxldorlik hissini tarbiyalaydi;

beshinchidan, insonlarga o‘troqlikni o‘rgatib, ijtimoiy madaniyatni rivojlantiradi;

oltinchidan, oilani jamiyatning xo‘jalik yacheykasi sifatida mustahkamlab, uni mulkiy munosabatlarga jalb qiladi;

yettinchidan, insonning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantiradi, siyosiy erkinlikka bo‘lgan to‘g‘ri yondashuvni tarbiyalaydi”¹⁵⁵.

Darhaqiqat, Yangi O‘zbekistonni barpo etish orzusi o‘zining yangi ijtimoiy iqtisodiy, huquqiy negizini yaratishi, hamda mulkdorlar qatlamining shakllanishi va qaror topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishi bilan ahamiyatlidir. Avvalo, zarur ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy asoslarni shakllantirmasdan, tegishli qonunlar va meyoriy hujjatlarni qabul qilmasdan turib, islohotlarni amalga oshirishning ishonchli kafolatini yaratib bo‘lmaydi. Chunki mustahkam negiz yaratilgan taqdirdagina, mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlarini manfaatlari hamda huquq va erkinliklarini ta’minlashga xizmat qiladigan kuchli ijtimoiy asoslar yaratiladi va Yangi O‘zbekistonning yorqin kelajagiga ishonch paydo bo‘ladi. Zero, taniqli faylasuf Adam Smitning “Mulikka ega bo‘lish huquqi bo‘lmagan odam

¹⁵⁴ Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Монография.-Т.: 2012. - .207 с.

¹⁵⁵ Исупов К., Савкин И. Русская философия собственности (XVII-XX вв.). - СПб.: Ганза, 1993. - 512 с.

hamisha kamroq ishlab, ko‘proq yeyishga intiladi. Mulkka egalik huquqi – muqaddas huquq – mehnat qilish huquqiga tayanadi. Mehnat har qanday mulkning asosidir. Hech vaqosi yo‘q kishining ham chaqqon qo‘llari bor. Kimdakim uni ana shu qo‘llarini ishlatish huquqidan mahrum qilsa, uning eng muqaddas huquqidan mahrum qilgan bo‘ladi”¹⁵⁶.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz yuksak taraqqiyotga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga o‘tayotgani, “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g‘oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”¹⁵⁷– deb bejiz ta’kidlamagan.

Yurtimizda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishi natijasida kichik biznes subyektlari ko‘lami, ishlab chiqarish hajmi, mehnat bilan band bo‘lganlarni soni, maqsadli investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqori texnologiyalarga ega bo‘lgan zamonaviy ishlab chiqarish faoliyatiga davlat barcha imkoniyatlarni safarbar qilmoqda. Eng asosiysi, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, tadbirkorlar shu choqqacha o‘zlarini qiynab kelgan qo‘rquv va umidsizlikdan xalos bo‘lib, oilasi, farzandlarining bugungi va ertangi kuniga qat’iy ishonch bilan qaray boshladi. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonda faol tadbirkorlar sinfi shakllanib, ular jamiyatimizni harakatga keltiruvchi haqiqiy kuchga, islohotlarimizning chinakam drayveriga aylandi.

“Bir narsani aslo unutmasligimiz zarur : inovatsiya bu-kelajak degani. Biz ayni kezlarda ertangi yorug‘ kunlarga tamal toshi qo‘yayotgan ekanmiz, bu borada, eng avvalo, innovatsion g‘oya va yondashuvlarga tayanishimiz kerak. Dunyodagi yetakchi mamlakatlar To‘rtinchi sanoat inqilobi, “Bilimlar iqtisodiyoti va

¹⁵⁶ Адам Смитнинг “кўринмас қўл”и. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qo'l>.

¹⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: 2018. 19- 20 b.

“Innovatsion iqtisodiyotga qadam qo‘yayotgan bir sharoitda, aynan innovatsiyalar iqtisodiyotimiz ravnaqi uchun barqaror poydevor yaratadi. Boshqacha aytganda, bugun keng ko‘lamli ilmiy-texnik kooperatsiya va yangi texnologiyalarni, ilm-fan va texnika yutuqlarini iqtisodiyotga joriy etmasdan turib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘lishga erishishni tasavvur qilib bo‘lmaydi”¹⁵⁸. 2019-yildan boshlab, mamlakatimizda innovatsion rivojlanishni tezlashtirish, iqtisodiyotning barcha sohalarida yangi ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, inson kapitali hamda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ilg‘or texnologiyalar asosida sanoatni rivojlantirish va bilim hamda innovatsion iqtisodiyot poydevorini mustahkamlashga e‘tibor qaratish zarur. Bu borada agrar, ishlab chiqarish, energetika, ta‘lim, tibbiyot sohalariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni va loyihalarni tadbiq etish Yangi O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotini mustahkamlaydi.

3.2. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tasnifi: intensiv shakldagi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlash tamoyillari

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy rivojlanishni jadallashtirishga, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Zero, jamiyat va davlatning tabiyat bilan uyg‘un ravishda taraqqiy etishi, cheklangan resurslardan oqilona foydalanishi, “yashil” energiyadan foydalanishi, “yashil taraqqiyot” tamoyili asosida iqlim o‘zgarishi hamda uning oqibatlariga qarshi kurashish tizimini mustahkamlash mamlakat taraqqiyotining garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi globallashtirish davrida insoniyat uchun iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning qisqarishi, atrof-muhitni ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi barqaror rivojlanish yo‘lidagi eng asosiy tahdidlarga aylanib bormoqda. “Tuproq, suv va havoning haddan ziyod ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, o‘simliklar va hayvonot

¹⁵⁸ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2024. –Б.84.

dunyosidagi tashvishli o'zgarishlar ekologik muammoni taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan omillardan biriga aylantirmoqda"¹⁵⁹. Bunday xavf-xatarlar mamlakatimiz qolaversa, butun Markaziy Osiyo davlatlari taraqqiyotiga, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning isboti sifatida asrimizning ilk yillaridan boshlab havo haroratining yil sayin ko'tarilayotgani, cho'llanish holatlari ortayotganligining o'zi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Bu kabi ekologik vaziyat O'zbekiston hududida ham yaqqol namoyon bo'lib ekologik barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, mintaqamizda Orol dengizi fojiasi oqibatlarini bartaraf etish, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, atmosfera havosi ifloslanishini oldini olish kabi masalalar jiddiy tus olmoqda. Ayniqsa, Orolbo'yi hududida tuproq, suv va havoning ifloslanishi, haroratning ko'tarilishi, o'simlik va hayvonot olamidagi ro'y berayotgan ekologik vaziyatning keskin yomonlashuvi natijasida, bu yerda yashayotgan aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kechiktirib bo'lmaydigan vaziyatni taqoza etmoqda.

O'zbekistondagi ekologik muammolar haqida to'xtalganda, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq masalani chetlab o'tib bo'lmaydi. Chunki Orol dengizi halokatiga davlat rahbarining "bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biridir" degan fikri ham yuqoridagi fikrlarning tasdig'idir. Mazkur muammo qisqa muddat ichida sodir bo'lgan jarayon emas. Insonning tabiatga nisbatan extiyotsizlarcha munosabatda bo'lganligi sababli Orol dengizi halokat yoqasiga keldi. Endilikda Orol dengizi muammosi butunjahon ahamiyatiga molik ekologik muammolardan biriga aylandi. Bu muammoni oldini olish va talofatlarni qisqartirish bo'yicha xalqaro jamoatchilik vakillari e'tibor qaratilayotganligi naqadar jiddiy ekologik vaziyat ekanligidan dalolat beradi. Binobarin, uning hal qilinishi yoxud ijtimoiy oqibatlarining kamaytirilishi uchun kompleks tarzda harakatlar zarur bo'ladi. O'zbekiston bu borada milliy, mintaqaviy va global

¹⁵⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.389. .

darajada amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator tashabbuslarni faol ilgari surib, tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMTning Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida: “Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda”¹⁶⁰, deb ta’kidlagandi.

Bu borada BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini oshirish”, “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish”, “Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash”, “BMT va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi o‘rtasidagi hamkorlik” kabi qator maxsus rezolyutsiyalar qabul qilindi. Shuningdek, BMTning Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni oldini olish maqsadida ko‘p tomonlama sheriklik Trast fondi tuzildi¹⁶¹. Trans fond faoliyati asosan, barqaror qishloq xo‘jaligiga, suv resurslaridan oqilona foydalanishga, tog‘ ekotizimini himoya qilishga, atrof-muhitni obodonlashtirishga, “aqlli shahar”larni yaratishga, “yashil taraqqiyot”, energiya samaradorligi, chiqindini qayta ishlash kabi sohalarda ijobiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan.

Orol dengizi xududidagi ekologik muammolarni hal etishda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish, xududdagi cho‘llanish, qurg‘oqchilik, qum-chang bo‘roniga qarshi kurashishda zamonaviy innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiyalar hamda jahonning rivojlangan davlatlar ilg‘or tajribalardan keng foydalanish masalalariga alohida urg‘u berilgan.

Buning uchun BMT, xalqaro va moliya institutlari, xususiy sektor, investor va donor mamlakatlarga Markaziy Osiyodagi ekologik muammolarni hal qilish uchun

¹⁶⁰ Mirziyoev Sh.M. Inson manfaatlari va huquqlarini ta’minlash demokratik jamiyat asosidir// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.J 2. T.:O‘zbekiston, 2018. –B.250.

¹⁶¹ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2024. –Б.376.

yetarli resurs safarbar etish, mavjud salohiyatni oshirish va yordam ko'rsatishda davom etish tavsiya qilingan.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash bugungi kunda davlat siyosati darajasi sifatida qaralmoqda. Davlatning ekologik siyosatining asosiy maqsadi mamlakat hududida ekologik xavfsizlikni ta'minlash va uning ekologik manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu borada ekologiya oid bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunlarda ekologiya, ekologik xavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Ekologik xavfsizlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. "Ekologik xavfsizlik, - deyiladi unda, - tabiiy muhit va insonning hayotiy muhim manfaatlarining xo'jalik va boshqa faoliyat, tabiiy hamda texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarining ehtimoliy salbiy ta'siridan himoyalanganlik holati"¹⁶² deb tushuntiriladi.

Aholining hayot sifatini yaxshilash, tabiyat bilan uyg'unlikda yashash, unga ehtiyotkorana munosabatda bo'lish ekologiya sohadagi xalqaro tashabbus va milliy sa'y-harakatlarimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ekologiya masalasi jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida e'zozlangan va bugungi kunda insoniyat turmush tarzining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, global iqlim o'zgarishi, cho'llanishning ortishi, Orol dengizining qurishi va ushbu mintaqadagi insonlar sog'ligidagi muammolarni sanab o'tishimiz mumkin. Inson sog'lig'i-dunyodagi eng bebaho boylik va tengsiz ne'matlardan biri hisoblanadi. Inson salomatligini asrab-avaylash uchun avvalo ekologik muammolarga qarshi kurashishimiz lozim. "Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi kasalliklarning 25-33 % ekologiya muammolari bilan bog'liqdir"¹⁶³.

Ekologiyani asrab-avaylash, atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi alohida e'tiborga molik vazifadir. Shuningdek, hozirgi vaqtda mamlakatimiz tabiiy boyliklarini saqlab qolish, oqilona foydalanish, kelajak avlodlar huquqlariga ziyon

¹⁶² Qarang: "Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"// lex.uz.

¹⁶³ Abduraxmonov Q.X . Inson taraqqiyoti. T.: Fan va texnologiyalar, 2013. –B. 293.

yetkazmaslik muhim masalalardan biridir. Tabiat bilan inson o‘zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo‘ladi, bu munosabatlar odamlarning ekologik madaniyatiga bog‘liqdir. Ma’lumki, dunyo mamlakatlarida ekologiyani asrab-avaylash, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, ekologik xatarlarni bartaraf qilish masalasiga bugungi kunda qonuniy tus berilgan. Yevropa davlatlarining aksariyat qonunlarida tabiiy resurslarni asrab-avaylash, ulardan foydalanish, saqlash bo‘yicha asosiy mas’uliyat va vakolatlar davlat zimmasiga yuklanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda atrof-muhitni asrab-avaylashga qaratilgan mustahkam huquqiy baza yaratilganligini alohida qayd etish zarur. Jumladan O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, sohaga doir 6 ta qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilindi.

O‘zbekistonning asosiy qomusida ham atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish to‘g‘risidagi me’yorlar kiritilgan. “Fuqorolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”¹⁶⁴ degan jumlada ekologik barqarorlikni ta’minlashda mamlakatimizning barcha aholisi birdek mas’ul ekanligiga ishoradir. Atrof-muhitga ehtiyotkorona bo‘lish ona tabiat oldidagi ma’naviy qarzdorlik asosida shakllanadigan tuyg‘udir. Ushbu tuyg‘u asosida mamlakat aholisi yerdan unumli foydalanish, suv va o‘rmonlarni asrab-avaylash, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish, atrof-muhitning biologik xilma-xilligini asrashga, eng muhimi ekologik bilim, malaka, ko‘nikmalarini shakllanadi. Atrof-muhitni asrash tabiiy boyliklarni saqlash va ulardan unumli, oqilona foydalanishni nazarda tutib, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘unligini ta’minlash yo‘lida olib boriladigan keng miqyosdagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, texnologik, huquqiy va boshqa tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish- bu odamlar yashaydigan muhitning qulay va xavfsiz qilishga qaratilgan choralarning majmuasidir. Tabiyatning muhim

¹⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023. –B. 24.

elementlari suv, havo va tuproq hisoblanadi. Bu elementlardan inson oqilona foydalanish, uni salbiy ta'sirlardan himoya qilish va ularni tiklashga yo'naltirilgan.

Insoniyat taraqqiyotiga xavf solayotgan omillar:

- yer yuzida haroratning ortishi;
- o'rmonzorlarning qisqarishi;
- sahro va cho'llarning kengayishi;
- tuproq unumdorligini zaharlanish natijasida pasayishi;
- suv manbalarining ifloslanishi;

- o'simlik va hayvonot turlarining yo'qolish sur'atining tezlashishi. Bu tendensiyalar ekologik vaziyatning jiddiy yomonlashishiga olib kelmoqda, chunki aholi sonining ko'payishi bilan tabiatga bo'lgan bosim kuchaymoqda.

Ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi muammolarni hal qilishda insonning tug'ilishidan boshlab hayot davomida turli omillar ta'sirida bo'lishini hisobga olish zarur.

Dunyoda demografik omillarni ortishi natijasida yangidan-yangi qurilish inshootlarini bunyod etishga ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Buning natijasida esa, atrof-muhitni ifloslanishi kabi muammolar vujudga kelmoqda. Ushbu muammolarni barataraf etish maqsadida ekologiyani himoya qilishga mas'ul tashkilotlar quyidagi ilmiy-texnik va tashkiliy choralarni joriy etdi:

- aholining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kamaytirish;
 - aholi va atrof-muhitga kimyoviy, biologik va boshqa omillar bilan zarar yetkazuvchi zararni kamaytirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish;
 - ishlab chiqarish korxonalaridan chiqadigan zararli gazlarni xavfini kamaytirish uchun tozalovchi va filtrlovchi jihozlar bilan ta'minlash;
 - Ishlab chiqarish binolarida texnika xavfsizligiga rioya qilish va xavf-xatarlarni oldini olish hamda zararlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish.
- Atrof-muhitni salbiy oqibatlardan himoya qilishning eng samarali chorasichiqindisiz yoki kam chiqitsiz texnologik jarayonlarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash yoki ularni zararsizlantirishdir.

Aholining tabiiy ko‘payishi va suv iste‘molining oshishi, shuningdek, iqlim o‘zgarishi natijasida anomal issiq ob-havoning yangi normalarga aylanishi, qorli kunlarning kamayishi va suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish sababli Markaziy Osiyoda jiddiy ekologik muammolar va suv tanqisligi yuzaga kelmoqda. Mintaqa okean va dengizlardan uzoqda, qurg‘oqchil hududda joylashgani bois, suv manbalari strategik ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo davlatlari suv resurslari bo‘yicha ikki guruhga bo‘linadi: Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekiston “quyi oqim” davlatlar, Tojikiston va Qirg‘iziston esa “yuqori oqim” mamlakatlari hisoblanadi.

Havo haroratining ko‘tarilishi suv tanqisligini yanada kuchaytiruvchi asosiy sabab hisoblanadi. Mintaqaning asosiy suv manbai qor va muzliklar bo‘lib, ularning ko‘p qismi qor shaklida tushadi. Tog‘larda qishda yog‘adigan qor yoz oylarida suvni saqlash vazifasini bajaradi. Qorlash miqdorining kamayishi vaziyatni yanada murakkablashtirib, yozgi suv ta‘minotida jiddiy muammolar paydo qilmoqda, natijada asriy muzliklar qisqarishda davom etmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda suv tanqisligi ikki yo‘nalishda sezilmoqda: birinchidan, aholining toza ichimlik suvi ehtiyoji qondirilmayapti, ikkinchidan esa qishloq xo‘jaligini suv bilan ta‘minlashda katta qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanishning eng yomon oqibatlaridan biri — Orol dengizining qurib borishidir. Natijada 5 million gektardan ortiq hududda yangi cho‘l — Orolqum paydo bo‘ldi. Qurigan dengiz tubidan tarqaladigan chang va tuz bo‘ronlari sug‘oriladigan yerlarga va aholining sog‘lig‘iga zarar yetkazmoqda. Bu hududda ichimlik suvi tanqisligi, xavfli kasalliklarning tarqalishi va yashash sharoitlarining yomonlashuvi sabab aholi ko‘chib ketmoqda, yovvoyi o‘simlik va hayvonot dunyosi yo‘qolmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, faqat Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi sa‘y-harakatlari Orol dengizining yanada qurib ketishining oldini olishi mumkin. Afsuski, mintaqa davlatlari umumiy deklaratsiyalar va memorandumlarni imzolashdan nariga o‘ta olmayapti. Orol dengizi muammolarining yechilmasligi uning asosan Qozog‘iston va O‘zbekiston hududida joylashgani, ularning “ichki dengiz”i bo‘lishi bilan bog‘liq. Qolgan davlatlar esa o‘z ichki gidroenergetika siyosatlari va intensiv qishloq xo‘jaligini

rivojlantirish maqsadlari sababli yuzaga kelgan falokatli vaziyatga yetarli e'tibor bermayapti.

O'zbekiston qonunchiligida jamiyatda barqaror rivojlanish va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, jamiyatda tabiiy resurslar va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish bo'yicha an'anaviy qadriyatlarni qaror toptirmasdan turib ekologiyani asrab qolish mumkin emas.

“Suv – ulug' ne'mat, uni asrab-avaylash – barchaning burchidir! Dono xalqimizda suv Yaratgan tomonidan insonga berilgan ulug' ne'mat ekanini ifodalovchi “suv keldi – nur keldi”, “suv qatrasini – dur qatrasini” kabi azaliy naqlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan”¹⁶⁵. Suv resurslarini tejash, undan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish milliy, mintaqaviy va global ahamiyatga egaligicha qolmoqda.

BMT baholariga ko'ra, 2050-yilga borib butun jahonda suvga bo'lgan talab 30 foiz o'sadi, binobarin, suv bilan bog'liq mojarolar va siyosiy beqarorliklar ham kelib chiqishi ehtimoldan xoli emas. Shu nuqtayi nazardan ekspertlar suvni XXI asrda davlatlararo nizolarga sabab bo'ladigan omillardan biri sifatida e'tirof etishmoqda. Zero, suv yerning 70 foizdan ko'proq qismini qoplagan bo'lsa-da, shundan atigi 3 foizi ichish uchun yaroqlidir. 2023-yilda 2 milliard odam, ya'ni Yer yuzi aholisining chorak qismi toza ichimlik suvisiz qolgan va yaqin 10 yillikda ular safiga yana 700 million kishi qo'shilishi mumkin.

Bugun dunyo siyosiy lug'atida “iqlim migrantlari” atamasi paydo bo'ldi. BMT va jahon banki ekspertlariga ko'ra bugun dunyodagi 10 foizdan ortiq migrantlar aynan o'z yashab turgan joylarini suv muammolari tufayli tark etgan. Suv tanqisligi – asrning global muammosi bo'lib, uni bartaraf etishda dunyo davlatlari birgalikda ishtirok etishi lozim.

¹⁶⁵ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2024. –Б.378.

Toza ichimlik suvi dunyoda eng notekis taqsimlangan resurslardan biridir. Har kuni dunyoda 5 ming kishi ifloslangan ichimlik suvidan foydalanish oqibatida olamdan ko'z yumadi. Olimlar taxminiga ko'ra, 2030-yilga borib, dunyo aholisining yarmi suv tanqis bo'lgan hududlarda yashashga majbur bo'ladi. Ko'p mamlakatlarda suv tanqisligi tobora oshib bormoqda.

Mintaqamiz va O'zbekistondagi joriy holatga kelsak, tabiiy iqlim o'zgarishi holatlari, aholi sonining oshishi, ishlab chiqarish tarmoqlarining o'sishi, o'z navbatida, ularning suvga bo'lgan ehtiyojlari ortib borishi tufayli suvdan foydalanish, suvga bo'lgan talab kuchayib bormoqda. Buni oldini olish uchun suv resurslari zahirasini shakllantirish, ularni saqlash, qayta ishlash tizimini yaratish lozim.

Ekspertlarning fikricha, yaqin 20 yil ichida mamlakatimizda suv tanqisligi keskin oshadi. O'zbekiston suv tanqisligi bo'yicha qizil hududlar qatoriga kirishi va oqibatda dunyodagi suv tanqis bo'lgan 33 ta davlat qatoriga tushib qolishi ehtimoldan yiroq emas.

Yuqorida keltirilgan misollar yurtimiz uchun xavotirli ekanidan kelib chiqib, suv xo'jaligidagi mavjud asosiy muammolarni obyektiv tahlil qilishimiz zarur.

Avvalambor, bizda suv manbalari zaxirasi, suv resurs tarmoqlari moddiy-texnik bazasidagi kamchiliklar, eng asosiysi, aholini hamda iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan ta'minlashda mavjud muammolar bor. Ushbu muammolarni oldini olish uchun "suv omborlari tarmog'ini kengaytirish hisobidan lalmi yerlarni oydalanishga kiritish va bunda asosiy e'tiborni sel suv omborlari va sun'iy suv havzalarini qurishga qaratish hamda shu asnoda suv iste'moli sohasida bozor mexanizmlarini hamda suv xo'jaligi obyektlarini eksplutatsiya qilishda davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etishga alohida ahamiyat qaratish"¹⁶⁶ zarur. Shuningdek, suv tarmoqlarini modernizatsiyalash, suv gidrotexnik inshootlari texnik holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni xorijiy grantlar hisobidan amalga oshirish chora-tadbirlarni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir.

¹⁶⁶ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.166.

Shuningdek, suv resurslari, suv xo‘jaligi obyektlaridan samarali foydalanish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, mavjud lotok tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va almashtirish kabi yo‘nalishlardagi islohotlar chuqurlashtirilmoqda.

Suv xo‘jaligini malakali kadrlar bilan to‘ldirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi bosqichga olib chiqish ham dolzarb masaladir.

“Bugungi kunda suv xo‘jaligi tashkilotlarida oliy ma’lumotli suv xo‘jaligi xodimlarining ulushi 42 foizni tashkil etmoqda. Hozirgi paytda suv xo‘jaligi tizimidagi mutaxassislar va rahbar kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi tizim mavjud emas. Transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish va xalqaro suvga oid munosabatlar borasida ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi suv xo‘jaligi munosabatlari sezilarli ravishda yaxshilandi, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolarini hal qilish bo‘yicha ijobiy tendensiya kuzatilmoqda.

Biroq, kelgusida Amudaryo va Sirdaryoning yuqori oqimlarida yangi yirik gidroenergetik obyektlar va suv omborlari qurilishi, shuningdek, mavjudlari energetik rejimda ishlatilishi daryolarning quyi oqimida joylashgan davlatlar, shu jumladan, O‘zbekiston uchun ham suv ta’minotida qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, kelgusida yangi yerlarni o‘zlashtirilishi mintaqa davlatlari o‘rtasidagi suv taqsimoti muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa Orol dengizi havzasi suv resurslaridan foydalanish sohasidagi mintaqaviy huquqiy asosni yanada takomillashtirishni talab etadi”¹⁶⁷.

Shundan kelib chiqqan holda ushbu konsepsiyada mamlakatimizda suv sohadagi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagi muhim vazifalarni belgiladik:

- suv resurslarini prognozlashtirish, ularning hisobini yuritish va ma’lumotlar bazasini shakllantirish tizimini takomillashtirish hamda shaffofligini ta’minlash;

¹⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasi. 2020-yil 10-iyul PF-6024. <https://lex.uz/uz/docs/-4892953?>

- suv xo‘jaligi obyektlarini (ichimlik va oqova suv tizimidan tashqari) modernizatsiya qilish va rivojlantirish, yirik suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarishni joriy qilish, sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ajratilayotgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta‘minlash;

- suv omborlari, sel-suv omborlari va boshqa suv xo‘jaligi obyektlarining xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta‘minlash;

- suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste‘moli hisobini yuritishda raqamli texnologiyalar “Smart Water” (“Aqlli suv”) va shu kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Bizda ushbu ulkan natijalarga erishish uchun yetarli resurslar bormi degan savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. Bu savolga javob berish uchun biz qisqa vaqt ichida erishgan natijalarimizga nazar solishimiz kerak.

So‘nggi yillarda ekologik barqarorlikni ta‘minlashda “Yashil makon” umummilliy loyihasi, “yashil iqtisodiyot” doirasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga zararli ta‘sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan 2008-yilda rasman ilgari surilgan. Ushbu dasturda yashil iqtisodiyot “inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta‘minlaydigan, ayni paytda ekologik xavflarni va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni kafolatlaydigan iqtisodiyot” deb ta‘riflanadi. Bu iqtisodiyot modeli uglerod chiqindilarini kamaytirishga, energiya va resurslardan samarali foydalanishga, barqaror qishloq xo‘jaligi, yashil texnologiyalar va ekologik toza sanoatga e‘tibor qaratadi¹⁶⁸.

Yashil iqtisodiyot global muammolarga ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror yechimlar topishga intilish orqali shakllandi va hozirgi kunda jahon iqtisodiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. U zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning markaziy tamoyillaridan biri sifatida paydo bo‘lib, ekologik barqarorlikni iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlik bilan uyg‘unlashtirishga

¹⁶⁸ <https://www.unep.org/explore-topics/resource-efficiency/what-we-do/policy-and-strategy/green-economy>

qaratilgan. Bu yondashuv tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish orqali kelajak avlodlar uchun sog'lom va barqaror muhit yaratishga intiladi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlash orqali insoniyat farovonligini oshirishdir. Shu bilan birga, bu iqtisodiyot model barqaror taraqqiyot va ijtimoiy adolatni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi, global isish, atrof-muhitning ifloslanishi va resurslar tanqisligi kabi dolzarb muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, davlatlar, korxonalar va jamoatchilikning barqaror kelajak uchun birgalikdagi harakatlarini talab etadi.

“Yashil iqtisodiyot” ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim vositasi hisoblanadi. U barqaror rivojlanishni ta'minlash usullaridan biri sanaladi. “Yashil iqtisodiyot” sog'lom atrof-muhitga bog'liq va barcha uchun farovonlik manbai bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda “yashil iqtisodiyot”ga o'tish, uglerod neytralligiga erishish mamlakat taraqqiyotini rivojiga olib keladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, “respublika shaharlari va tuman markazlari hamda aholi punktlarida ekologik vaziyat va havo tozaligini yaxshilash hamda transchegaraviy garmisel shamollari va chang-qum bo'ronlarining atrof-muhitga zararli ta'sirlarining oldini olish maqsadida “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshira boshladik”¹⁶⁹. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida barcha hududlarda “yashil bog'lar” va “yashil jamoat parklari”ni barpo etish, tabiyatga ehtiyotkorana munosabatda bo'lganlarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish kabi masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun barcha aholi maskanlari “yashil maydonlar”ni ko'paytirish, davlat idoralari, korxonalar, oliygohlar o'zlarining “yashil bog'lari”ni tashkil etish, yangi uy-joy

¹⁶⁹ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2024. –Б.401.

qurishda pudratchilarga “yashil hudud” va avtoturargoh barpo etish choralari ko‘rish lozim. Zero, ekologik vaziyatni yaxshilash uchun har bir fuqaro o‘z oilasi va mahallalarida yangidan-yangi daraxtzoru bog‘lar barpo etish choralari ko‘rishda jamiyat ekologik barqarorlikka erishadi.

Hozirgi davrda ekologik barqarorlikni ta’minlashga oid muammolardan yana biri havoning keskin ifloslanish masalasi butun mamlakatlarni qattiq tashvishga solmoqda. “XX asrning 70-yillarida har yili biosferaga o‘rtacha 40 milliard tonnadan ortiq ishlab chiqarish chiqindilari tashlanardi. 2024-yilga kelib uning hajmi 100 milliard tonnaga yetdi. Xavo ifloslanishi sabab kelib chiqadigan turli kasalliklar har yili 7 million kishini hayotdan erta olib ketmoqda. Ularning ko‘pchiligi saraton, nafas olish yo‘llari yoki yurak kasalliklariga chalingan. Bolalarda ko‘p hollarda astma, surunkali o‘pka kasalliklari, o‘sishning sekinlashishi, semirish va aqliy zaiflik paydo bo‘lishi ehtimoli ko‘proq bo‘lar ekan”¹⁷⁰. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda dunyoda Avstraliya, Finlyandiya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Estoniya shuningdek, Grenada va Mavrikiy orol davlatlari havo sifati standartlariga to‘liq javob beradi. Bundan tashqari, dunyoning uchdan bir qismi davlatlarida havo sifati standartlarini belgilovchi normativ hujjatlari mavjud emas.

Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ekologik tahdidlarni oldini olish, atrof-muhitni asrash, Orol dengizi mintaqasidagi vaziyatni yumshatish borasidagi amaliy chora-tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, Mo‘ynoq tumanida bugungi kunda 82 ta obyekt, jumladan tuman markazida 48 ta obyekt qurilish, ta’minlash ishlari olib borilyapti. 2018-yilning 17-dekabridan boshlab Orolning qurigan hududida saksovul ekish ishlari boshlanib, dastlabki natijalar ko‘zga tashlana boshladi. Xususan, urug‘ sepilgan 468 ming gektar maydonning qariyb 100 ming gektarida saksovul nihollari unib chiqdi. Shuningdek, ko‘chat ekish uchun rejalashtirilgan 1 million 100 ming gektar yerda chuqurliklarga unumdor tuproqlar to‘ldirilib, hozirda ushbu maydonlarda ko‘chat ekish ishlari olib borilmoqda.

¹⁷⁰ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2024. –Б.396.

Bu esa, Orol mintaqasida atrof-muhitning joriy holatini yaxshilash, yangi ekologik xavf-hatarlarni oldini olishga oid chora-tadbirlar O'zbekiston aholisining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Bundan tashqari atrof-muhitni muhofaza qilishga doir 2030-yilgacha bo'lgan davrda Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Konsepsiya ko'rsatib o'tilgan davrda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, ularning amalga oshirilishi esa kelajak avlodlarning manfaatlari yo'lida davlatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash imkonini beradi.

Konsepsiyaning maqsadi:

- O'zbekiston Respublikasi aholisining hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof-muhitning qulay holatini ta'minlash;

- atrof-muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta'sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish;

- atrof-muhit obyektlaridan oqilona foydalanishni va biologik resurslar qayta tiklanishini ta'minlash kabi maqsadlar zahirida atrof-muhitga minimal og'irlik tushiradigan barqaror rivojlanishni ta'minlovchi jamiyatni shakllantirish g'oyasi yotibdi.

Aholi salomatligi, atrof-muhit obodligini asrashda yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylar atrofini kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishi, turar joy binolarini qurishda "yashil maydon"larni aholining soniga mutanosib bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, barcha toifalardagi avtomototransport vositalaridan ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarining atmosfera havosiga zararli ta'sirini kamaytirish hamda "Ekologik transport" tizim

Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish ortishi, demografik o'sish va o'rtacha harorat oshishi hisobiga bug'lanish kuchayishi sababli Markaziy Osiyo mamlakatlarida yoz oylariga kelib suv manbalariga bo'lgan talab ortib bormoqda.

O'z navbatida, iqlim o'zgarishi va suv resurslaridan irratsional foydalanish oqibatida mintaqadagi asosiy suv manbalari bo'lgan muzliklar erishi tezlashgan. Suv

tanqisligi o'tkir va yaqin kelajakda hayot-mamot darajasiga ko'tarilishi ehtimoli yuqori bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy ekotizimni saqlab qolish va ehtimoliy iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish uchun bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirishi hamda o'z strategiyalarini qayta ko'rib chiqishi kerak.

3.3. Ochiq va pragmatik faol tashqi siyosatni amalga oshirishda Yangi O'zbekistonning ustuvor vazifalari

Yangi O'zbekistonning tashqi siyosati mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning ochiq va pragmatik faol tashqi siyosati o'zining insonparvarligi, ijtimoiy muammolarning hayotiy yechimlari, eng muhimi insonlarning maqsad va manfaatlarini qondirishga qaratilganligi xalqaro miqyosida e'tirof etilmoqda. Ushbu ezgu amallar nafaqat O'zbekistonda, balki qo'shni mintaqalar xalqlari hayotida ham sezilarli o'zgarishlar sari harakat dasturiga aylanayotganligidan dalolatdir. "Umuman, Yangi O'zbekistonning yangi tashqi siyosati yurtimizni taraqqiy toptirish, fuqorolarimiz uchun munosib turmush darajasini yaratish, ularning kelajakka bo'lgan ishonchini muhtakamlashga qaratilganligi bilan e'tiborga sazovardir"¹⁷¹. Mamlakatimizda olib borilayotgan tub o'zgarishlar: iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, yangi texnologiyalar, raqamlashtirish, sifatli ta'lim, malakali tibbiyot, ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish, aholiga munosib turmush sharoitini ta'minlashga oid islohotlar Yangi O'zbekistonning tashqi imidjiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, olijanoblilik, samimiyat va mehmondo'stlik, yaqin qo'shnichilik kabi ezgu fazilatlar xalqimiz mentalitetining ajralmas qismi sifatida alohida qayd etish lozim. Bugungi globallashtirish jarayonida vujudga kelayotgan turli ziddiyat va inqirozlarga qaramasdan O'zbekiston o'zining xalqaro munosabatlarning to'la qonli subyekti sifatida milliy manfaatlarini ilgari surib o'zining ochiq, faol, tinchliksevar tashqi siyosatini olib bormoqda.

¹⁷¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.331.

Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarda, O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari takomillashtirildi. Xususan, mamlakatimiz jahon hamjamiyatida qo'shni davlatlar bilan do'stona hamkorlik, tinchlik va totuvlikni mustahkamlashga asosiy urg'u qaratmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi siyosatida qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga, mintaqada siyosiy muloqot va o'zaro ishonchni mustahkamlashga e'tibor berilmoqda. Markaziy Osiyo rahbarlari Maslahat uchrashuvlari yo'lga qo'yildi, mintaqaning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan rasmiy uchrashuvlar jadallashdi, transport logistika aloqalari qayta tiklandi. Shuningdek, mintaqada hududida suvdan foydalanish, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish kabi masalalar tizimli ravishda yechim topilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalar kengayishi natijasida O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan oliy va yuqori darajadagi rasmiy tashriflar almashinuvi natijasida ikki va ko'p tomonlama shartnomalar 2027-yilda O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, 2018-yilda esa Tojikiston bilan strategik sheriklik bo'yicha shartnomalar imzolandi. 2022 -yil O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida "Ittifoqchilik munosabatlarini o'rnatish to'g'risi"da shartnoma imzolandi. Bundan tashqari 2022-yil 7- iyulda Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to'rtinchi Maslahat uchrashuvi doirasida "XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadida do'stlik, ahil qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risida" gi shartnoma imzolandi. Bunday ikki va ko'p tomonlama Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi shartnomalar O'zbekiston olib borayotgan tinchlikparvar, pragmatik va faol diplomatiyaning mahsulidir. Bu esa, Yangi O'zbekistonning mintaqaviy tashqi siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur hujjatlarning imzolanishi global miqyosda muloqot va ishonch taqchilligi ortib borayotgan bir paytda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida do'stlik va hamkorlikning rivojlanishi namuna sifatida namoyon bo'lmoqda.

So‘nggi yillarda nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari bilan ahil qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik mustahkamlanmoqda, balki dunyoning boshqa mintaqalari, xususan Yevropa, Amerika, Kavkaz, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Arab davlatlari, Hind va Tinch okeani mintaqalaridagi davlatlar bilan siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar va strategik hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Xususan, “Markaziy Osiyo xalqlarini ming yillik qardoshlikl va yaxshi qo‘shnichilik, quad-andachilik rishtalari bog‘lab turadi. Xalqlarimiz hamisha bir-biriga elkadosh va hamjihat bo‘lib yashab kelgan. Bizni yagona tarix, yagona din, umumiy madaniyat va an‘analar birlishtiradi”¹⁷². O‘zbekistonning tashqi siyosati, falsafiy jihatdan mustaqillik, xavfsizlik, mintaqaviy va global hamkorlik, hamda iqtisodiy rivojlanish tamoyillari asosida qurilgan. Ushbu tamoyillar, davlatning mustaqil va barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston, o‘zining tashqi siyosati orqali nafaqat milliy manfaatlarini himoya qiladi, balki mintaqaviy va global darajada ham o‘z o‘rnini mustahkamlashga intiladi.

O‘zbekistonning tashqi siyosati, ochiq va pragmatik yondashuvni o‘z ichiga olgan holda, mamlakatimiz milliy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan. Tashqi siyosat masalasi asosiy qomusimizda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda halqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalarga asoslanadi”¹⁷³ deb nomlanishi mamlakatimiz xalqaro xamjamiyat bilan o‘zaro manfaatli kelishuvlarni amalga oshirishga tayyor ekanligi hamda manfaatdorligiga ishoradir.

Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash-Yangi O‘zbekiston, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va taraqqiyot uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda. Bu, qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy

¹⁷² Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2024. –Б.459.

¹⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023.- B. 8.

aloqalarni kuchaytirishni anglatadi. Bu borada ota-bobolarimizning “Qo‘shning tinch-sen tinch”, “Hovli olma, qo‘shni ol” degan naqlda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turman, tojik xalqlari bilan tinch-totuv, do‘st-inoq bovlilib yashab kelayotganligi Yangi O‘zbekistonning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilganligi Markaziy Osiyo zaminida barqaror taraqqiyotni ta‘minlashga zamin yaratadi. “Biz o‘tgan davrda “O‘zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo-bosh ustuvor yo‘nalish” tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishdik”¹⁷⁴. Buning natijasida, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, yaxshi qo‘shnichilik hamda barqaror rivojlanish makoniga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida amaliy natijalarga erishishida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvlarining o‘rni beqiyosdir. Xalqaro ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, yaqin 10 yil ichida Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti, aholini farovonligi, yalpi ichki mahsuloti kamida ikki barobar oshishini ilmiy dalillarga tayangan holda tahlil qilingan. Zero, mintaqadagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashdan barcha mamlakatlar barqaror taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omildir. Birgina, so‘ngi yillarda mintaqa iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga oid yangi shartnoma va kelishuvlar imkonini bergan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari hududdagi ijtimoiy muammolarni amaliy jihatdan yechishda mustahkam asos bo‘ldi.

Markaziy Osiyo mintaqasining turli balo-qazolardan asrash, nizo va qarama-qarshiliklardan himoya qilish, tinchlik va farovonlikni bardavom bo‘lishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar qilish har qachongidan ko‘ra dolzarblik kasb etadi. Buning uchun “...mintaqaviy integratsion jarayonlar qo‘shnilar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kuchaytirishga asoslanishi, har birimiz qo‘shnimizning yutug‘ini-o‘zimizning ham yutug‘imiz, uning tinch va farovon hayotini-butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi”¹⁷⁵ deb bilishimiz darkor.

¹⁷⁴Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б. 3621.

¹⁷⁵ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2024. –Б.460.

Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasida “Toshkent xalqaro investitsiya forumi”, “INNIPROM. Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi, “Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy biirdamlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi, “Markaziy Osiyo uchun yashil kun tartibi” mintaqaviy dasturlari borasida bir qator forumlar, uchrashuv va dasturlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, mamlakatimizda bir necha yillardan buyon o‘tkazilayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi bugungi kunda eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ularni yechimi bo‘yicha ilg‘or g‘oya va zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishda o‘ziga xos ravishda maydondonga aylandi. Birgina 2024-yilda o‘tkazilgan forumda dunyoning 93 ta mamlakatidan 2,5 mingdan ziyod xorijiy delegatlarning O‘zbekistonga tashrif buyurishi mintaqamizda vujudga kelayotgan tadbirkorlik va ularga yaratilgan qulay investitsiyaviy muhitga ishonchi ortayotganligiga ishoradir.

Hamkorlikda amalga oshirilayotgan barcha dastur va loyihalar Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro ishonch va hurmatni mustahkamlab, ularning manfaatlariga javob beradigan, milliy va xalqaro miqyosidagi muammolarni birgalikda barataraf qilishga oid hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Eng muhimi, mintaqadagi ijobiy o‘zgarishlarni bugun qo‘shni davlatlardagi barcha xalqlar kundalik hayotida yaqqol namoyon bo‘lmoqda, barqarorlik va birdamlik yanada mustahkamlanmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy o‘sish va qulay investitsiyaviy makon markazlaridan biriga aylanmoqda. “Umuman olganda, bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘p yillardan buyon yig‘ilib qolgan barcha muammolar-suv resurslaridan oqilona foydalanishdan tortib, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegara punktlaridan o‘tish va chegara oldi hududlarida savdoni rivojlantirish kabi juda murakkab masalalarga echim toppish uchun mutlaqo yangi, konstruktiv siyosiy muhit va qulay sharoitlar yaratildi”¹⁷⁶. Bularning barchasi Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining barqaror rivojlanishiga qaratilgan

¹⁷⁶ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.365.

strategik say-harakatlardir. Bu harakat natijasida barcha muammolarni teng huquqlilik, o‘zaro hurmat tamoyillari asosida bartaraf etishga oid maqsad sari birlashishni taqoza etadi.

Markaziy Osiyo davlatlari bir-birlari bilan har tamonlama hamkorlikni amalga oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xalqaro siyosiy lug‘atlarda mintaqaviy taraqqiyotni ta‘minlashga xizmat qiluvchi modelni aks ettiruvchi yangi “Markaziy Osiyo ruhi” atamasi paydo bo‘ldi. “Bugun biz global va mintaqaviy siyosat kun tartibidagi ko‘plab dolzarb masalalar bo‘yicha yagona pozitsiyada turib harakat qilmoqdamiz. Mamlakatlarimiz 2017-yildan buyon Markaziy Osiyoda taraqqiyot va sheriklikning muhim masalalari bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining 10 dan ziyod rizolyutsiyasi qabul qilinishiga erishdi”¹⁷⁷. Mamlakatimiz tashabbusi bilan yaqin qo‘shnichilik aloqalarini yo‘lga qo‘yilishi xalqaro hamjamiyatlar tomonidan e‘tirof etilmoqda. Qisqa davr ichida O‘zbekistonga nisbatan ishonch va o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishga intilish keskin kuchaydi. O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga e‘tibor qaratmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni mustahkamlash, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun qo‘shma loyihalar amalga oshirish, savdo va investitsiyalarni oshirish muhimdir.

Mintaqaviy hamkorlik — bu bir yoki bir nechta davlatlar o‘rtasida geografik mintaqada iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda o‘zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlikni anglatadi. Mintaqaviy hamkorliklar mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash va umumiy muammolarni hal etishda birgalikda harakat qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Strategik hamkorliklarni rivojlantirish O‘zbekiston uchun iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati mamlakatning xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlash, barqaror rivojlanish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi. Buning uchun strategik

¹⁷⁷ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2024. –Б.464.

hamkorliklar doirasini kengaytirish, sifatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirish zarur.

Buning isboti sifatida bugungi kunda "Markaziy Osiyo +" formatida 10 dan ortiq hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilganligi mamlakatimizda barqaror rivojlanish sari dadil qadamlar tashlayotganligidadir. O'zbekiston tashqi siyosatining eng katta yutuqlaridan biri bu, Markaziy Osiyo mintaqasida tinch va gullab-yashnayotgan, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ezgu vazifalardir. Ushbu vazifalar O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlash, global muammolarni hal qilishda faollik ko'rsatish va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan strategiyadir. Ushbu strategiya mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va harbiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan jarayon bo'lib, bu aloqalar o'zaro manfaatlarni va umumiy maqsadlarni ko'zlaydi. O'zbekiston strategik hamkorliklar orqali yangi bozorlarni ochish, savdo aloqalarini kengaytirish va mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini yaratadi. Mintaqaviy hamkorlik orqali davlatlar o'zaro savdo va investitsiya almashinuvi imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, yangi iqtisodiy o'sish nuqtalari va taraqqiyotning ilg'or yo'nalishlarini belgilash, savdo-sotiqni yanada kengaytirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish mintaqada barqarorlikni ta'minlaydi. Buning uchun hududlar o'rtasida erkin savdo tartibini joriy qilish, ishlab chiqarish kooperatsiyalari jadal rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratish, yirik mintaqaviy bozorni shakllantirish lozim bo'ladi. Natijada, mintaqaga xorijiy investorlar uchun amaliy loyihalarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratiladi. "Mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi muhim ustuvor yo'nalishi dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategik sheriklik hamda hamkorlikning muvozanatlangan tizimini

shakllantirishdan iborat”¹⁷⁸. Xorijiy investorlar Markaziy Osiyo mamlakatlari ichki bozorlarida raqobat muhitini rivojlantirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirishdan manfaatdor. “Sohada muvaffaqiyatli sheriklik bo’yicha muayyan tajribalar to’plandi. Yengil avtomobillar, maishiy texnika, to’qimachilik mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hamda Qozog’iston, Qirg’iziston, Turkmaniston, shuningdek, Ozarbayjon bilan chegaraoldi hududlari kooperatsiyasi muvaffaqiyatli yo’lga qo’yilgani bunga dalildir”¹⁷⁹. Strategik hamkorliklar orqali mamlakatlar o’rtasidagi siyosiy barqarorlikni ta’minlash, mintaqaviy va global xavfsizlikka hissa qo’shish imkoniyatlarini oshiradi.

Mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga qo’shilish orqali O’zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sanoat diversifikatsiyasini ta’minlash mumkin. Natijada, mintaqaviy iqtisodiy hamkorliklar sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar sohasini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, mintaqaviy hamkorliklar mamlakatlar o’rtasida siyosiy aloqalarni mustahkamlash, konfliktlarni oldini olish va xalqlar o’rtasida do’stlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mintaqaviy hamkorlik davlatlar o’rtasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan jarayon bo’lib, u barqaror rivojlanish va xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorliklar mamlakatlarning o’zaro manfaatlarini ko’zlash, global va mintaqaviy muammolarni birgalikda hal etish imkoniyatlarini yaratadi. Mintaqaviy hamkorliklar nafaqat iqtisodiy o’sishni rag’batlantiradi, balki xalqlar o’rtasidagi do’stlik va hamjihatlikni rivojlantirishga ham yordam beradi. Bu esa, O’zbekistonning tashqi siyosatining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O’zbekiston Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan o’zaro hamkorlik aloqalarini olib borishi mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan

¹⁷⁸ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O’zbekiston, 2024. –Б.334.

¹⁷⁹ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O’zbekiston, 2024. –Б. 467.

biridir. Soʻngi yillarda Oʻzbekiston va Yevropa Ittifoqi oʻrtasida quyidagi aloqalar rivojlanmoqda. Bular :

- Oʻzbekiston bilan Yevropa Ittifoqi oʻrtasida hamkorlik asosida siyosiy muloqot;

- savdo-iqtisodiy aloqalar;

- sarmoya;

- intellektual mulkni himoya qilish;

- qonunchilik hamda inson huquqlari boʻyicha hamkorlik;

- madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalar jadallik bilan rivojlanmoqda.

Oʻzbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini, eng avvalo demokratik yangilanishlar, inson kapitalini rivojlantirish, investitsiya va innovatsiyalarni ilgari surish, yashil iqtisodiyot, yashil taraqqiyot, ekologiya, madaniy-gumanitar yoʻnalishlardagi hamkorliklar Yangi Oʻzbekiston barqaror taraqqitini rivojiga zamin yaratadi.

Yangi Oʻzbekistonning tashqi siyosati xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar bilan oʻzaro hamkorlikka asoslanadi. Xususan, BMT, Yevropa ittifoqi, Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar hamda Yevropa, Amerika, Osiyoning yetakchi davlatlari bilan oʻzaro hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Ushbu hamkorlik aloqalarining huquqiy asosi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan.

“Oʻzbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va koʻp tomonlama munosabatlarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdoʻstliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin”¹⁸⁰ degan jumla Oʻzbekiston tashqi siyosati barqaror taraqqiyotni mustahkamlashga qaratilganligiga ishoradir. Tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish — bu

¹⁸⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: Oʻzbekiston, 2023. –B. 8.

mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni, savdo, investitsiya va boshqa iqtisodiy faoliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan jarayon. Tashqi iqtisodiy aloqalar davlatning iqtisodiy o'sishi, barqarorligini ta'minlash va global iqtisodiyotda o'z o'rnini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda, global bozorda raqobatbardoshligini oshirishda va ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi texnologiyalarni kiritish, madaniy almashish va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda birgalikda harakat qilish imkoniyatlarini yaratadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va barqaror rivojlanish yo'lida samarali harakat qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida asosiy rollarni o'ynayotgan Xitoy xalq respublikasi bilan mamlakatimiz o'rtasida yaqin qo'shnichilik, har tomonlama strategik sherikchilik aloqalari mustahkamlanmoqda. "O'zaro manfaatli hamkorlikning huquqiy bazasini do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma, Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi qo'shma deklaratsiya va boshqalar tashkil qilmoqda"¹⁸¹. Shuningdek, ikki xalq o'rtasida do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashda O'zbekiston-Xitoy madaniy-gumanitar aloqalari yuksak darajada ko'tarilmoqda. Ayniqsa, uzoq muddatli manfaatlariga mos ravishda ikki davlatning barqarorligi, xavfsizligi, izchil ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi o'zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanib borilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning Birlashgan Arab Amirlilari, Saudiya Arabistoni, Qatar, Misr, Quvayt kabi Yaqin Sharq kabi mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi yangi darajaga ko'tarilayotganligi mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik —

¹⁸¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.336.

bu mamlakatlar o'rtasida o'zaro manfaatlarga asoslangan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash uchun xalqaro tashkilotlar, birlashmalar va platformalar orqali amalga oshiriladigan jarayondir.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu hamkorlik orqali davlatlar global va mintaqaviy muammolarni birgalikda hal qilish, o'zaro manfaatlarga asoslangan aloqalarni mustahkamlash va barqaror rivojlanish yo'lida samarali harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xalqaro tashkilotlar orqali o'rnatilgan hamkorliklar nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, ekologik barqarorlikni saqlash va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Savdo aloqalarini rivojlantirish mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro bozorda o'z o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon o'zaro manfaatlarga asoslangan savdo siyosati, mintaqaviy hamkorlik, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi. Savdo aloqalarini rivojlantirish orqali mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi va global iqtisodiyotda barqaror o'sishga erishish mumkin.

Ochiq va pragmatik faol tashqi siyosat, mamlakatlarning global maydondagi o'zaro munosabatlarini mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni oshirish va global muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv davlatlar o'rtasidagi ishonchni oshirish, savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish, madaniy almashuvlarni kengaytirish va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ochiq siyosat mamlakatlarni raqobatbardosh qilishga yordam berish bilan birga, ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Ochiq tashqi siyosat mamlakatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Strategik hamkorliklar, iqtisodiy aloqalar va ijtimoiy hamkorlik orqali O'zbekiston o'zining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Barqaror rivojlanish — bu iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni birlashtirgan holda insoniyatning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan rivojlanish

modelidir. U kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini cheklamasdan, hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutadi. Barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi — tabiat va insonning bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashdir.

Barqaror rivojlanish nafaqat iqtisodiy muvaffaqiyat, balki ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. U jahon miqyosida dolzarb muammo bo'lib qolmoqda va har bir mamlakatning rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. O'zaro hamkorlik va innovatsiyalar orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, kelajak avlodlar uchun barqaror va farovon hayot sharoitlarini yaratishga yordam beradi.

Global muammolarni hal qilish uchun barcha davlatlar o'zaro hamkorlikda faol harakat qilishlari zarur. Innovatsiyalar, ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash global muammolarni hal qilishning asosiy kalitlaridir. Shu bilan birga, davlatlar o'zaro ishonch va ochiq muloqot asosida Barqaror rivojlanishga erishish yo'lidagi muammolarni bartaraf etish uchun mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional sohalarda keng qamrovli islohotlar olib borishlari kerak. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish ham global muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonning ochiq va pragmatik faol tashqi siyosati mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Strategik hamkorliklar, iqtisodiy aloqalar va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish orqali O'zbekiston xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin. Biroq, mavjud muammolarni hal qilish va samarali dasturlarni amalga oshirish zarur. O'zbekistonning tashqi siyosati global miqyosda barqarorlikni ta'minlashga va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

III bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishi orqali ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va xalqaro hamkorlikni ta'minlashni maqsad qilmoqda. Buning natijasida aholining farovon turmush tarzi yuksaltirishi, munosib mehnat sharoitlarni ta'minlash, ekologik jihatdan toza mahsulotlarni yetishtirish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish xalq faronligini ta'minlashning asosiy garovi bo'lib xizmat qiladi. Zero, mamlakat taraqqiyotining mustahkamlashda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy sohalarni rivojlantirish, fuqorolarning farovon yashashi uchun to'la qonli ishart-sharoitlar yaratish davlatning asosiy vazifasi sifatida qaralmog'i zarur.

Yangi O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning strategik istiqbollarini amalga oshirish natijasida:

birinchidan, davlatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholiga xizmat qilish ko'omini tubdan yaxshilash, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish orqali barqaror ijtimoiy muhit yaratildi. Natijada davlat, jamiyat va xalq farovonligi ta'minlanmoqda.

ikkinchidan, atrof-muhit, ekologik muammolarni bartaraf etish uchun barqaror resurslarni boshqarish, yashil energiya va ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etilmoqda.

uchinchidan, jamiyatda ijtimoiy sohalar sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, kuchli ijtimoiy himoya, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga e'tibor qaratish natijasida aholi farovonligi ijtimoiy islohotlarimizning bosh mezoniga aylandi.

to'rtinchidan, xalqaro tashliklotlar va davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, yaqin qo'shnilik siyosati, tajriba va ma'lumotlar almashish orqali barqaror rivojlanish maqsadlarini birgalikda amalga oshirishga oid ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik masalalarida yangicha tizimi yaratildi. Natijada, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarni birlashtirgan holda, ushbu maqsadlar mamlakatni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

IV Bob. Yangi O‘zbekistonda inson barqaror taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va ularning zamonaviy tendensiyalari

Annotatsiya: “Yangi O‘zbekistonda inson barqaror taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va ularning zamonaviy tendensiyalari” deb nomlangan to‘rtinchi bobda Yangi O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratishning ijtimoiy-ma’naviy omillari, “O‘zbekiston-2030 strategiyasi” mamlakat barqaror rivojlanishining strategik ahamiyatiga oid g‘oyalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ekologik sohalaridagi islohotlar jamiyat va davlat taraqqiyotining barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Yangi O‘zbekistonda jamiyatni siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan modernizatsiya qilish, demokratik tamoyil va me’yorlarni hayotga tatbiq etish, davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish, mavjud qonunlar va iqtisodiy tizimni qayta ko‘rib chiqishning samarali mexanizmlarini yaratish bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar barqaror taraqqiyot uchun zamin yaratadi. Natijada, odamlarning turmush tarzi yuksaladi, orzu, maqsad-muddaolari mavhum hayotda emas, balki bugun farovonlikka erishishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “so‘z erkinligi”, “din va e’tiqod erkinligi”, “gender tenglik”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi”, “xususiy mulk daxlsizligi”, “jamoatchilik nazorati”, “inson huquq va erkinliklari” singari demokratik tushunchalar va hayotiy ko‘nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e’tiborlidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o‘ziga xos tizimi yaratildi. Xususan, temir daftar, ayollar daftari, yoshlar daftari, mahallabay, xonadonbay ishlash usullari jamiyatda ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamini qo‘llab-quvvatlashga oid mexanizmlari amalga oshirilishi Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotiga zamin yaratdi. Shu nuqtai nazardan mazkur bobda Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va zamonaviy tendensiyalari, mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda asosiy omil hisoblanishi bugungi kun ruhiyati nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

4.1. Yangi O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratishning ijtimoiy-ma’naviy omillari

Ma’lumki, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari oqibatlariga qaramasdan, jamiyat barqarorligini ta’minlashda ma’naviy sohanining roli beqiyosdir. Zero, milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida aholining intellektual salohiyatni oshirish davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratish dolzarb strategik vazifa hisoblanadi. Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyatli bajarishda, eng avvalo, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy omillar uyg‘unligiga erishish, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy ong va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tarixiy voqeyalardan ma’lumki, har qanday taraqqiyot va rivojlanish, eng avvalo inson huquq va imkoniyatlari ta’minlanganligi, ma’naviy kamoloti yuksalishi, ilm-fanni ravnaq topishi bilan uzviy ravishda bog‘liq bo‘ladi. Xususan, Sharq uyg‘onish davrini boshlab bergan birinchi Renessans davri (IX–XII asrlar) va ikkinchi Renessans davri (XV–XVI asrlar)da Movaraunnahr va Xuroson diyoridagi buyuk mutafakkir va olimlarni yetishib chiqishi aynan jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitga bo‘lgan e’tibor natijasida vujudga kelgan.

Mazkur salohiyat jahon hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilgan bo‘lib, xalqimizning boy ilmiy va ma’naviy merosi dunyo madaniyati hamda ma’naviy taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani hammaga ma’lum. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy va Abu Ali ibn Sino aniq hamda tabiiy fanlar rivojiga, Imom al-Buxoriy, Imom Moturudiy va Imom Termiziy hadis ilmining taraqqiyotiga, Abu Nasr Forobiy adolatli jamiyat va komil inson g‘oyalarini rivojlantirishga, Burhoniddin Marg‘inoniy esa islom huquqshunosligi ilmini yuksaltirishga katta hissa qo‘shgan. Ularning davlat va jamiyat boshqaruvi, shuningdek, ijtimoiy muammolarni huquqiy hal etish bo‘yicha ilgari surgan g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.

Aynan shu omillar Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-ma’naviy poydevorini yaratishda, ilm-fan, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat sohalarini takomillashtirish va ularni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish Uchinchi Renessansni yaratishga xizmat qiladi.

“Dunyoga buxoriylar, beruniylar, termiziylar, moturidiylar, xorazmiylardek buyuk alloma va aziz-avliyolarni bergan jonajon Vatanimiz yoshlari ulug‘ ajdodlariga munosib bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur”¹⁸² degan fikrda ma’naviy komillik darajasiga ko‘tarilgan allomalar merosini bugungi kun ruhiyati asosida o‘rganishni taqozo etadi. Ma’lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan o‘rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi¹⁸³.

Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, ularda turli axborot xurujlari va g‘oyaviy tahdidlarga qarshi immunitetini hosil qilish Uchinchi Renessansning ijtimoiy-ma’naviy poydevorini yaratishda muhim omillardan biridir.

“Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning o‘qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Zero, butun xalqimiz qatori yoshlar - Yangi O‘zbekiston bunyodkorlaridir”¹⁸⁴. Bunda eng avvalo, ilm-fan va madaniyatni yuksaltirish, zamonaviy ilm yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jamiyat farovonligini ta’minlashda, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf qilishda, innovatsion taraqqiyotni mustahkamlashda har bir aholida ilmiy fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy yetuklik zarur. Bu esa,

¹⁸² Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. T.: O‘zbekiston. 2021.-B.27.

¹⁸³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

¹⁸⁴ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О‘zbekiston, 2021. –Б.54.

jamiyatda ma'naviy uyg'onishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda "Uchinchi Renessans"ni qanday barpo etamiz ?, "Buning uchun qanday ijtimoiy-ma'naviy omillarga e'tibor qaratishimiz lozim ?" degan savollar har qachongidan ko'ra dolzarblashib bormoqda. Avvalambor, mamlakatimizning ma'naviy barqarorligini mustahkam tayanchi va suyanchi bo'ladigan omil, ya'ni xalqimizning bebaho tarixiy-ma'naviy ilmiy merosi, intellektual salohiyati mavjudligidadir.

O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy yangilanishlar, qadriyat va an'analarni rivojlantirishga qaratilayotgan islohotlar "Uchinchi Renesans" poydevorini yaratishda muhim omildir. "Uchinchi Renessans poydevorini yaratish"¹⁸⁵ g'oyasi yurtimizning boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli insoniy salohiyatga egaligi zaminida paydo bo'ldi. Buning uchun eng avvalo, jamiyatda ma'naviyatni yangi kuchga, yangi harakatga aylantirish lozim. Chunki rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotga ma'naviy sohalarni yuksaltirish natijasida erishganiga guvoh bo'lganmiz. "Ma'naviy rivojlanish bu-vijdon, or-nomus va adolatni muqaddas bilib, el-yurt manfaati uchun astoydil harakat qilish demakdir. Ma'naviyat-jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezondir"¹⁸⁶. Zero, aholining ma'naviy salohiyati qanchalik yuksalgan sari jamiyatda, tinchlik, xotirjamlik va barqaror taraqqiyot bo'ladi. Shuningdek, ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda avvalo, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot, badiiy ijodiyot sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi ta'sirchanligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-ma'naviy muhitni takomillashtirish ning asosiy yo'nalishlari¹⁸⁷

Milliy va ma'naviy meros	Tarixiy-madaniy obidalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va ajdodlar merosini asrab-avaylash.
	Buyuk mutafakkir allomalar ilmiy merosi, tarixiy shaxslarning davlat va jamiyat boshqaruviga oidilmiy, falsafiy qarashlarining targ'ib qilish.
	Yoshlar o'rtasida turli ma'naviy tadbirlarni o'tkazish vabarcha darajadagi tashkilot, muassasalarda Ma'naviyat haftaligiga oid loyihalarni amalga oshirish.

¹⁸⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.32.

¹⁸⁶ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2024. –Б.261.

¹⁸⁷ Muallif ishlanmasi

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish	Fuqorolarda Vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor, ijtimoiy mas'uliyat kabi tuyg'ularini shakllantirishga doir STARTAP va turli festivallarnio'tkazish .
Ta'lim-tarbiyani rivojlantirish	Ta'limning barcha ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish.
	Ta'lim tizimi jarayoniga zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tatbiq etish orqali ma'naviy muhitni takomillashtirish.
Ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot va tashviqotni kuchaytirish	Milliyo'zlik va tarixiy xotirani mustahkamlashda kino, teatr, badiiy adabiyotni tarannum etadigan turli mediya vositalarni takomillashtirish.
	ijtimoiy tarmoqlar orqali taqdim etilayotgan ijobiy kontent ishlab chiqish va ommalashtirish.
Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligini samarali yo'lga qo'yish	Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy muhitini takomillashtirish — bu nafaqat davlat siyosati, balki har bir fuqaroning, ziyolilar va yoshlarning umumiy burchidir.
	jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit, yuksak ma'naviyat, milliy mustaqillik va xalq farovonligi ta'minlash.
	Jamiyatdagi axloq mezonlarini asrab-avaylash, yoshlarni turli yot g'oyalarga qarshi immunitetini mustahkamlash, ijtimoiy hayotda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usini shakllantirish

Jamiyatning ozuqa mezonlari bu - ma'naviy yuksalishdir. Bunday qonuniyatlarning ziddiyatli tahlili va uning dialektik rivojiga oid vatanimiz tarixida og'riqli misollar mavjud. Jumladan, xonliklarning parchalanishi, o'zaro konsensusga kelinmaganligi, ularning tashqi mustamlakachilarga siyosiy qaramlikka sabab va oqibatlarini misol keltirish mumkin. Bu borada, ma'rifatparvar jadid namoyondalari mustamlakachilik zulmiga tushib qolishning asl sabablaridan biri sifatida xalqning savodsizlik, ma'naviy qashshoqlik, ommaviy jaholat kabi illatlar millatni batamom qaramlik asoratiga olib kelganligini ta'kidlaydi. Buning falsafiy mohiyati shundan iboratki, inson ma'naviyatidagi ojizlik, millatni jaholat sari yetaklaydi. Jamiyatda xiyonat, razillik, molparastlik, o'zi bo'larchilik kayfiyatidagi aholi qatlami sonini ko'payishiga olib keladi.

Yangi O'zbekistonda ma'naviy sohani rivojlantirish uchun, eng avvalo, ta'lim tizimiga asosiy investitsiya oqimini jalb qilinayotganligi ma'naviy soha davlat siyosati darajasi sifatida qaralayotganligiga ishoradir. Buning uchun ma'rifatparvar jadid namoyondalarini "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi",¹⁸⁸ degan so'zlari

¹⁸⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

barcha davlat va jamiyat boshqaruvi xodimlari faoliyatining amaliy harakatiga aylanishi kerak. Turkistonda jadidchilik siyosiy harakat sifatida maydonga keldi. Uning asosini ilm-ma'rifat orqali millatni ozodlikka yetaklash g'oyasi yotadi. Xususan, jadidlarning yirik vakillaridan biri Abdurauf Fitratning "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli-sog'lom jismu tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir"¹⁸⁹, degan chuqur hayotiy mazmunga ega so'zlari jamiyat rivoji ilm-ma'rifat orqali yuksalishiga ishoradir. Shuningdek, ilm-ma'rifat orqali mamlakatni yuksaltirishga oid qarashlari bugun ham o'zining ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. "Albatta, biz Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta ishonch bilan qaraymiz"¹⁹⁰. Darhaqiqat jadid allomalarimiz avvalo, aholini ilimli bo'lishiga, ilm orqali jamiyatni taraqqiy toptirishga intilgan. "Tilda, fikrda, ishda birlik"¹⁹¹ degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadidlar o'lkamizning jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, odamlarni g'aflat uyqusidan uyg'otishning asosiy yo'li-bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda deb bilganlar. Zero, biz ularning sharaflil ilmiy-ijodiy faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga keng joriy qilishimiz fuqorolik burchimizdir.

Jadidlar ilmiy merosi Yangi O'zbekistonning ma'naviy barqarorligini ta'minlashda poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Chunki jadidchilik namoyondalarining ezgu g'oya va dasturlari bugungi islohotlarimizga har tomonlama uy'un va hamohangdir.

Shuningdek, bugun jahonda siyosiy, iqtisodiy hamda g'oyaviy-mafkuraviy maydonlarda keskin kurash kechmoqda. Bu kurashga qarshi turish uchun yoshlarimiz zamonaviy bilim sohalarini mukammal egallashi, bilimga bilim bilan javob bera olish kompetentlikka ega bo'lishi lozim. Shuning uchun ham yoshlarni ta'lim va tarbiya olishiga, ta'limning barcha bosqichlarida fanlararo integratsiyani ta'minlash, ayniqsa ma'naviy tarbiya asoslarini, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning

¹⁸⁹ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2024. –Б.262.

¹⁹⁰ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.42.

¹⁹¹ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2024. –Б.262.

hayotiyligiga e'tiborni kuchaytirishimiz lozim. "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi"¹⁹², tarbiyada to'xtab bo'lmaydi degan ibratomuz fikrlar xalqimiz orasida ko'p takrorlanadi. Afsuski, ushbu ezgu fikrlarga ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ayrim bo'shliqlar mavjud ekanligi hech kimga sir emas. Ushbu bo'shliqlarni to'ldirish uchun kitobxonlik tadbirlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga oid tadbirlarni tashkil etish, ularning davomiyligini ta'minlash barchamizning asosiy vazifamizga aylanmog'i kerak. Jamiyatda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarning kamolotga intilishini, zamonaviy ta'lim olishni qo'llab-quvvatlash—bu barqaror taraqqiyotning kafolatidir. Ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda avvalo o'qituvchi va murabbiylarni jamiyatda nufuzini oshirishga alohida e'tibor qaratish kerak. Jamiyatdagi barcha munosabatlar ilmga tayangan holda muvozanatga keladi. Bunda, jamiyatning ma'naviy yuksalishi ilm-ziyolilar faoliyati bilan amalda ta'minlanadi. Intellektual bilim sohiblari jamiyatning ezgu maqsadlar sari yetaklaydi, barcha illat va qusurlardan insoniyat ruhiy olamini tozalaydi. Natijada, jamiyat barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Jamiyatda insonparvar g'oyalarni ifoda qiluvchi va himoya qiluvchi kuch ziyolilar qatlami bo'lmas ekan, adolat, tenglik boshboshdoqlikka, so'ngra siyosiy zo'ravonlikka aylanadi. Shu ma'noda ziyolilar jamiyatda adolat muvozanatini ta'minlovchi shaxslar bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qonuniyatni suiste'mol qilish jamiyatda adolat tamoyillarining poymol bo'lishiga olib keladi. Chunki davlat idorasi, qonunlar va huquqiy tartibotlar ta'minoti inson salohiyati bilan amalda mavjud bo'ladi. Ziyolilar davlat va xalq o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi ma'naviy ko'prik vazifasini bajaradi. Ana shu ma'naviy ko'prik bo'lmas ekan, tomonlar munosabati ertami-kech ziddiyatlarga duch keladi. Chunki, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish uchun aholining barcha qatlamlarida ilm-ma'rifat bilan qurollantirishimiz lozim. "Ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo'lishi

¹⁹² Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. T.: O'zbeki. 2021.- B. 6.

bilan bog‘liq misollarni insoniyat tarixidan ko‘plab keltirish mumkin”¹⁹³. Qadimgi grek faylasufi Antifon “Yaxshi va yomon fuqarolarni farqlamagan davlat tanazzulga mahkumdur”, deb yozgan edi. Uning fikricha, ma’rifatli, halol fuqarolar davlatning o‘zagini, hokimiyat asosini tashkil etishi va shakllantirishi lozim.

Barchada tabiiy savol tug‘iladi: iqtisodiy kambag‘allikni qisqartirish, bartaraf etish mexanizmlari mavjudligi barchamizga ayon. Ammo, buning uchun mablag‘ va investitsiyalarni ham topishimiz mumkin. Ma’naviy qashshoqlikni, ma’naviy qoloqlikni qanday qanday qisqartiramiz ? Ma’naviy immunitetni muhtakamlash uchun ruhiy asosni qayerdan shakllantiramiz ? Buning uchun eng avvalo, islohotlarni oiladan, ta’lim muassasalaridan hamda mahallalardan boshlashimiz ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Jamiyatlardagi ma’rifatli va halol fuqarolar jamiyat ustunidir. Agar davlat o‘z fuqarolarining intellektual salohiyatini rivojlantirishga e’tibor bermasa, uning taraqqiyoti tanazzulga yuz tutadi.

Ma’rifatparvar allomalarimizning yetuk vakillaridan biri bo‘lmish Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur”, degan so‘zlari qancha vaqt o‘tsa ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. “Faqat o‘zini o‘ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati singari turli yo‘llar bilan, aholi, ayniqsa, hali “oq-qora”ni farqlay olmaydigan yoshlar ongiga singdirilmoqda”¹⁹⁴. Hozirgi kunda terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber jinoyatlar, odam savdosi hamda giyohvandlik savdosidan kelib chiqadigan tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ba’zi siyosiy markazlar dunyoning ayrim hududlarida ataylab beqarorlik yaratib, norozilik kayfiyatlarini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda chuqurlashib borayotgan global iqtisodiy inqiroz turli fitnalar uchun yanada qulay sharoit tug‘dirayotganini unutmashimiz lozim. Shunday tahdidlar mavjud sharoitda biz hushyor va ogoh

¹⁹³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.272.

¹⁹⁴ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. T.: Tasvir nashriyot uyi. 2021.-B. 7.

bo‘lishimiz, eng avvalo xalqimiz tinchligini hamda milliy manfaatlarimizni himoya qilishni o‘ylab yashashimiz zarur.

Ijtimoiy-ma’naviy yuksalishning asosiy omillari milliy birlikni mustahkamlash va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishdir. Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ajdodlarimizning boy ilmiy merosiga hurmat bilan yondashish, jamiyatda millatlararo totuvlikni mustahkamlash hamda inson huquqlari va imkoniyatlarini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarni shonli tariximiz bilan tanish-tirish, ularning ijtimoiy ongini va mas’uliyatini oshirish zarur. Biz yoshlar siyosatini qat’iylik bilan davom ettiramiz va uni eng ustuvor vazifalardan biri sifatida bugungi zamon talablariga mos yuksak darajaga olib chiqamiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuqori intellektual va ma’naviy salohiyatga ega, dunyo miqyosida hech bir sohada tengdoshlaridan ortda qolmaydigan, baxtli insonlar bo‘lib voyaga yetishi uchun davlatimiz va jamiyatimiz barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar qiladi.

Bugungi kunda yoshlar ongini turli virtual olamdagi g‘arazli targ‘ibot materiallari, soxta qadriyat hamda g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashish ijtimoiy-ma’naviy xavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Buning uchun, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatadigan axborot makonini ma’rifiy, tarbiyaviy va milliy qadriyatlarga asoslangan kontentlar bilan boyitish orqali ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlash mumkin.

Dunyoda kechayotgan globallashuv davrida, inson ongi va qalbini egallashga harakat qilayotgan turli g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimiz ma’naviy hayotiga xavf tug‘dirishi bilan namoyon bo‘lmoqda. Bunday xavflarni oldini olish uchun quyidalarga alohida ahamiyat berishimiz hayotimizning zaruriy talablariga aylanmoqda:

- turli tahdid va ma’naviy buzg‘unchiliklarni oldini olish, aholi, ayniqsa yosh avlod ongida ularga nisbatan qarshi tura olish immunitetini shakllantirish, ezgu g‘oyalar targ‘ibotini samarali tashkil etishga e’tibor qaratish;

- jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, turli buzg'unchi g'oyalarga ishonuvchanlik va ularning ta'siriga berilish holatlarini oldini olishga qaratilgan ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish;

- farzandlarimizni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun ta'lim muassasalarida turli tugarak mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'quv adabiyotlari, qisqa metrajli filmlar, STARTAP loyihalarini amalga oshirish bo'yicha dasturlar tuzish va ularni amaliyotga joriy etish;

- aholining ma'naviy salohiyatini yangi bosqichga ko'tarishda, yangicha yondashuvlarni joriy qilish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini yaratish;

- axborot xavfsizligini ta'minlash, aholida mediya savodxonlikni oshirish bo'yicha barcha tashkilot, muassasalarda tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni hayotiyli va ta'sirchanligini oshirishda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholimizning zamonaviy bilim sohalarini puxta egallashi, har qanday axborotni tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgandir.

Yangi O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotining ustunlarini ijtimoiy-ma'naviy soha, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy ilg'or tajribalar tashkil qiladi. "Biz Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim"¹⁹⁵. Zero, har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining barqarorligi nafaq iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki jamiyatning ma'naviy muhiti, fuqarolarning ongi va tafakkuriga bog'liqdir. Agar mamlakat aholisi milliy qadriyat, milliy an'ana, milliy o'zlik, milliy ruh, vatanparvarlik, vatanga muhabbat kabi tushunchalarni qalban his qilmas ekan, o'sha mamlakatda beqarorlik vujudga keladi. Bu borada, biz jamiyatimizda har qanday ommaviy madaniyat niqobi ostida kirib kelayotgan xavf-xatarga, yoshlarimiz ongini turli buzg'unchi g'oyalar bilan zaharlashga, dindan o'zlarini g'arazli maqsadlarida foydalanishga, ilm-ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaslik choralarni

¹⁹⁵Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.274.

ko‘rishimiz davrning talabi. “Buning uchun nafaqat mas’ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha oila, mahalla va ta’lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur”¹⁹⁶. Jamiyatning har bir sohasiga shiddat bilan axborot texnologiyalari jadallikda kirib kelishi natijasida shu narsa ayonki, bu borada ma’naviy tahdidlarning ko‘lami, uning xatarlarini oldini olishda birgina ta’lim-tarbiya tizimining o‘zi bartaraf etolmasligi barchamizg yaxshi bilamiz. Bu masalani oldini olishga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etsakgina kutilgan natijaga erisha olamiz. Chunki, farzandlarimizning asosiy vaqti virtual olamda o‘tayotganligi, ularning tarbiyasini na ota-ona, na ta’lim tizimi xodimlari emas, balki, ba’zi hollarda qo‘lidagi telefoni ularni tarbiyalamoqda. Endilikda, ana shu elektron qurilma, turli zararli targ‘ibot materiallarni targ‘ib qilish vositasiga, zo‘ravonlik, yovuzlik, axloqsizlik “virus”larini tarqatadigan manbaga aylanayotganligi ayni haqiqatdir.

“Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo‘lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo‘lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg‘ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda”¹⁹⁷.

Milliy mentalitetga zid bo‘lgan qo‘shirnoq ichidagi madaniyat mahsulotlari iste’moliga aylanmaslik, chetda nima yaltiroq va jozibali bo‘lib ko‘rinsa, o‘shaning orqasidan ergashish, milliy madaniyati va qadriyati haqida o‘ylamaslik, asosiy vaqtini keng ommaga mo‘ljallangan, ko‘ngilochar, tijorat maqsadida tarqatiladigan televizion shoular, ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar ortidan quvish, ommaviy madaniyat mahsulotlariga qulluq qilish, boshqalarga ko‘r-ko‘rona ergashish bizga yarashmaydi. Afsuski, so‘ngi vaqtlarga kelib, milliy madaniyatga zid bo‘lgan mahsulotlar “import” sifatida kirib kelmoqda. Ushbu “import” mahsulotlari yoshlar dunyoqarashida kitob o‘qish, ilmiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi jihatlar

¹⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

¹⁹⁷ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir.T.: O‘zbekiston, 2021.-B. 6.

sustlashishida, zo‘ravonlik, giyohvandlik, axloqsizlik targ‘ib etilgan mediya mahsulotlarning keng tarqalishi, internet trendlari (masalan, xavfli challengelar) yoshlar salomatligiga ham, ruhiyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan yanada xavfliroq tus olmoqda. “Daraxtning bo‘shini qurt yeydi”, degan maqol xalqimizda bejiz aytilmagan. Bugungi kunda ma’naviy immuniteti zaif bo‘lgan ba’zi yoshlar o‘rtasida bunday salbiy illatlarga ko‘r-ko‘rona ergashish holati mavjudligidan afsuski, ko‘z yuma olmaymiz. Buning oldini olish mexanizmi sifatida yoshlarga milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish, ijodiylikni rag‘batlantirish (kitobxonlik, san’at, teatr), yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, milliy kontentlarni ishlab chiqarish va ularni takomillashtirishga bor kuch-g‘ayratni safarbar qilish.

Bugun yoshlar tarbiyasi masalasiga barchamiz birdek mas’uliyatni his qilishimiz kerak. Tarbiya masalasida o‘zaro kollaboratsiya tamoyili azal-azaldan mavjud. Hatto ta’lim-tarbiya masalasida o‘ziga xos Sharqona qarashlari mavjud. Xususan, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan maqolga xalqimiz azaldan amal qilib keladi. Farzandlarimizning axloq-odobi, ta’lim-tarbiyasi uchun avvalo ota-onalar, balki, mahalla ahli, kayvoni nuroniylarimiz, qolaversa ziyolilarimiz o‘zlarini mas’ul deb bilishardi. Ya’ni, ularda jamiyatdagi voqea-xodisalarga jamoaviylik ruhi bilan yondashar edi. Buning natijasida, mahallalarda, bezorilik, o‘g‘rilik, ichkilikbozlik, bekorchilik, qilib yuradigan yoshlar, eng muhimi oilaviy ajrimlar deyarli bo‘lmas edi. Mahallaning keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga, kasb-korli bo‘lishga, jamiyatdagi axloqiy normalarga doimo amal qilishni o‘rgatar edi. Bu esa, yosh avlod dunyoqarashida jamoaviylik kayfiyatini, meniki emas, bizniki, islohotlarga daxldorlik hissini qadriyat sifatida e’zozlash ko‘nikmasini paydo bo‘lishga xizmat qilgan. “Bu haqda so‘z yuritganda, so‘nggi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dunyoda o‘xshashi kam bo‘lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratilganini ta’kidlash lozim. Bu esa mahallalardagi Prezident vakillari bo‘lgan yoshlar yetakchilari orqali qancha-qancha yigit-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta’minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni quyi bo‘g‘inning o‘zida hal

etish imkonini bermoqda”¹⁹⁸. Natijada, yoshlar bo’sh vaqtlaridan unumli foydalangan holda, o’z salohiyatini mamlakatimiz, qolaversa dunyo miqyosida namoyon etib vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo’shmoqda. “Birgina o’tgan o’quv yilida maktab o’quvchilarimizdan 55 nafari matematika, kimyo, biologiya, fizika va informatika fanlari bo’yicha nufuzli xalqaro olimpiadalarda 8 ta oltin, 15 ta kumush, 32 ta bronza medalini, madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda esa yoshlarimizning 383 nafari bosh sovrinni, 1 ming 359 nafari 1-o’rinni qo’lga kiritdi”¹⁹⁹.

“Ma’lumki, barcha islohotlarimiz zamini va ko’zgusi bu – mahalla. Jamiyatimizdagi barcha jarayonlar mahalla hayotida o’z ifodasi va amaliy yechimini topadi. Mahalla – tinchlik va osoyishtalik poydevori, ahillik va hamjihatlik, ma’rifat va tarbiya qo’rg’onidir”²⁰⁰. Shuning uchun ham mahalla jamiyat va davlat o’rtasidagi ko’prik, tarbiya, qadriyatlar beshigi sifatida qaraladi.

Ma’naviyat uchun eng katta xavflardan biri-bu jamiyatda loqayd, beparvo odamlar sonini ortib borishida, desak mubolag’a bo’lmaydi. Bu kabi illatlarni oldini olish uchun buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g’urur va iftixor tuyg’ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Vatanparvarlik timsoli sifatida gavdalangan ulug’ mutasavvuf olim shayx Najmiddin Kubro Muvaffaqiyatni – sa’y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa – loqaydlik va dangasalikda ko’rdim, deb bejiz aytmaganlar. Hammamizga ayonki, bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

“ Jumladan:

¹⁹⁸ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 30-iyundagi Yoshlar kuni munosabati bilan so’zlagan nutqi. <https://zamon.uz/detail/prezident-ozbekiston-yoshlariga-tabrik-yolladi-29813>

¹⁹⁹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 30-iyundagi Yoshlar kuni munosabati bilan so’zlagan nutqi. <https://zamon.uz/detail/prezident-ozbekiston-yoshlariga-tabrik-yolladi-29813>

²⁰⁰ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

- ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

- tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, bo'lajak va yosh onalarga e'tiborni kuchaytirish;

- bolalarni yoshligidan boshlab yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha eng muhim yo'nalishlarni belgilash;

- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mustahkam iroda, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas'uliyat, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish"²⁰¹ muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samaradorligini oshirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida “Eng ma'naviyatli tuman”, “Eng ma'naviyatli tarmoq” kabi tanlovlar, “Ma'naviyat fidoiysi” ko'krak nishoni tasis etildi. Yangi hayot, yangi jamiyat qurishga qaratilgan islohotlar jarayonida bu ishlarimizning nazariy asosi bo'lgan milliy g'oyani rivojlantirish, ayniqsa, g'oyat muhim ahamiyatga ega”²⁰².

Mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yuksaltirish, inson kapitalini rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash sohalariga alohida e'tibor qaratilayotganligi O'zbekistonni ijtimoiy davlat sifatida taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

Yangi O'zbekistonda quyidagi ijtimoiy-ma'naviy omillari muhim ahamiyat kasb etadi:

- “ aholi, ayniqsa, yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish;

- ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun “Uchinchi Renessans sari” degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini takomillashtirish;

²⁰¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б.291.

²⁰² Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. T.: O'zbekiston, 2021.-B. 9.

- maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat uchog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash;

- mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida barchamizda birgalikda kurashimiz va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish;

- barcha bo'g'indagi rahbarlar, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ijodkor ziyolilarimiz, diniy ulamolar, huquq-tartibot idoralari xodimlari, butun jamiyat uchun bu vazifa vijdon ishiga aylanishiga erishish;

- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish;

- aholining g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, giyosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, xatarli tahdidlarga qarshi olib borilayotgan kurash samaradorligini oshirish;

- ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg'or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash, tayyorlash va tarqatishda "oyina.uz" elektron portal imkoniyatlaridan keng foydalanish"²⁰³ kabi masalalarning amaliy yechimi shak-shubhasiz Yangi O'zbekistonni iytimoiy-ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

²⁰³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б.300.

4.2. “O‘zbekiston-2030 strategiyasi”ning mamlakat barqaror rivojlanishdagi ahamiyati

Har qanday mamlakatlar eng avvalo, muayyan rivojlanish konsepsiyalar, yondashuvlar, strategiyalar asosida taraqqiy etadi. Bu borada, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun dasturulamal vazifasini bajarayotgan konsepsiyalardan biri “O‘zbekiston-2030” strategiyasidir. Ushbu strategiya nafaqat amaliy harakatlar rejasidir, balki u inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kollaboratsiyasi, milliy o‘zlik, milliy mentalitet, xalqaro hamkorlikning mustahkamlashga oid taraqqiyot falsafasining mujassam ko‘rinishidir.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan qaraganda, “O‘zbekiston -2030” strategiyasi — bu kelajak haqidagi ongli tasavvur, ijtimoiy ong va tafakkurning mahsuli bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, jamiyat barqaror taraqqiyotini yangi bosqichiga olib chiqishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-intellektual poydevordir. Ushbu strategiya mamlakat taraqqiyotini uzoq muddatga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma’rifiy sohalarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan tizimli dastur hisoblanadi.

“O‘zbekiston -2030” strategiyasining asosiy yo‘nalishlari ²⁰⁴

<i>t/r</i>	Ustuvor yo‘nalishlar	Asosiy maqsadlar
1	Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish	Ta’lim tizimi islohotlari (1-12-maqsadlar)
		Aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha islohotlar (13-21-maqsadlar)
		Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar (22-29-maqsadlar)
		Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar (30-37-maqsadlar)
		Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar (38-44-maqsadlar)
2	Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash	Fiskal barqarorlikni ta’minlash, ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, bank tizimi, yashil iqtisodiyot, transport logistika tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon

²⁰⁴ Muallif ishlanmasi

		uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish(45-61-maqсадlar)
3	Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish	Suv resurslarini tejash bo'yicha islohotlar (62-65-maqсадlar) Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha islohotlar (66-73-maqсадlar)
4	Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish	Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar (74-83-maqсадlar) Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar (84-89-maqсадlar)
5	“Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish	Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo'yicha islohotlar (90-95 - maqсадlar) Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlar (96-100-maqсадlar)

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalish va maqsadlari inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikni, inson qadri, huquq va salohiyatining erkin rivojlanishini, mamlakat barqaror taraqqiyotining milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilishini anglatadi.

Ushbu strategiyaning falsafiy ahamiyati quyidagi tamoyillarda yaqqol ko‘rinadi:

- **Inson qadrini yuksaltirish.** Inson sha’ni, qadr-qimmati, huquq va imkoniyatlarini kengaytirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Falsafiy nuqtai nazardan esa, bu insonni passiv ijtimoiy obyekt emas, balki faol, ijodkor, o‘z taqdirining muallifi sifatida e’tirof etishni anglatadi. Inson qadri va sha’ni haqida gapirilganda avvalo uning ta’rifiga izoh berish lozim.

Inson qadri- bu insonning o‘ziga xosligi, uning daxlsizligi, hurmatga loyiqligi va axloqiy-madaniy qiymati kabi tushunchalar asosida ifodalanadi. Falsafiy lug‘atlarda esa, insonning qadrini uning erkinligi, mustaqil qarorlar qabul qilishi va albatta ma’naviy kamoloti bilan tasniflanadi. Inson qadri nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy kontekstdagi tushuncha bo‘lib, jamiyat tomonidan tan olingan insonning huquq va erkinliklarini ham anglatadi.

Insonning sha’ni- bu insonning shaxsiy hurmatini, obro‘cini, shon-shuhrati kabi belgilarni anglatadi. Ushbu tushuncha insonning o‘zini qanday tutishi, boshqalar bilan munosabatda bo‘lishi, o‘zini qadr-qimmatni asrab-avaylashi bilan bog‘liq. Inson qadri va sha’ni bir butun uyg‘unlikda bo‘lishi uchun davlat tomonidan

muhofaza qilinishi lozim. “Hech kimning unutishga haqqi yo‘q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat”²⁰⁵ ekanligi, inson erkinliklariga, kamsitilmasliklariga, adolat va qonun ustuvorligi masalariga davlat siyosati darajasi sifatida qaralmoqda. Xususan, inson huquqlarini ta‘minlash borasida nafaqat O‘zbekiston, balki dunyo miqyosida ham alohida e‘tibor qaratilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi 50 yil mobaynida faqat BMT tashkiloti tomonidan 120 dan ortiq hujjatlar qabul qilinganligi inson huquqlari masalasi naqadar dolzarb ekanligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ya‘ni, inson, uning sha‘ni, qadr-qimmati, uning hayoti, erkinligi kabi tabiiy huquqlari bugungi kunga kelib oliy qadriyatga aylanib bormoqda. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar Yevropa mamlakatlari qonunlar to‘plamlarida ko‘proq tilga olinganligi, inson huquqlariga oid normalar G‘arb davlatlarida yuzaga kelgan degan fikrlarni tug‘dirmasligi kerak. Zero, inson qadr-qimmati, erkinligi, huquq va imkoniyatlariga oid tushunchalar Sharq va G‘arb olami tafakkuri uyg‘unlashishi natijasida shakllangan.

“BMT ekspertlari va ko‘plab taniqli olimlarning ta‘kidlashicha, erkinlik, tenglik va adolat, inson qadri, uning huquqi va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatni adolatli boshqarish, xalq farovonligini ta‘minlash kabi g‘oyalar dastlab Sharq davlatlarining qonunlari va falsafasida rivojlana boshlagan”²⁰⁶. Shuningdek, inson, uning huquqlari, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy munosabatlar, davlat va jamiyat boshqaruviga oid huquqiy terminlar aynan Sharq diyorida yaratilganligiga doir tarixiy faktlar mavjud. Xususan, Amir Temurning “Temur tuzuklari” kitobi o‘z davrining o‘ziga xos konstitutsiyasi vazifasini bajargan. Amir Temur “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”²⁰⁷ deb ta‘kidlagan edi. Inson sha‘ni, qadr-qimmati, erkinligi qonun ustuvor bo‘lgan davlatda qaror topadi. “Qonun ustuvorligi- bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-

²⁰⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

²⁰⁶ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б.44.

²⁰⁷ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. T.: O‘zbekiston, 2020.-B. 106.

harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart"²⁰⁸, deganidir.

Bugungi kunda, Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi insondir. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda inson, uning huquqlari, qadr-qimmati, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish islohotlarning tayanchiga aylanmoqda. Xususan, "so'ngi 7 yilda qabul qilingan uchta kompleks taraqqiyot strategiyasi hamda turli sohalarni rivojlantirishga oid 60 dan ziyod strategiya, konsepsiya va dasturlarga insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning rivojlanishi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish, ijtimoiy tenglik kabi tamoyillar, g'oyalar to'liq singdirildi"²⁰⁹. Inson qadrini falsafada ko'pincha insonning ma'naviy va axloqiy yaxlitligi, uning ong va iroda erkinligi sifatida qaraladi. Bu qadriyat insonning o'zligini anglash, o'ziga hurmat ko'rsatish, jamiyatda mas'uliyatli va axloqiy hayot kechirishga tayyor bo'lishi bilan bog'liq.

Inson qadrini mustahkamlash "O'zbekiston-2030" strategiyasining ustuvor maqsadlaridan biridir. Ushbu strategiya doirasida inson huquqlari bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqildi. Strategiya doirasida vazifalar belgilangan:

- milliy qonunchiligimizni mamlakatimiz barqaror rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari, umume'tirof etilgan xalqaro standartlar, O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlari, shuningdek, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalari asosida takomillashtirish;

- shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlarni himoya qilish hamda O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlament va fuqorolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish;

²⁰⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 7-dekabrda Konstitutsiyaning 27-yilligiga bag'ishlangan nutqi. <http://m.xabar.uz/uz/jamiyat/bugun-xalq-tom-manoda-uygondi>

²⁰⁹ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2024. –Б. 46.

- O‘zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar(qonun ustuvorligi, norma ijodkorligining sifati, hukumat faoliyati samaradorligi, so‘z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korruptsiyaga qarshi kurashish, biznes yuritish shart-sharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqalar) bo‘yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishini ta‘minlash;

- inson huquqlarini buzilishlariga barham berish maqsadida sud hokimiyati mustaqilligini ta‘minlash, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov tizimi vakolotlarini mustahkamlash;

- mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy institutlar faoliyati uchun keng sharoitlar yaratish, bu sohadagi davlat siyosatini monitoring qilish va baholashning milliy tizimini yanada rivojlantirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish”²¹⁰ kabi tizimli chora–tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsad - inson huquq va imkoniyatlarini ta‘minlash, kafolatlash va himoya qilishdir. Buning uchun esa, inson huquqlarini himoya qilish uchun yaratilgan institutlar, qonunchilik, mexanizmlarini takomillashtirish lozimdir.

- Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalish va maqsadlari mazmunini aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tashkil etadi. Ushbu masalalarni amaliy jihatdan yechimi ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillarini amalda ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

“Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila bugun o‘z hayotida his etishi kerak. Buning uchun barcha bo‘g‘indagi rahbarlar foizlar, raqamlar, qog‘ozning ortidan quvmasdan, har bir fuqaro uchun, uning hayotiy manfaatlarini ta‘minlash uchun ishlashi shart”²¹¹. Bu borada amalga

²¹⁰ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2024. –Б. 46.

²¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/679>

oshirilayotgan islohotlarning natijadorligini ta'minlashda nodavlat-notijorat tashkilotlarining o'zni beqiyosdir. Chunki, bugungi axborotlashgan davrda barcha mamlakatlar barqaror taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tinchlik, xavfsizlik, milliy-etnik muammolarning kuchayayotgan bir davrda davlat boshqaruvida fuqorolik jamiyati institutlarining faoliyatini kuchaytirish har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat funksiyalarini bosqichma-bosqich fuqorolik jamiyati institutlariga o'tkazish, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy audit faoliyatini takomillashtirish va o'rtasida o'zaro hamkorlikni samarali tashkil mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir. Negaki, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy audit davlat jamiyat barqaror taraqqiyoti rivoji uchun asosiy omillardan biridir. Avvalo biz, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy audit tushunchalarini mazmun-mohiyatini anglab olishimiz zarur.

Jamoatchilik nazorati – davlat boshqaruv organlari faoliyatini fuqarolar, jamoat birlashmalari tomonidan kuzatish, baholash va ochiqlikni ta'minlash vositasidir.

Jamoatchilik nazorati bo'yicha falsafa qomusiy lug'atida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini-o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari tomonidan qonun doiralarida olib boriladigan nazorat hisoblanadi deya ta'rif beriladi. Shuningdek, jamoatchilik nazorati xalqning davlat boshqaruvida faolligi, siyosiy islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usini ustunligi hamda siyosiy hokimiyat ustidan tom ma'nodagi nazoratidir. Zero, aholining islohotlarga daxldorlik tuyg'usi qancha kuchli bo'lsa, davlat va jamiyatdagi muammolarga shuncha tez yechim topiladi. Bundan tashqari, jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlari oldida turgan dolzarb muammolar, xalqni o'ylantirayotgan, yechimi topishili kutilayotgan ijtimoiy muammolarning amaliy yechimini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari "Jamoatchilik to'g'risida"gi qonun hamda 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmonda mustahkamlangan.

Xususan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 12-maqsadi Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish deb nomlangan. Ushbu maqsadda:

“Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, jamoaviy murojaatlar asosida hududiy, tarmoq va davlat dasturlari ijro sifatini tekshirish amaliyotini joriy etish.

Ayrim davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayoniga jamoatchilik nazorati subyektlarini keng jalb qilish, davlat organlari faoliyatini o‘rganishda ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish hamda aniqlangan kamchiliklarni ochiq muhokama qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini va saylov madaniyatini oshirish, saylovlarga oid xalqaro standartlarni qonunchilikka implementatsiya qilish ishlarini davom ettirish.

Ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish, odamlarni qiynayotgan muammolar hamda islohotlarning ijrosi ahvolini o‘rganishda ularning mehnatidan samarali foydalanish.

Ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo‘llab-quvvatlash hajmini ikki barobarga oshirish.

Xalq deputatlari Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlariga ajratilayotgan mablag‘lar hajmini yetti barobarga oshirish”²¹² masalalariga alohida e’tibor qaratilganligi mamlakatda fuqorolarning siyosiy rolini ko‘tarishga xizmat qiladi.

Jamiyat boshqaruvida inson omilini ortishi, mehnatga oid munosabatlardagi bo‘shliqlar, korxona va tashkilotlar faoliyatida ijtimoiy-axloqiy me’yorlarga amal qilmaslik natijasida ijtimoiy audit tizimi faoliyatiga ehtiyoj sezildi.

²¹²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Ijtimoiy audit tushunchasiga davlat organlari, muassasalar, yirik loyihalar faoliyatining ijtimoiy ta'siri, samaradorligi va qonunlarga, inson huquqlariga muvofiqligini baholash va tekshirish jarayoni sifatida ta'rif beriladi. Ijtimoiy audit faoliyatini asosan mustaqil ekspertlar, nodavlat-notijorat tashkilotlari hamda alohida tashabbuskor guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

Dastlab ijtimoiy audit tushunchasini 1940-yillarda Stenford biznes maktabi professori Teodor Kreps tomonidan ilmiy muamolaga kiritilgan. Keyinchalik John William Humblening "Social Responsibility Audit: A Management Tool for Survival" asarida ijtimoiy auditda inson omilining ahamiyati haqidagi argumentlarni ilgari suradi.

***Ijtimoiy audit va jamoatchilik nazoratining o'zaro nisbati*²¹³**

Ko'rsatkichlar	Ijtimoiy audit	Jamoatchilik nazorati
Huquqiy maqomi	Aniq reja grafik yoki shartnoma asosida olib boriladi.	Konstitutsiya, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun
Maqsadi	Faoliyat natijalarini chuqur tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish.	Davlat va jamiyat boshqaruvi faoliyatini kuzatish, islohotlarni tizimli ravishda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish
Sub'yektlar	Ma'lum kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan mutaxassis ekspertlar hamda nodavlat tashkilotlari	Fuqorolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoatchilik, fuqarolar, jamoat guruhlari
Amalga oshirish mexanizmi	Aniq reja va dastur asosida tahliliy hisobotlar, standartlar asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ijtimoiy audit odatda maxsus buyurtma asosida yoki	Fuqarolarning fikri hamda murojaatlari uyma-uy, xonadonma-xonadon tamoyili asosida olib boriladi. Shuningdek, jamoatchilik nazorati muntazam, ixtiyoriy va fuqarolarning konstitutsion

²¹³ Muallif ishlanmasi

	nodavlat sektor tashabbusi bilan o'tkaziladi.	huquqi sifatida amalga oshiriladi.
--	---	------------------------------------

Ijtimoiy audit va jamoatchilik nazoratining yana bir farqli jihati shundan iboratki, ijtimoiy audit aniq reja garfik asosida ilmiy-tahliliy professional baholash shakli hisoblanib, u ma'lum bir soha faoliyatini obyektiv tahliliga asoslanadi. Jamoatchilik nazorati esa, adolat, oshkoralik tamoyili asosida fuqarolar, jamoatchilik guruhlaridan tomonidan amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy audit va jamoatchilik nazorati bir-birini to'ldiruvchi, ammo metodikasi va yondashuvi jihatidan farq qiluvchi mexanizmlardir. Ular jamiyatda demokratik tamoyillarni ustunligini ta'minlaydi, oshkoralikni kuchaytiradi, davlat organlari faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini amalga oshiradi, ijtimoiy adolat va islohotlar samarasini oshirishga xizmat qilishi bilan birga fuqorolarda islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usini mustahkamlaydi. Shu bois, har ikkala mexanizmni bir vaqtning o'zida samarali ishga solish, davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashga zamin yaratadi. Natijada, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida fuqorolik jamiyati institutlarining o'rnini mustahkamlanadi. Aholining barcha qatlamlari orasida davlatga nisbatan ishonch tuyg'usi ortadi, aholida esa, islohotlarga nisbatan daxldorlik hissiy mustahkamlanadi. "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz²¹⁴. Ushbu tamoyil davlatda demokratik prinsiplarni rivojlantirishda muhimdir. Bu borada, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgorigidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o'rin egallaydi, deb ishonamiz.

Davlat va jamiyat taraqqiy etishi uchun avvalo, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, aholida ishlab chiqarish kompetentligini shakllantirish muhim

²¹⁴ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston. 2016.-B.13.

ahamiyat kasb etadi. Bu borada, Yangi O‘zbekistonda barcha shart-sharoitlar ta’minlangan. “Bizning yana bir muhim vazifamiz - kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o‘zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo‘lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya’ni “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”²¹⁵ degan naqlida iqtisodiy salohiyat har qanday jamiyat taraqqiyotini asosi ekanligiga ishoradir. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xalqchilligi bilan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ehtiyojmand alohini moddiy qo‘llab-quvvatlash, ularni jamiyatni faol a’zosi ekanligini his qildirish hamda kasbiy bilim berish, o‘zlariga munosib mehnat sharoitlarini yaratib berish borasida tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda. Bundan ko‘zlangan provard maqsad esa, xalqni rozi qilish, ularga adolatli turmush sharoitini yaratib berishdir. “Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi. Xalq rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi. Xalq bizdan rozi bo‘lsa, Yaratgan xam bizdan rozi bo‘ladi”²¹⁶. Shu bois, xalqqa xizmat qilish, uni rozi qilish, huquq va imkoniyatlarini davlat tomonidan kafolatlash asnosida adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini asosiy tamoyillaridan biridir. Buning uchun, eng avvalo, xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Odamlarimizni zamonaviy bilim sohalari bilan qurollantirishimiz, nazariy bilim bilan ko‘proq

²¹⁵ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016.-B.17.

²¹⁶ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016.-B.18.

amaliy bilimga e'tiborni qaratishimiz, jamiyat taraqqiyoti, aholi farovonligiga faqat va faqat ilm orqali erishish birlamchi yechim ekanligini anglatishimiz lozim.

“Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamadan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi”²¹⁷. So'nggi yillarda xalqqa xizmat qiluvchi, ijtimoiy davlatni barpo etish, davlat idoralarini quyi bo'g'inga, ya'ni mahallagacha tushib, u yerdagi mavjud muammolarni bartaraf qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, hududning rivojlantirish nuqtasini aniqlash borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholimiz daromadini ko'paytirish, uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish, farzandlarini sifatli ta'lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratishdir. Zero, aholi munosib ish o'rinlariga ega bo'lsa, ertangi kundan ko'ngli to'q bo'ladi, shundagina jamiyat barqaror taraqqiyotga erishadi. “Chunki, xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni ko'rishni istaydi. Bizning mehnatkash, oqko'ngil, bag'rikeng xalqimiz bunga to'la haqlidir”²¹⁸. Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining provard maqsadlaridan biri, xalqimizning farovon turmush darajasini oshirish, ish o'rinlarini yaratish, investitsiya ko'lamini rivojlantirishdir. Chunki, investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, ya'ni, iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi. “Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”²¹⁹. Tejamkorlik kabi ko'nikmalarni shakllantirish masalasi, avvalo, ta'lim muassasalarida, oilalarda amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan oilalarga davlat tomonidan qabul qilingan “Har bir oila-tadbirkor” dasturi asosida qo'llab-quvvatlanmoqda. Ularning faoliyatini rivojlantirish uchun imtiyozli kredit, soliq va boshqa imtiyozlar yaratilmoqda.

²¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/679>

²¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

²¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/2228>

Natijada, "... ish haqiga soliq yukini 1,5 barobar kamaytirish yo'li bilan rasmiy sektorda ishlayotgan sonini 500 mingga, tadbirkorlar sonini 2 barobar ko'paytirishga muvaffaq bo'ldik"²²⁰. Bu kabi islohotlar kelajakda tadbirkorlar sinfini rivojlantirishga, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy kuchga aylanadi. Yangi O'zbekiston bugungi kunda keng iqtisodiy imkoniyatlar mamlakatiga aylanmoqda. Xorij mamlakatlari bilan o'zaro savdo aloqalari hajmi kengaymoqda. Iqtisodiyotda davlat ulushi bosqichma-bosqicha xususiy sektorga o'tkazilmoqda.

"Davlat idoralari xalqqa, jumladan, tadbirkorlarga yaqin ko'makchi bo'lishi zarur. Davlatning boshqaruv sohasidagi ba'zi funksiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida jumladan, "outsourcing" shaklida xususiy sektorga topshirish lozim"²²¹. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy siyosati "har bir fuqaro boy bo'lsa-davlat boy bo'ladi, har bir oila farovon bo'lsa-mamlakat farovon bo'ladi" degan tamoyil asosida olib borilmoqda. Bunda har bir fuqaroga bir xil imkoniyatlarni yaratish, tadbirkorlik orqali o'zi va oilasini farovonligini ta'minlash uchun shart-sharoitlarni mustahkamlash muhimdir. "iqtisodiy strategiyamizning muhim bandi-2030-yilga qadar munosib haq to'lanadigan 10 millionta yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni bartaraf etish, ishsizlik darajasini 2030-yilda 5,2 foizga, inflyatsiyani esa 15,2 foizdan 4,3 foizga pasaytirish"²²²ni maqsad qilingan.

"Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz"²²³. Bu shuni bildiradiki, endi davlat muassasalari bevosita fuqaro bilan ishlashga o'tadi.

-ma'naviy-ma'rifiy sohalarni qo'llab-quvvatlash. Har qanday taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi insondir. Inson avvalo, o'zligini anglashi, kundalik hayotini milliy qadriyatlar asosida qurishi orqali jamiyat ma'naviy barqarorligi mustahkamlanadi. Bu borada, "O'zbekiston-2030" strategiyasining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha

²²⁰ Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2024. –Б. 100.

²²¹ О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/2228>

²²² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: О'zbekiston, 2021. –Б. 134.

²²³ О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/2228>

islohotlar” nomli maqsadida ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, milliy meros, til, madaniyat va an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, jamiyatning ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat, milliy meros, milliy qadriyat, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda ma’naviy-ma’rifiy sohaning falsafiy jihatini tashkil qiladi. Bu borada, ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirishga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, targ’ibot-tashviqot bilan shug’ullanuvchi aholi qatlam vakillarini har tomonlama qo’llab-quvvatlashimiz lozim. “Biz ta’lim tizimiga, o’qituvchi va murabbiylar nufuzini oshirishga katta ahamiyat beryapmiz. Chunki jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish skerak. Lekin Vatan, xalq taqdiri o’rtada turganda, kerak bo’lsa, qonun ham o’z kuchini ko’rsatish ishart”²²⁴. Zero, biz barpo etayotgan yangi O’zbekiston ma’naviy qiyofasi insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik g’oyasi asosida rivojlanmoqda. Chunki, milliy mentalitetimiz boshqa xalqlar mentaliteti bilan mehr-oqibat, saxovat, hamjihatlik, bag’rikenglik, sabr-toqatli bo’lish, shukronalik kabi noyob fazilatlari bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o’rtasida o’zaro hurmat, do’slik va ahillik muhitini mustahkamlashga e’tibor qaratiladi. **xalqaro hamkorlik va o’zaro ishonch tamoyili**. Mamlakat taraqqiyotini ta’minlashda xalqaro tashkilotlar yoki davlatlar o’rtasida o’zaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan o’zaro hurmat, ochiq va samimiy muloqot, hamkorlik, muammolarni birgalikda hal qilish tamoyillari xalqaro hamkorlik va davlatlararo o’zaro ishonchni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy va umuminsoniy muammolarni birgalikda hal qilish xalqaro hamkorlikning falsafiy jihatini tashkil qiladi.

“O’zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo’nalish” tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishdik. Natijada mintaqamizda mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o’zaro ishonch va yaxshi qo’shnichilik

²²⁴ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g’oyamizning poydevoridir. T.: Tasvir nashriyoti uyi, 2021.-B.9.

asosidagi aloqalar mustahkamlanmoqda”²²⁵. Xalqaro hamkorlikda asosiy yaqin qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga harakat qilinmoqda. Chunki, bu mintaqa bilan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, transport, xavfsizlik kabi masalalar barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida birdek manfaatdordir. Bu borada, “Iqlim bo‘yicha Markaziy Osiyo muloqoti”, “Markaziy Osiyo uchun yashil kun tartibi” mintaqaviy dasturi, “Bir sayohat-butun mintaqa”, “Xalq diplomatiyasi”, “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi-2030” kabi dasturlar mintaqa hududining barqaror rivojlanishiga qaratilgandir. Bugungi kunda mamlakatlar taraqqiyotida beqarorlikni keltirib chiqarishga, davlat suverenitetiga rahna solishga qaratilgan tahdidlar, ko‘zga ko‘rinmas xavf-xatarlar avj olmoqda. “Hozirgi kunda terrorizm eng xavfli va oqibatini oldindan ko‘ra bilish murakkab bo‘lgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Terror ko‘lami kengayib borayotgan va aql bovar qilmas shakllar olayotgani jahondagi eng xavotirli muammolardan biridir”²²⁶.

Shu nuqtai nazardan Yangi O‘zbekiston xavfsizlik ta’minlash, o‘zaro hamkorlik aloqalarini samarali yo‘lga qo‘yish tashqi siyosatining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, tashqi siyosatda Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik, o‘zga davlatlar ichki ishlariga aralashmaslik, harbiy xizmatchilarning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo‘lishga yo‘l qo‘ymaslik mamlakatimiz xavfsizligi siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir.

“...farzandlarimizning ongi va qalbida yuksak vatanparvarlik ruhini singdirib borish orqali mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqdamiz”²²⁷. Zero, mamlakat har qanday kuchli qurolga ega bo‘lmasin, aholida vatanparvarlik tuyg‘usi mustahkam bo‘lmasa davlat daxfsizligini ta’minlay olinmaydi.

²²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

²²⁶ Safarova N. Terrorizm. T.: Noshir, 2009.-B. 183.

²²⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. –Б. 545

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi faqatgina bugungi davrdagi islohotlar bilan chegaralanib qolmasdan, uzoq muddatli, rivojlanishni ko‘zlaydi. Bu esa, taraqqiyotda uzluksizlik va izchillik ta‘minlash, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni mustahkamlash, innovatsiyalar va an‘analarni uyg‘unlashtirish kabi tamoyillar “O‘zbekiston-2030” strategiyasining falsafiy jihatini tashkil qiladi. Shuningdek, strategiyada atrof-muhit va ekologik barqarorlikni ta‘minlash, yashil iqtisodiyot, yashil energiya, raqamli iqtisodiyot hamda jamiyat boshqaruvining barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali davlat va jamiyat barqarorligini ta‘minlash ko‘zda tutiladi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi — bu nafaqat iqtisodiy islohotlar dasturi, balki yuksak ijtimoiy-ma‘naviy qadriyatlar, adolat, taraqqiyot va inson erkinligini asos qilgan zamonaviy taraqqiyot falsafasidir. Strategiyaning jamiyatda to‘laqonli amalga oshirilishi natijasida:

birinchidan, jamiyatda nazariya va amaliyot bir butun uyg‘unlikka erishiladi. Natijada, barqarorlik ta‘minlanadi;

ikkinchidan, inson huquqlari va imkoniyatlari kafolatlanadi, turmush tarzi, turmush darajasi yuksaladi, eng muhimi o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratiladi;

uchinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar zamonaviy rivojlanish tendensiyalari bilan uyg‘unlashadi;

to‘rtinchidan, xalqaro maydonda mamlakatimiz siyosiy mavqe‘yi mustahkamlanadi. Natijada, ilmiy-falsafiy asoslangan, ijtimoiy adolatli va barqaror jamiyat qurish yo‘lida muhim dasturlar amalga oshiriladi.

IV Bob yuzasidan xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, Yangi O‘zbekistonda inson barqaror taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va ularning zamonaviy tendensiyalarining ilmiy asoslari mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatga mo‘ljallangan ustuvor maqsadlarini ifoda etadi. Shuningdek, O‘zbekistonda inson qadri, inson sha’ni, huquq va imkoniyatlari kafoloti davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy yangilanishlar, qadriyat va an’analarni rivojlantirish, yoshlarga zamonaviy bilim egallashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mamlakatda “Uchinchi Renesans” poydevoriga xizmat qiladi.

Dunyodagi barcha taraqqiy etgan mamlakatlar ma’lum rivojlanish konsepsiyalarga tayangan holda yuksalganligini tarixiy ilmiy-nazariy manbalardan bilishimiz mumkin. Xususan, yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilayotgan konsepsiyalardan biri “O‘zbekiston-2030” strategiyasidir. Ushbu strategiya nafaqat amaliy harakatlar rejasidir, balki u inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kollaboratsiyasi, milliy o‘zlik, milliy mentalitetit, xalqaro hamkorlikning mustahkamlashga oid taraqqiyot falsafasining mujassam ko‘rinishidir.

Yangi O‘zbekistonda inson barqaror taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va ularning zamonaviy tendensiyalarining amaliyotga tatbiq etish natijasida:

birinchidan, Yangi O‘zbekistonda inson, uning qadri, sha’ni, huquq va imkoniyatlari kafolati davlat tomonidan muhofaza qilinishi natijasida, aholida davlat va jamiyat taraqqiyotiga ishonchi ortdi.

ikkinchidan, aholida daxldorlik tuyg‘usi mustahkamlanmoqda. Shaxsiy yondashuvdan, jamoaviy yondashuv ruhiyati shakllanmoqda.

uchinchidan, jamiyatda islohotlarni tizimli ravishda ijrosini ta’minlashda ijtimoiy audit va jamoatchilik nazorati xalq ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

to‘rtinchidan, “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan tamoyil asosida davlat vazifalarini nodavlat-notijorat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish ularga ko‘proq huquqlar berish natijasida jamiyat barqaror

taraqqiyotga erishmoqda. Bunda eng avvalo, ijtimoiy institutlarning jamiyatsdagi mavqeyi ortmoqda.

beshinchidan, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” degan tamoyil asosida rivojlanmoqda. Ushbu rivojlanishlar davlatning xalqaro miqyosida nufuzini ko‘taradi, xalqaro hamkorlik mustahkamlanadi, eng muhimi xalqning farovon turmush tarzi va darajasi ko‘tariladi.

XULOSA

Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari: milliy maqsad va vazifalar mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan kuzatishlar natijasi yuzasidan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

- “Yangi O‘zbekiston” milliy taraqqiyot rivojida yangi bosqich hisoblanib, unda xalqning farovon hayoti, barqaror rivojlanishi bilan bog‘liq maqsadlari ifodalangan;

- barqaror rivojlanish maqsadlari – bugungi kunda barcha mamlakatlar tomonidan tan olingan hamda ularni harakatga chorlovchi o‘ziga xos da’vatdir. Bu da’vat, butun dunyo ahlini barqaror taraqqiyoti, farovonligi yaxshilashga qaratilgan konsepsiyadir;

- mamlakatimizni barqaror rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq zamonaviy qarashlarga asoslanadigan yangi jamiyatni barpo etish g‘oyasi xalqimizning barcha qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani, barchani ushbu g‘oya atrofida jipslashtirayotganligi bilan ayamiyatlidir;

- mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirishga, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash, fuqorolarning siyosiy faolligini oshishiga zamin yaratmoqda;

- Yangi O‘zbekistonda “xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” degan ezgu g‘oya asosida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uyg‘unligi tamoyili joriy etilganligi inson turmush tarzi va farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi;

- jamiyatimizda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining ijtimoiy huquq va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning “Besh muhim tashabbus”, “Yoshlar - kelajagimiz”, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi yangicha tizimi yaratilganligi odamlarning kelajakka ishonchi ortayotganligini ko‘rsatmoqda;

- inson kapitaliga investitsiya qilish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini takomillashtirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va aholi turmush darajasini oshirish

olib borilayotgan islohotlar jamiyat barqaror taraqqiyoti rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda;

- Yangi O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining tubdan o'zgarishi, aholi turmush darajasi yaxshilanishi, ijtimoiy adolatni ta'minlash va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan islohotlar mamlakatimiz barqaror rivojlanishi uchun muhim qadamdir;

- davlat xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, ularni ko'lamini kengaytirish orqali aholiga qulay ijtimoiy muhit yaratilmoqda;

- xalqaro hamkorlik va integratsiya, iqtisodiy, ilmiy-texnologik, ekologik va boshqa sohalar bo'yicha xalqaro hamkorlik, mintaqaviy va global integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish, xalqaro tashkilotlar va standartlarga muvofiq faoliyat yuritish jamiyat va davlat rivojlanishining barqaror va taraqqiyot yo'nalishi ta'minlamoqda;

- xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, yaqin qo'shnilik siyosati, tajriba va ma'lumotlar almashish orqali barqaror rivojlanish maqsadlarini birgalikda amalga oshirishga oid ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik masalalarida yangicha tizimi yaratildi.

Tadqiqot natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

- Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga oid oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarida tanlov fan sifatida joriy qilish;

- "O'zbekiston 2030" strategiyasi tizimida "Barqaror rivojlanish" konsepsiyasi nomli fundamenral, innovatsion va Startap loyihalar tanlovini e'lon qilish;

- "Huquqni anglash-mas'uliyat hissini rivojlantiradi" shiori ostida davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarda o'rtasida targ'ibot va tashviqot tadbirlarini amalga shirish;

- islohotlarni natijadorligini ta'minlash uchun "ijtimoiy audit" tizimini barcha tashkilotlarga joriy qilish;

- Respublika ommaviy axborot vositalarida barqaror rivojlanishni amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirishga oid teleko'rsatuv va radioeshittirish faoliyatlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2023.-B. 6.
2. Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент.: O'zbekiston, 2024. –Б. 14.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik . – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B.348.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: O'zbekiston, 2021. –Б. 46.
5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. -T.: O'zbekiston, 2021.-B.27.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. –T.: O'zbekiston, 2020.-B. 354.
7. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O'zbekiston, 2018.-B. 448.
8. Mirziyoev Sh.M. Inson manfaatlari va huquqlarini ta'minlash demokratik jamiyat asosidir// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.J 2. T.:O'zbekiston, 2018. –B.250.
9. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатият билан давом эттириб , янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.- Б. 102.
10. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2017 .- Б. 53.
11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016.-B.13.
12. Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. -Т., 1995.- Б.14.
13. Karimov I.A. O 'zbekiston iqtisodiy islohotlami chuqurlashtirish yo'lda. - T .: O'zbekiston, 1995.- B.170-171.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 30-iyundagi Yoshlar kuni munosabati bilan so‘zlagan nutqi. <https://zamon.uz/detail/prezident-ozbekiston-yoshlariga-tabrik-yolladi-29813>

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, Toshkent, 2019-yil, 31-avgust.

16. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. -T.: 2017 -yil 31-avgust

17. И.Каримов Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь.-Т.: Ўзбекистон, 2010.- Б.42 .

18. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Қонуни.//Ўзбекистон Республикасининг Қонунлари. 4-сон. -Т., Адолат, 1993, 155-бет

II Bo‘lim. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar:

1. Мерко А.И. Социально-ответственный бизнес-и заимосвязь государственной и корпоративной политики в глобализирующемся мире. Монография.-М.: 2009.-С.180

2. Сартаева.Р. Инсон экологияси, янги онтология ва Қозоғистоннинг барқарор ривожланиши.(Монография)- Қазақистан 2012.

3. Boboev F.J. Iqtisodiy barqarorlikning mexanizmlari. Iqt.f. bo‘yicha fals.d. (PhD) diss.avtoref- Qirg‘iziston 2019.

4. Zode Naima. Inson kapitalining rivojlanish xususiyatlar. Iqt.f. bo‘yicha fals.d. (PhD) diss.avtoref- Tajikistan 2018

5. Abdullayeva I. Milliy taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur uyg‘unligi. Fals.f. bo‘yicha fals.d. (PhD) diss.avtoref. – Samarqand: SamDU, 2019

6. Negmatova Sh. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom raqobatni rivojlantirishning ma'naviy, axloqiy va huquqiy jihatlari Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2018;
7. Сафарова Н. Терроризм (тарихий-фалсафий таҳлил) Monografiya.- Тошкент: Ношир, 2009.
8. Djurayev L. Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida yoshlar iqtisodiy madaniyatining transformatsiyalashuvi - innovatsion sotsiomadaniy fenomen sifatida Fals.f.d. (DSc) diss.avtoref. – Samarqand: SamDU, 2021.
9. Narkulov S. Mustaqillik davrida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va ijtimoiy ongdagi o'zgarishlar. Fals.f.. (DSc) diss. avtoref. – T.: O'zMU, 2018.
10. Xudayqulov A. Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida iqtisodiy ongning roli. Fals.f.n. diss. avtoref. – T.: O'zMU, 2005.
11. Hakimov N, Zulfiqarov.SH, Qodirov N. O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida. –T., 2022.
12. Erkayev A. Yangi O'zbekiston: mo'ljal-Uchinchi renessans.-T.,2021.
13. Ницше Ф. Зардўшт таваллоси. Тафаккур журнали, 1995, 1-сон. -Б. 91.
14. Мудрые и проницательные цитаты сэра Уинстона Черчилля <https://fit4brain.com/7195>
15. А.Давид Крокер “Сен и совещательная демократия”. (Литл 2003:229). 2006.
16. Махбул уль Хак//Доклад о развитии человека 2010. Резюме. 20-е, юбилейное издание. ПРООН.С. 3
17. Человеческое развитие:новое измерение социально-экономического прогресса.-М.: 2000.-С.23.
18. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar.-T.: Adolat, 2004.-B.35.
19. FellA.,Paauuw D. Analysis of the Open Dualistic Economy. An Application to the Phlippine.-Washington, 1996.P.46.
20. Урсул У .Д . На пути к информационно -экологическому обществу . Философские науки , 1991, № 5 , 6 –bet.

21. Abdurahmonov Q.A. Inson taraqqiyoti. –Т.: Fan va texnologiyalar, 2013.- В. 293.
22. Раззоков А., Тошматов Ш, Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: Молия, 2002. – Б. 41.
23. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1962. – С. 332.
24. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Директмедиа Паблишинг, 2008. – С. 169.
25. Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Монография.-Т.: 2012. - С.207 .

III Bo‘lim. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar:

1. Buckman R.H. Building a Knowledge-Driven Organization.-McGraw-Hill, 2004.-P.132.
2. Эрнандо де Сото.Загадка капитала.-М.: Олимп-Бизнес, 2004.- С. 272.
3. Myrdock I. Sartre - Romantic Rationalist, Ind, 1967.
4. Саидов А. Философско-правовое наследие Иммануила Канта и современная юриспруденция. –Ташкент.: - 2008. С.228.
5. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш маъсулияти.–Тошкент: Ўзбекистон, 2018.- Б. 346.
6. Авесто: Яшт китоби. –Тошкент.: Шарқ, 2001. – Б. 128.
7. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. –Тошкент.: Ўзбекистон, 1997. –Б. 206-211.
8. Чалоян В.К. Восток и Запад. М., 1979.- В.476.
9. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. Al-jomi’ as-sahih. 4-tom , Toshkent.: 1997.-В. 81,83, 97, 101.
10. Материалисты древней Греции. М., 1955.-Б. 182.
11. Choriyev A. Inson falsafasi. Т.: Faylasuflar jamiyati, 2007. –В.55.
12. Falsafa qomusiy lug‘at. Т.: Sharq nashriyoti, 2004. –В. 45.
13. Доклад о развитии человека2010 – Реальное богатство народов: пути к развитию человека. – ПРООН. 2010. – С. 17

14. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Тошкент., 1993. –Б. 183-184.
15. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk. Toshkent., 1997.,-В. 47.
16. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent., 1994.-В. 32.
17. Крылова Л.А., Мосолова Л.Н. Экзистенциализм в Англия и США. М., 1976 с .39
18. Rostow W.W. The Process of Economic Growth. 2ed.-Oxford, 1930. P.319
19. Стоуньер Т. Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики. Новая технологическая волна на Западе/Под пред. Гуревича П.С.-М.:Прогресс, 1986.-С.24.
20. Амартия Сен. Развитие как расширение человеческого выбора, 1989
21. To‘lenov J .T . Hayot falsafasi. Toshkent., 1993.-В. 154-155.
22. Tulenov J. Jamiyat falsafasi. Т.: О‘zbekiston, 2001.-В. 84.
23. Темур тузуклари.-Тошкент.: Ўзбекистон, 2014.- Б. 8.
24. Солин В.Н., Шпаковская Е.П. Социально-экономическая статистика: Учебник.-М: Юрист. 2001.-С.339.
25. Глобальные тенденции тысячелетия” Доклад. Узбекистан. //Экономическое обозрение. -2004 .- №10
26. BMT ning Ijtimoiy himoya borasidagi Butun jahon sammiti.
27. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - Т., 2006-2008.
28. Макаров В.Л. Экономика знаний: уроки для России // Наука и жизнь. - М, 2003.- №5.
29. Исупов К., Савкин И. Русская философия собственности (XVII-XX вв.). - СП.: Ганза, 1993. – С. 512.
30. Адам Смитнинг “кўринмас қўл”и. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qo'l>.
31. Abduraxmonov Q.X . Inson taraqqiyoti. Т.: Fan va texnologiyalar, 2013.- В. 293.
<https://human-development-index>;

www.edc.org;

www.bellivue.edu;

www.ktl.jyu.fi;

www. <https://yumh.uz>;

www.strategy.uz.

www.undp.uz

<https://president.uz>

<https://lex.uz>

<https://constitution.uz>

<https://uzlidep.uz>

ATAMALAR GLOSSARIYSI

Barqaror rivojlanish – jamiyat taraqqiyotining eng muhim zamonaviy tamoyillaridan biri. Unga binoan jamiyatning eng muhim maqsadi – rivojlanishning uzluksizligini, uning barqaror xarakterini ta'minlashdir. Barqaror rivojlanish o'z ichiga iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa komponentlarni qamrab oladi va nafaqat hozirgi kunda yashovchilar, balki kelajak avlodlarning munosib turmush darajasini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Gender tengligi – jinsiy belgilar bo'yicha kamsitish, ya'ni diskriminasiyaning barcha shakllarini bartaraf qilish. Insonning huquq va erkinliklari kafolatlarini uning jinsidan qat'i nazar qonunchilik va tashkiliy nuqtai nazardan ta'minlashni ko'zda tutadi.

Globalashuv – yagona umumbashariy madaniy, axborot, iqtisodiy makonning vujudga kelishi hamda mintaqalar va mamlakatlarning har sohadagi o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri chuqurlashuvi jarayoni.

Demokratiya – xalq hokimiyatning yagona qonuniy manbai hisoblanuvchi siyosiy rejim.

Ijtimoiy siyosat – aholi farovonligini ko'tarish, ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlar manfaatlarini ximoya qilish, sog'liqni saqlash, maorif, mehnat munosabatlari kabi jamiyat uchun ahamiyatli sohalarni rivojlantirishga qaratilgan maqsadlarga erishishni huquqiy, tashkiliy va moliyaviy ta'minlash.

Iqtisodiy o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakat – iqtisodiyoti ilgari ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulkchilikka, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik prinsiplariga asoslangan va endilikda davlat qurilishi modellarini almashtirayotgan, iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirayotgan sobiq socialistik mamlakatlar.

Iste'mol savati – yil mobaynida iste'mol etiladigan mahsulotlar va xizmatlar to'plamining jon boshiga hisoblangan o'rtacha miqdori. Tarixan erishilgan turmush darajasi, iqlim, jo'g'rofiy va boshqa omillarga ko'ra iste'mol savatiga kiritiladigan mahsulotlar va xizmatlar to'plami turli mamlakatlarda bir biridan farq qiladi.

Iqtisodiy o'sish – rivojlanish samaradorligini ananaviy ko'rsatkichlaridan biri. Asosan, mamlakat YAIMI hajmining o'tgan yilning mutanosib davriga nisbatan o'zgarish foizi sifatida hisoblanadi.

Kambag'allik chizig'i – mamlakatdagi turmush darajasi andozalarni ta'minlash uchun lozim bo'lgan daromadlarning eng kam, minimal hajmi. Farovonlikni tarixan erishilgan darajasiga qarab kambag'allik chizig'i turli mamlakatlarda bir hil emas, ammo Jahon Banki hisobiga ko'ra xalqaro kambag'allik chizig'i (harid qilish qobiliyati paritetiga ko'ra) jon boshiga kuniga \$ 1.25 tashkil qiladi.

Liberallashtirish – davlatning iqtisodiyotga va moliyaviy jarayonlarga aralashuvini kamaytirish, savdo uchun to'siqlarni bartaraf qilish siyosati.

Rivojlanishga ko'maklashish qo'mitasi (RKQ) – Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining qo'mitasi bo'lib, u barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun asosiy donorlarning birgalikdagi harakat samaradorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini kuchaytirish bo'yicha muhim forumi hisoblanadi. Qo'mitaga 1960 yilda asos solingan. Qo'mitaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- a) ishonchli statistik hisobotlarni taqdim qilish;
- b) rivojlanishga ko'maklashish doirasidagi amaliy faoliyat to'g'risida ma'lumotlarni taqdim qilish;
- v) eng yuqori natijalarga erishish uchun maslahat yordami ko'rsatish.

Turmush darajasi – jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojining majmuiy ko'rsatkichi. U jon boshiga real daromadlar, qashshoqlik koeffisienti, sog'liqni saqlash imkoniyatlari, daromadlar o'sishi notekisligi, ta'lim andozalari, aholini muayyan tovarlar bilan ta'minganligi (masalan, 1000 kishiga keladigan televizorlar miqdori) va h.k. majmui bilan o'lchanadi.